

Toshkent davlat yuridik universiteti
Kengashining 2022-yil 01-iyuldagi 7-son
majlis bayonnomasiga 3-ilova

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETINING
AKADEMIK HALOLLIK VA TADQIQOT ETIKASI KODEKSI**

Toshkent – 2022

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. Umumiy qoidalar va asosiy tushunchalar	3
II. Asosiy tamoyillar.....	5
III. Huquq va majburiyatlar.....	7
IV. Akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va tadqiqot etikasining buzilish shakllari	11
V. O'quv-uslubiy ishlarda akademik halollik va tadqiqot etikasi.....	16
VI. Ilmiy-tadqiqot ishlarida akademik halollik va tadqiqot etikasi.....	19
VII. Huquqiy tadqiqot turlari.....	27
VIII. Ilmiy-tadqiqot ishi turlari	29
IX. Huquqiy tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi	31
X. Huquqiy tadqiqotlar mazmuniga qo'yilgan talablar.....	33
XI. Tadqiqot metodologiyasi va huquqiy tadqiqot modellari.....	40
XII. Huquqiy tadqiqotning zamonaviy yo'nalishlar	43
XIII. Huquqiy tadqiqotlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari.....	44
XIV. Akademik nohalollikni aniqlash va uni buzganlik uchun javobgarlik.....	50
XV. Akademik kengash va Tadqiqot etikasi kengashi tomonidan akademik halollik va tadqiqot etikasini buzgan xodim va talabalarning javobgarligini ko'rib chiqish	52
XVI. Yakuniy qoida	52
ILOVALAR.....	53

KIRISH

Akademik halollik va tadqiqot etikasi milliy yuridik ta'limning samaradorligini oshirish, yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash va mamlakatda yuridik fanni rivojlantirishning asosiy ustunlari hisoblanadi.

Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) akademik halollik va tadqiqot etikasi bo'yicha xalqaro tan olingan standartlarni e'tirof etadi. Universitet mazkur standartlarni joriy qilish maqsadida o'z faoliyatida akademik halollik va tadqiqot etikasi qoidalariga qat'iy rioya qilishni yuridik kadrlar tayyorlash hamda ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor vazifasi etib belgilaydi.

Toshkent davlat yuridik universitetining Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi (keyingi o'rinlarda – Kodeks) bilan belgilab berilayotgan qoidalarga rioya qilish uchun asosiy mas'uliyat har bir talaba, professor-o'qituvchi va xodim zimmasiga yuklatiladi. Bunda universitetning har bir a'zosi boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, mualliflik huquqini tan olish va unga rioya qilish kabi fazilatlarni namoyon etishlari zarur.

Mazkur Kodeks va uning asosiy qoidalari universitetning o'quv va ilmiy faoliyatida akademik halollik hamda tadqiqot etikasining umumqabul qilingan standartlarini joriy qilishga qaratilgan bo'lib, ushbu sohadagi uchta muhim vazifani amalga oshirishni belgilaydi:

- 1) akademik halollik va tadqiqot etikasiga daxldor axloqiy qoidalarini o'rnatish hamda nomaqbul xatti-harakatlarning oldini olish;
- 2) Universitet talabalari va xodimlarida plagiat (ko'chirmachilik)ga murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish hamda akademik halollikni keng targ'ib qilish;
- 3) akademik halollik va tadqiqot etikasi sohasida talabalar va xodimlar uchun mos bo'lgan axloqiy xususiyatlarni shakllantirish.

Ushbu Kodeks talablari o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonining barcha ishtirokchilari hamda boshqalarning ijodiy mehnati natijalariga hurmat bilan munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirishga, ilmiy faoliyat natijalarini intellektual mulk sifatida tan olishga va unga nisbatan munosib munosabatni rag'batlantirish maqsadini ko'zlaydi.

Mazkur Kodeks 2022/2023-o'quv yilidan boshlab amal qiladi.

I. Umumiy qoidalar va asosiy tushunchalar

1. Mazkur Kodeks universitet talabalari, professor-o'qituvchilari, xodimlari, o'quv jarayonini tashkil etuvchi tarkibiy bo'linma rahbarlari, tadqiqotchilar (doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar)ning akademik halolligi

masalalariga adolatli, oshkora, to'g'ri munosabatni shakllantirish va ularning tadqiqot etikasiga rioya qilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Kodeksning asosiy vazifasi akademik halollik va tadqiqot etikasi qoidalarini belgilash, ularni amalga oshirish va nazorat qilishni ta'minlash, shuningdek talabalar (bakalavriat va magistratura talabalari), tadqiqotchilar, pedagog xodimlarning o'quv hamda ilmiy tadqiqot doirasida akademik halollik, ta'lim va mehnat faoliyatidagi tadqiqot etikasi tamoyillarini belgilashdan iborat.

3. Akademik halollik va tadqiqot etikasi qoidalari akademik faoliyat (oraliq va yakuniy nazorat ishlari, o'quv adabiyotlari, fan moduli kontentlari) va ilmiy tadqiqot faoliyatining barcha shakllarini (ilmiy maqola, monografiya va boshqa barcha turdagi ilmiy ishlarni) tayyorlash, ularga taqriz berish, opponent bo'lish, iqtiboslar keltirish va nashr etishda universitetning barcha xodimlari, doktorant va mustaqil izlanuvchilariga taalluqlidir.

4. Asosiy tushunchalar:

Akademik halollik – o'qish va yozma ishlarni bajarishda (testlar, esselar, bitiruv malakaviy ishlari va dissertatsiyalar), oraliq va yakuniy nazoratlar, imtihonlarda savollarga javob berishda, tadqiqot olib borishda, o'z bilimini ifoda etishda, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar hamda talabalar bilan munosabatlarda halollikni ifoda etadigan qadriyatlari va tamoyillarining majmui. Bunda tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ma'lumotlar, ilmiy natijalar, usullar, protseduralar va ilmiy nashrning holati haqqoniy va xolisona ko'rsatilishi, plagiat (ko'chirmachilik), mavjud ma'lumotlarni soxtalashtirish (falsifikatsiya) hamda qalbaki ma'lumotlarni yaratish (fabrikatsiya)ga yo'l qo'ymaslik lozim.

Tadqiqot – umumlashtirish mumkin bo'lgan bilimlarni yaratish yoki mavjud bilimlarga hissa qo'shishga qaratilgan tizimli o'rganish, shu jumladan, tadqiqotlarni shakllantirish, sinovdan o'tkazish va baholashdan iborat jarayon.

Tadqiqot etikasi – talabalar, tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar tadqiqot faoliyatining barcha shakllarida halollik, shaxsiy mas'uliyat, ochiqlik va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish, professional yondashuv, akademik obro'ni saqlash va boshqa umume'tirof etilgan etika qoidalari va tamoyillarining majmui.

Huquqiy tadqiqot – tadqiqotchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuga oid huquqiy nazariyalar, qarashlar, yondashuvlar, qonunchilik hujjatlari, sud amaliyoti va shu kabi jihatlarni aniqlash hamda tahlil qilish jarayonidir, keng ma'noda – huquq olami hamda huquq tartibga solishi kutilgan soha o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish jarayonidir.

Huquqiy tadqiqot doirasi – tadqiqot amalga oshiriladigan chegaralarni, ya'ni tadqiqotda ko'rib chiqiladigan barcha jihatlar qamrovini bildiradi. Shuningdek, huquqiy tadqiqot doirasida aynan qaysi jihatlar tadqiqot tomonidan qamrab olinmasligini ham qayd etish muhimdir.

Huquqiy tadqiqot maqsadi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

huquqiy nazariyalarni tadqiq etish, tizimlashtirish va joriy etish imkonini o'rganish;

yangi huquqiy konsepsiya va nazariyalarni taklif etish;

turli yondashuvlar orqali qonunchilikni o'rganish va baholash;

qonunchilik yutuqlarini va kamchiliklarini, undagi huquqiy bo'shliqlarni o'rganish hamda takomillashtirish;

qonunchilik hujjatlarining jamiyatga ta'sirini tahlil etish, baholash va prognoz qilish;

qonunchilik hujjatlarini tanqidiy sharhlash va autentik tarjima qilish;

qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etishda sabab-natija aloqadorligini o'rganish;

muayyan munosabatga qaysi huquq normasini qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qonunchilik hujjatlarining moslashuvchanligi, barqarorligi va mantiqiy izchilligini aniqlash;

qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillarni tahlil etish (huquqning ijtimoiy auditi);

tahliliy, tarixiy va qiyosiy-huquqiy tadqiqot natijalariga asosan qonunchilikni isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etish.

II. Asosiy tamoyillar

5. Akademik halollik va tadqiqot etikasining asosiy tamoyillari:

vijdonlilik – baholanadigan va baholanmaydigan o'quv hamda ilmiy ishlarni halol, munosib bajarish;

ochiqlik (shaffoflik) – talabalar, professor-o'qituvchilar va Universitetning boshqa xodimlari o'rtasida oshkoralik hamda o'zaro ishonch asosida ta'lim, ilmiy ma'lumotlar, manbalar, tadqiqot usullari, vositalar, natijalar va g'oyalar almashinuvi. Bunda ilmiy ish va uning natijalari borasida bildirilgan tanqidiy fikrlar hamda yangi g'oyalar ishni takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

huquq va erkinliklarni hurmat qilish – ijodiy fikr va g'oyalarni erkin ifoda etish huquqi;

tenglik – har bir talaba, professor-o‘qituvchi, tadqiqotchi va boshqa xodimlarning akademik halollik hamda tadqiqot etikasi qoidalariga rioya qilish va ularning buzilishi uchun teng javobgar bo‘lishi;

to‘g‘rilik va halollik tamoyili – foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga yoki ishning ichiga biron-bir manbani kiritish hamda unga havola berish uchun muallif ushbu manbani shaxsan o‘qib chiqishi va ushbu manbada o‘zi iqtibos keltirgan fikrni o‘zgartirmagan holda keltirishi;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish – talabalar, izlanuvchilar va xodimlarning o‘z tadqiqotlaridagi takliflar, chop etilgan materiallar, ommaviy nashrlar, shuningdek, boshqa barcha turdagi ilmiy ishlarda bunday ishning haqqoniyligiga ziyon yetkazadigan moliyaviy va boshqa xarakterdagi manfaatlar to‘qnashuvi haqida tegishli shaxsga xabar berishlari;

tadqiqotning originalligi – tadqiqot etikasiga asosida ilmiy bilimlar yoki amaliy ko‘nikmalarni oshirishga hissa qo‘shadigan xulosalarga ega bo‘lgan original tadqiqotga asoslangan nashr. Bunda tadqiqot ishi haqqoniy tadqiqotga asoslangan, ya‘ni fanda allaqachon mavjud bo‘lgan xulosalarni emas, balki yangi bilimlar va yondashuvlarni taqdim etsa, original ish hisoblanadi;

tadqiqot erkinligi – bu tadqiqotchining mavzuni tanlashda, izlanish olib borishda va tadqiqot natijalarini e‘lon qilishda erkinligini bildirib, bunda tadqiqotchining ilmiy va ijodiy faoliyatiga asossiz aralashish yoki asossiz talablar belgilash mumkin emas;

diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik – xodimlar, tadqiqotchilar yoki talabalarni jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi yoki (ilmiy salohiyati va halolligi bilan bog‘liq bo‘lmagan) boshqa omillar asosida kamsitishga yoki imtiyozlar belgilashga yo‘l qo‘yilmasligi;

tadqiqotning aniqligi, barqarorligi va to‘laligi – ilmiy ishni shakllantirishda ma‘lumotlar, fikr-mulohazalar, xulosalar mazmuni tugal va aniq ifoda etilishi, mantiqiy izchillikka rioya qilinishini ifodalaydi;

havlalarning reprezentativligiga rioya qilish – muallif ilmiy tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha ushbu sohadagi eng yaxshi va eng muhim asarlarga murojaat qilishi, ishning dolzarbligini ko‘rsatish uchun har doim eng so‘nggi nashrlardan iqtibos keltirishi;

ehtiyotkorlik – beparvolik natijasida xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik, o‘z ishini hamda tegishli mavzuga oid boshqa ishlarni va ma‘lumotlarni lozim darajadagi e‘tibor bilan o‘rganish, tahlil qilish hamda shakllantirish mas‘uliyati;

sir tutilishi lozim bo'lgan axborot maxfiyligiga rioya etish – tadqiqotni amalga oshirishda shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlash tartibiga hamda tijorat va xizmat sirlari maxfiyligiga rioya etish;

tadqiqot olib borishda javobgarlik – muallif yoki uning merosxo'rlari huquqlarining muhofazasiga qat'iy rioya qilish va ularning asarlaridan o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida foydalanish jarayonida havolalarni to'g'ri va aniq keltirish;

akademik muhitda professional xushmuomalalik va madaniyat – akademik faoliyat va ilmiy tadqiqotlarda o'zaro suhbat, bahs va munozaralarda professional madaniyatga qat'iy rioya qilish, xushmuomalalik va etika qoidalarini shaxsiy xarakter va yutuqlardan ustun qo'yish;

tadqiqotni samarali boshqarish – boshqalar manfaati uchun tadqiqot sifatini boshqarish bo'lib, ilmiy tadqiqot natijalarini boshqalar tomonidan keng foydalanish uchun qulay shaklda taqdim etish hamda uni milliy va xalqaro ilmiy jamoatchilik foydalanishi mumkin bo'lgan tarmoqlarga joylashtirishni nazarda tutadi;

tadqiqotning xolisligi (ilmda manfaatlar muvozanatini saqlash) – tadqiqotlar obyektiv ehtiyojlarga muvofiq bo'lishi hamda tadqiqot olib borilayotgan taraflarning manfaatlari bir xil va xolis o'rganilishini ifodalab, bunda xodim, talaba va tadqiqotchining ilmiy izlanishlari noxolis axborot asosida ayrim toifadagi shaxslar manfaatlariga xizmat qiladigan yondashuvdan xoli bo'lishi lozim;

chop etish mas'uliyati – ilmiy natijalarni martaba oshirish maqsadida emas, balki ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish hamda keng jamoatchilikni xabardor etish uchun nashr etish akademik mas'uliyatini namoyon etib, bunda ko'chirmachilik asosidagi takroriy nashrlarni chop etishdan saqlanish tavsiya etiladi.

6. Mazkur Kodeksning asosiy tamoyillariga rioya etilishi, jumladan, akademik halollik va tadqiqot etikasi qoidalarining bajarilishini ta'minlash maxsus dasturiy vositalar orqali topshirilayotgan matnlarning originalligini tekshirish va jamoatchilik nazorati vositalari orqali amalga oshiriladi.

III. Huquq va majburiyatlar

7. Universitet mazkur Kodeks qoidalarini bajarilishini talab qilishga va ular buzilgan taqdirda tegishli choralar (sanksiyalar) qo'llashga haqlidir.

8. Universitetning akademik halollik va tadqiqot etikasini ta'minlash sohasidagi majburiyatlari:

akademik va tadqiqot ishlarining originalligini (o'ziga xosligi) tekshirish uchun elektron tizimlardan bepul foydalanish uchun sharoitlar yaratish;

talabalar va xodimlarning akademik halollik va tadqiqot etikasi sohasidagi huquq va majburiyatlari to'g'risida xabardor qilish;

qonun talablariga muvofiq talabalar va xodimlarning shaxsiy hamda maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilishdan to'liq himoya qilish choralari ko'rish;

talabalar va xodimlarni ularning yozma ishlari maxsus elektron tizimlardan foydalanilgan holda originalligi (o'ziga xosligi) tekshirilishi haqida xabardor qilinishini tashkil qilish;

universitet veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida mazkur Kodeks bo'yicha o'rnatilgan qoidalar haqida axborotlar, infografikalarining joylashtirilishini tashkil qilish;

mazkur Kodeks ijrosini samarali va obyektiv ta'minlovchi, tegishli javobgarlik choralari qo'llash huquqiga ega bo'lgan Akademik halollik kengashi va Tadqiqot etikasi kengashi faoliyatini samarali tashkil etish;

universitetda akademik halollik va tadqiqot etikasiga rioya qilinishi bilan bog'liq murojaatlarni elektron yuborish va ularni o'rganish bo'yicha tegishli mexanizmlarni yaratish;

"Akademik halollik va tadqiqot etikasiga rioya qilishni targ'ib qilish dasturi"ni ishlab chiqish va uni keng ko'lamda amalga oshirish;

mazkur Kodeks talabalarining bajarilishini ta'minlashda tenglik, adolat, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga rioya qilish;

talabalar va xodimlar tomonidan universitetda akademik halollikni ta'minlash va tadqiqot etikasiga rioya qilinishi bo'yicha turli xil targ'ibot vositalaridan foydalanish;

akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va tadqiqot etikasini buzish holatlari haqida xabar bergan shaxslarning shaxsini oshkor qilmaslik va o'z vakolati doirasida boshqa majburiyatlarni bajarish.

9. Fakultet dekanatlarining majburiyatlari:

talabalarga har o'quv yili boshlanishida "Tanishtiruv hafta"ligi ("Orientation-week") doirasida "Akademik halollik" mohiyati, uning professional yurist sifatida shakllanishda tutgan o'rni, yuzaga kelish shakllari haqida tushuntirish kurslarini tashkil qilish;

akademik halollik va tadqiqot etikasiga daxldor axloqiy qoidalar bilan o'z bo'ysunuvidagi talaba va xodimlarni tanishtirish hamda nomaqbul xatti-harakatlarni sodir etilishining oldini olish;

universitet talabalari va xodimlarida plagiat (ko'chirmachilik)ga murosasiz munosabatda bo'lish kayfiyatini shakllantirish hamda akademik halollikni keng targ'ib qilish;

malakali mutaxassislar tomonidan mazkur kodeks qoidalari haqida batafsil tushuntirish tashkil qilish;

talabalar va professor-o'qituvchilarning akademik halollik talablari to'g'risida doimiy ravishda xabardor qilib borilishlarini ta'minlash hamda rioya etishlarini nazorat qilish;

mazkur Kodeksning 8-bandida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qatnashish.

10. Kafedralarning majburiyatlari:

xodimlarga antiplagiat tizimidan foydalanish va u asosida akademik halollikni aniqlash bo'yicha treninglar tashkil qilish;

professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarni to'g'ri yozish ko'nikmalariga o'rgatish va plagiatni qayta aniqlash;

kafedraning akademik faoliyatida mazkur Kodeks qoidalarini qo'llash va uning ijrosini ta'minlash;

xodimlar, talabalar va tadqiqotchilarga tegishli ilmiy yoki akademik darajani muvaffaqiyatli qo'lga kiritishda yordam berish hamda talabalarga barcha kurslar, nazorat ishlari, topshiriqlar va imtihon materiallarida mualliflik huquqi qoidalariga rioya qilgan holda akademik halollik va ilmiy axloq qoidalari bo'yicha aniq ko'rsatma hamda tavsiyalar berish;

talabalar hamda tadqiqotchilarga Kodeks doirasida ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida tushuntirishlar berish, belgilangan tartibda bajarilishini nazorat qilish;

mazkur Kodeksning 8-bandida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qatnashish.

11. Universitet professor-o'qituvchilari mazkur Kodeks qoidalari bo'yicha barcha darajadagi va o'quv shaklidagi ta'lim oluvchilar bilan har qanday mavjud vositalar orqali tushuntirish ishlarini olib borishlari kerak: og'zaki tushuntirishlar, sillabusdagi eslatmalar, mustaqil ishlarni bajarish uchun tarqatma materiallar va boshqalar.

12. Talabalar va izlanuvchilar o'z ishlarini bajarishda mazkur Kodeks bilan belgilangan qoidalarga, ilmiy etika va mualliflik huquqining fundamental prinsiplariga rioya qilishlari shart.

13. Izlanuvchilarning akademik halollik va tadqiqot etikasini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari:

halollik: izlanuvchilar o'z tadqiqotlarining to'g'riligi hamda akademik halollik va tadqiqot etikasiga rioya qilgan holda tayyorlanganligi uchun javobgardirlar;

qoidalarga bo'ysunish: izlanuvchilar mazkur Kodeks va universitetning tadqiqot o'tkazish bilan bog'liq tartib-qoidalarini bilan tanishishlari va ularga rioya qilishlari lozim;

tadqiqot metodlari: izlanuvchilar tadqiqot o'tkazishda tegishli metodlardan foydalanishlari, xulosalarni tanqidiy tahlildan o'tkazishlari, natijalar va talqinlarida to'liq hamda xolis axborot berishlari kerak;

tadqiqot qaydlari: izlanuvchilar tadqiqot bo'yicha ma'lumotlarni aniq va tushunarli tarzda qayd etib borishlari darkor, bunda mazkur ish bilan boshqalar ham tanishishi va foydalana olishi imkoniyati yaratiladi;

tadqiqot natijalari: izlanuvchilar mualliflik huquqiga ega bo'lishlari va ustuvor yo'nalishlarni belgilagan vaqtlaridan boshlab darhol ma'lumotlar va natijalar bilan o'zaro ochiq va tezkor almashishlari lozim;

mualliflik huquqi. Izlanuvchilar barcha ilmiy ishlarga qo'shgan hissalarini, bu boradagi hisobotlari va tadqiqotning mualliflik huquqi unga tegishlilikini isbotlovchi ma'lumotlarni saqlash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmlariga olishlari kerak. Mualliflar ro'yxati faqat tegishli mualliflik mezonlariga javob beradigan va ishga o'z hissasini qo'shgan shaxslarni o'z ichiga olishi kerak;

nashr tasdig'i: izlanuvchilar chop etilgan materiallarda tadqiqotga sezilarli hissa qo'shgan, ammo mualliflik mezonlariga to'g'ri kelmaydigan shaxslarning barchasini, jumladan, yozuvchilar, homiylar va boshqa shaxslarni aniq ko'rsatishlari lozim;

ekspert bahosi: izlanuvchilar boshqalarning ishiga taqriz berishda maxfiylikka rioya qilishlari hamda o'z vaqtida, adolatli, qat'iy baho berishlari kerak;

manfaatlar to'qnashuvi: izlanuvchilar tadqiqotdagi takliflar, chop etilgan materiallar, ommaviy xabarlar, shuningdek, barcha sharhlarda ishning haqqoniyligiga ziyon yetkazadigan moliyaviy va boshqa xarakterdagi manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berishlari shart;

jamoatchilik bilan aloqa: izlanuvchilar tadqiqot natijalarining ahamiyati va tan olinishiga doir ommaviy muhokamalarda ishtirok etganda o'z shaxslarining e'tirof etilishiga qaratilgan izohlarni cheklashlari hamda professional izohlarni shaxsiy qarashlarga asoslangan fikrdan ajrata olishlari lozim;

nomaqbul tadqiqot amaliyoti haqida xabar berish: izlanuvchilar tadqiqotni o'tkazishdagi noqonuniy harakatlar, xususan, ma'lumotlarni o'zidan to'qib chiqarish, soxtalashtirish, ko'chirmakashlik kabi, shuningdek, tadqiqotning haqqoniyligiga putur yetkazadigan ehtiyotsizlik, mualliflarga havola qilishdagi xatolik, qarama-qarshi ma'lumotlarni ko'rsatmaslik, chalkashlik hosil qiluvchi tahlil metodlaridan foydalanish kabi holatlar haqida tegishli universitetning vakolatli tuzilmalariga xabar berishlari shart.

IV. Akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va tadqiqot etikasining buzilish shakllari

14. Akademik qoidabuzarlik shakllari quyidagilardir:

Plagiat (ko'chirmachilik) – bu o'zgalarning ijodiy faoliyati natijalari, g'oyalari, so'zlarini qo'lyozma, bosma yoki elektron shaklda bo'lgan barcha nashr etilgan va nashr etilmagan materiallarni muallifning rozilgisiz ataylab o'zining fikri sifatida taqdim etish, jumladan, undan manbaga to'liq havola qilmasdan foydalanish. Plagiat holatlariga ruxsatsiz ravishda boshqa birovning oshkor qilingan yoki oshkor qilinmagan asarining ayrim qismlarini to'liq qayta ishlash yoki ifoda yo'sinini o'zgartirish, manba (havola)ni ko'rsatmaslik yoki uni inkor qilish va ushbu asarni o'ziniki sifatida taqdim etish kiradi.

Falsifikatsiya (ma'lumotlarni soxtalashtirish) – o'z qarashlari, gipotezalari va boshqa ma'lumotlarni asoslash maqsadida muayyan ma'lumotlarni o'zgartirib ko'rsatish yoki ilmiy ishga kiritmaslik.

Fabrikatsiya (qalbaki ma'lumotlar yaratish) – tadqiqot ishida aslida mavjud bo'lmagan ma'lumotlarni yuz bergandek qilib ko'rsatish.

Mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan ijodiy faoliyat natijalariga O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasi talablariga javob beradigan asarlar kiradi.

15. Plagiat quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

asar muallif(lar)ini (manbasini) ko'rsatmagan holda foydalanish va iqtibos keltirish;

boshqa shaxslar tomonidan yaratilgan asarni to'liq ko'chirgan holda yoki tadqiqot ishi doirasida mos hajmdan ortiq darajada foydalanish orqali o'zlashtirish;

fikrning manbasini ko'rsatmasdan o'zgartirib ifodalash;

internetdan to'liq olingan yoki ilgari taqdim etilgan yozma ishni (oralik, yakuniy nazorat), bitiruv malakaviy ishini (BMI), magistrlik yoki doktorlik (PhD, DSc) dissertatsiyasini o'zlashtirgan holda topshirish.

16. O'quv (o'quv-uslubiy) yo'nalishida quyidagilar akademik qoidabuzarlik hisoblanadi:

ko'chirmachilik – bu har qanday ruxsatsiz yozma (bosma, qo'lyozma) manbalardan foydalanish, shu jumladan, manbalardan texnik aloqa vositalari yordamida foydalanish, talabaning bilimlarini nazoratdan o'tkazishda (imtihonlar, test sinovlari yoki boshqa majburiy attestatsiya tadbirlarida) imtihon savollariga tegishli javoblarni aks ettiruvchi ma'lumotlarni ruxsatsiz o'zlashtirish;

ayni bir ishni ikki marotaba topshirish – talaba yoki xodim tomonidan nazorat ishlari, BMI, magistrlik ishlari, darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy maqola, monografiya va dissertatsiyalarni tayyorlashda turli xil mualliflik ishlari ostida bir xil matnni taqdim etish va boshqalar. Kichik o'zgarishlar va tuzatishlar, masalan, darslikni yoki monografiyani boshqacha shaklda rasmiylashtirish orqali o'quv qo'llanma sifatida qayta tayyorlash va shu kabi boshqa holatlar tavsiya etilmaydi. Ilgari tayyorlangan matndan muallifning o'zi tomonidan kattaroq asarning bir qismi sifatida foydalanilishi ikki marotaba topshirish yoki qayta topshirish deb hisoblanmaydi;

akademik halollik qoidalarini buzishda muayyan shaxsga yordam berish – boshqa talabaga boshqa darsda topshirilgan vazifani jo'natish, topshiriq qismlarini takrorlash va o'zinikidek topshirishga imkon berish;

boshqa shaxs sifatida namoyon qilish – imtihonlar, test sinovlari, laboratoriya ishlari, malakaviy imtihonlar yoki boshqa topshiriqlar paytida akademik imtiyozlarni qo'lga kiritish uchun o'zini boshqa shaxs sifatida namoyon qilish yoki o'z o'rniga boshqa shaxslarni kiritish;

to'siq yaratish va to'sqinlik qilmoq – adolatsiz akademik yutuqqa erishish uchun boshqalarning ta'lim yoki ilmiy faoliyatiga to'sqinlik qilish. Bunday to'sqinlik qilishga o'quv maqsadlarida ishlatiladigan ma'lumotlarni soxtalashtirish, o'quv yoki ilmiy faoliyatda foydalaniladigan fayllar, qo'lyozmalar yoki elektron va boshqa materiallar, ilmiy ishlar, kutubxona jihozlari (yoki mol-mulk)ga shikast yetkazish va shu kabi o'quv hamda ilmiy-ijodiy faoliyatga har qanday to'sqinlik xatti-harakatlari kiradi;

auditoriya mashg'ulotlari va konsultatsiyalarga to'sqinlik qilish, xalaqit berish – o'qituvchi, dekan, murabbiy (tyutor) tomonidan tashkil qilingan dars yoki konsultatsiyani maqsadli ravishda (qasddan) buzishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar;

17. Shuningdek, javoblarni olish:

imtihon materiallari, test savollari va boshqa materiallar kabi maxfiy (konfidensial) ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish;

baholanadigan ishni bajarish paytida javoblarni berish yoki imtihon topshiriqlariga javoblarni uzatish yoxud bu bo'yicha ruxsat etilmagan elektron qurilmalardan foydalanish;

boshqa talaba, xodim, o'qituvchi yoki boshqalar yordami bilan baholangan ishning savollari (kazus) yoki imtihon testlarining javoblarini bajarishdan oldin materiallarni qisman yoki to'liq olish;

tayyor baholanadigan ishlar yoki imtihon javoblarini/testlarni sotib olish yoki sotib olishga ko'maklashish yoxud sotishda boshqa yo'l bilan yordam berish;

har qanday usul bilan, shu jumladan, elektron pochta, kompyuter va boshqa vositalar orqali yuklab olish, baholanadigan ishlar bilan bog'liq har qanday javoblarni olish;

qog'ozdan va/yoki elektron tashuvchidan baholangan ish bilan bog'liq materiallarni olib chiqish yoki o'qituvchi, universitet xodimining kompyuteridan nusxa ko'chirish;

maxfiy (konfidensial) ma'lumotlarni oldindan kelishuvlarsiz uchinchi shaxslarga tarqatish yoki oshkor qilish taqiqlanadi.

18. Ma'lumotlarni yashirish yoki soxtalashtirish akademik qoidabuzarlik hisoblanadi:

ma'lumotlarni yashirish – aldash yoki akademik imtiyozga ega bo'lish maqsadida ma'lumotlarni, transkriptlarni yoki boshqa o'quv hujjatlarini yashirish;

soxtalashtirish (kelishuv) – bu boshqa shaxs tomonidan to'liq yoki qisman o'z shaxsiy ishi sifatida bajarilgan yozma ishlarni (oraliq yoki yakuniy nazorat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, dissertatsiya, darslik, o'quv qo'llanma va boshqa ilmiy ishlarni) yetkazish yoki o'z ishini boshqa odamga haq evaziga yoki bepul taqdim etish;

qalbaki (yolg'on) ma'lumotlar taqdim etish – yozma ishlarda muayyan holatlar, voqealar, faktlar to'g'risida ma'lumotlarni qasddan adashtirish, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan axborotlar keltirish;

19. Baholarni, ma'lumotlarni, baholanayotgan ishlarni soxtalashtirish:

baholar, topshiriq bo'yicha javoblarni baholash natijalarini soxtalashtirish;

ma'lumotlarni soxtalashtirish (qo'shish, kiritish, tuzatish), ya'ni tadqiqot davomida olib borilgan so'rovnoma, anketa va boshqa usullardagi hisoblash va kuzatish natijalarini soxtalashtirish;

yoza nazorat ishlari bahosini asossiz ko'tarib qo'yish yoki bahoni pasaytirish;

boshqa talabaning baholanadigan ishini ataylab qalbakilashtirish yoki buzish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar taqiqlanadi.

20. Noto'g'ri ma'lumot taqdim etish – soxta topshiriqlar, sertifikatlar va boshqa hujjatlarni topshirish yoki akademik maqsadlarda taqdim etish qoidabuzarlik sanaladi.

Bunday qoidabuzarliklarga quyidagilar kiradi (mazkur ro'yxat chegaralanmagan):

o'zgartirilgan materiallar va tadqiqot natijalari;

uydirma faktlar yoki manbalar;

soxta sertifikatlar;

soxta hujjatlar;

soxta tavsiyanoma va boshqa xatlar;

soxta transkriptlar, diplomlar yoki boshqa ma'lumotlar;

topshiriq sanasi va vaqtini o'zgartirish;

baho ma'lumoti yoki imtihon materialidagi o'zgarishlar;

qoniqarsiz deb topilgan ishni o'zgartirish.

21. Akademik bilim darajasini olgunga kadar bitiruvchi kurslarning akademik nohalolligi quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

adolatsiz amaliyot – bitiruv malakaviy amaliyoti o'tashni e'tiborsiz qoldirish (o'tamaslik), bitiruv malakaviy ish mavzusiga aloqadorligi bo'lmagan tashkilotda amaliyotni o'tash yoki amaliyot natijalariga ko'ra soxta hujjatlarni taqdim etish;

bitiruv malakaviy ishni yoki magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish paytida akademik halollikka zid xatti-harakatlar sodir etish.

22. Quyidagilar tadqiqot etikasi qoidalarini buzish deb baholanadi:

tadqiqotlarda uydirma – tadqiqotchining tadqiqot o'tkazmaganligi, balki ma'lumotlarni o'ylab topganligi yoki yo'q ma'lumotlarni taqdim etishida namoyon bo'ladi;

ilmiy tadqiqot ishlarida soxtalashtirish – tadqiqotchining tadqiqot o'tkazganligini, ammo olingan ma'lumotlarni to'liq yoki bir qismini o'z manfaatlari yo'lida, soxta dalil olish maqsadida o'zgartirganligini anglatadi;

ilmiy firibgarlik – xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra xodimlarning ilmiy maqolalariga iqtiboslar ("Web of Science", "Scopus" va "Google Scholar" bazalari bo'yicha) va ularning ko'rsatkichlarini soxtalashtirish yoki qalbakilashtirish yoxud ilmiy "vositachilar" orqali sun'iy ravishda oshirish;

kichik o'zgarishlar (tuzatishlar) bilan nashr qilish – bir xil ilmiy xulosa va amaliy natijaga ega bo'lgan juda o'xshash maqolalar yoki boshqa ilmiy ishlarni takror nashr qilish.

23. Qo'lyozmani turli nashrlarga bir vaqtda topshirish – bir qo'lyozmani bir vaqtning o'zida bir nechta jurnalga topshirish tadqiqot etikasi qoidalarini buzish deb baholanadi. Ushbu holat muharrirlar va taqrizchilarning vaqtini behuda sarflash va bir xil ilmiy natijalarni bir nechta jurnallarda chop etish orqali ilmiy jurnallar obro'siga putur yetishiga sabab bo'ladi.

24. Mualliflar jamoasini noto'g'ri shakllantirish ham tadqiqot etikasi qoidalarini buzish hisoblanib, barcha hammualliflar tadqiqotga katta ilmiy hissa qo'shgan va ish natijalari va xulosalarini ishlab chiqishda qatnashgan bo'lishlari shart. Ishga katta ilmiy hissa qo'shgan barcha hammualliflar, jumladan, talabalar va magistrLAR mualliflar jamoasi tarkibiga kiritilishi, aksincha, ilmiy tadqiqotga hissa qo'shmagan shaxslar mualliflar tarkibida ko'rsatilmasligi kerak.

25. Akademik halollik va tadqiqot etikasi qoidalarini buzish turlari ro'yxati zarur hollarda to'ldirilishi mumkin.

26. Plagiatdan qochish bo'yicha tavsiyalar:

Plagiatga qarshi kurashish nima uchun muhim? Plagiat – bu akademik yaxlitlikni buzish hisoblanadi. Akademik hamjamiyatning barcha a'zolari o'z ishlari uchun asos bo'lgan g'oyalar, so'zlar va ma'lumotlarning mualliflari oldidagi qarzlarini tan olishlari intellektual halollik tamoyilidir.

Nima uchun plagiatdan qochish kerak? Plagiatdan qochish uchun ko'p sabablar mavjud. Siz universitetga shunchaki boshqalarning fikrini takrorlash uchun emas, balki hech bo'lmaganda bilim olish va o'z fikringizni bildirish uchun kelgansiz. Avvaliga o'z nuqtayi nazarangizni rivojlantirish juda qiyin bo'lib tuyulishi mumkin. Boshqa mualliflarning dalillarini tushunishga va o'zlashtirishga harakat qilganingizda, ehtimol siz o'zingizning ishingizda boshqalarning yozganlarini takrorlashni ko'rarsiz. Biroq mualliflik pozitsiyangiz (o'z nuqtayi nazarangiz)ni rivojlantirishni o'rganishingiz juda muhimdir. Sizdan asl mutafakkir bo'lishingiz emas, balki boshqalarning ishini tanqidiy baholashni o'rganish, turli dalillarni keltirish va o'z xulosalaringizni chiqarishda mustaqil bo'lishingiz kutiladi. Plagiatdan qochishga uringan kishi yuqori sifatli asar yaratishga intiladi. Manbadan foydalanish va iqtibos keltirish tamoyillarini tushunganingizdan so'ng plagiatdan saqlanish nisbatan oson bo'ladi. Bundan tashqari, siz yozma ijodingizning ravshanligi va sifatini yaxshilashning qo'shimcha afzalliklaridan foydalanasiz. Akademik yozuv texnikasini egallash shunchaki amaliy mahorat emas, balki sizning ishingizga

ishonch va obro'-e'tibor bag'ishlaydigan hamda tahsil olishda intellektual halollik tamoyiliga sodiqligingizni ko'rsatadigan mahorat ekanligini qadrlash muhimdir.

Agar siz plagiat qilgan deb hisoblansangiz nima bo'ladi? Universitet imtihonlardagi plagiatni jiddiy masala deb biladi. Voqealarning jiddiyligiga qarab holatlar tekshiriladi va jazolar ballarni ushlab qolishdan tortib Universitetdan chetlatishgacha bo'lishi mumkin. Plagiat tasodifiy bo'lsa ham, bu jazoga olib kelishi mumkin.

Plagiat boshqa mualliflarning asarlaridan foydalanmaslik kerakligini anglatadimi? Aksincha, o'z ishingizni sohangizdagi intellektual munozaralar bilan boyitishingiz juda muhim. Akademik ishlar deyarli har doim boshqalar tomonidan yozilgan materiallardan foydalanish va muhokama qilishni o'z ichiga oladi hamda tegishli e'tirof va to'g'ri havolalar bilan plagiatdan aniq ajralib turadi. Bilimlar ko'p yillik izlanishlar, innovatsiyalar va munozaralar natijasida jamlangan holda rivojlanadi. Siz iqtibos keltirayotgan g'oyalar va ularning mualliflariga ishonch bildirishingiz kerak. Bu nafaqat ularning ishini tan olishga yordam beradi, balki siz o'z argumentingizni qaysi asosga ko'ra asoslab berganingizni aniq qilib ko'rsatish orqali mustahkamlashingizga yordam beradi. Bundan tashqari, yaxshi iqtibos keltirish amaliyoti o'quvchiga havolalaringizni kuzatish yoki sharhingizning to'g'riligini tekshirish imkoniyatini beradi.

V. O'quv-uslubiy ishlarda akademik halollik va tadqiqot etikasi

27. Talaba nazorat va akademik ishlarni tayyorlashda, professor-o'qituvchilar bilan muloqot va nazorat turlarini topshirishda universitetning Odob-axloq qoidalariga va mazkur Kodeksda belgilangan akademik halollik talablariga rioya qilishi shart.

28. Professor-o'qituvchining o'quv-uslubiy jarayondagi asosiy vazifasi yaxshi bilim darajasiga ega bo'lish, bilganlarini haqqoniy va aniq shaklda yetkazib berish, axloq jihatdan taqlid uchun namuna bo'lish, talabalar bilan ularning tahsil olishi va o'zlarini axloq talablariga mos tutishlarini rag'batlantirishga qaratilgan munosabatlarni o'rnatishdan iborat.

29. Professor-o'qituvchi o'quv-uslubiy jarayonlarda akademik halollikning quyidagi qoidalariga rioya qilishi zarur:

akademik vakolatga, ya'ni fan sohasi bo'yicha tayyorgarlikka hamda o'qitayotgan modulga oid tadqiqotlar va zamonaviy qarashlar bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimga ega bo'lgan modullar bo'yicha dars berish;

barcha tahsil oluvchilarga o'z akademik salohiyatini maksimal darajada to'liq rivojlantirish uchun yordam berish; ularni ta'lim olishga, o'qilgan ma'lumotlar va ma'ruzalarni tahlil qilishga, o'rganganlari ustida mulohaza yuritishga, o'rni kelganda o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotga tanqidiy yondashishga rag'batlantirish;

professor-o'qituvchilar va boshqa talabalar bilan tadqiqot loyihalarida, tadbirlarda ishtirok etish;

talabalarga bahsli axborotlarni "haqiqat" sifatida taqdim etishdan ko'ra ularga ilmiy munozaralarning tabiatini tushunish va unda ishtirok etish madaniyatini shakllantirishga ko'maklashish;

dars mashg'ulotlarida berilayotgan axborot va ma'lumotlar dars mazmuni hamda modul xususiyatiga mos kelishi kerak. Professor-o'qituvchi darsga "vaqt o'tkazish" uchun emas, bilim va ko'nikma berish uchun kirishi;

talabalarining ongida chuqur ildiz otgan qadriyatlarga zid kelishi mumkin bo'lgan vazifa va topshiriqlarni qo'llashda ehtiyot bo'lish zarur. Professor-o'qituvchi talaba shaxsiy sabablarga ko'ra muayyan topshiriqqa e'tiroz bildirgan taqdirda muqobil vazifalarni berishga tayyor bo'lishi;

talabalar bilan muloqotda xushmuomalalik va professionallik qoidalariga rioya qilishi hamda axloqqa zid xatti-harakatlarga murossasizlikni namoyon qilish orqali o'zlari shaxsiy halollik namunasi bo'lishi;

talabalar bilan muloqotda va uni baholashda adolat tamoyiliga ustunlik berish, barcha tahsil oluvchilarga nisbatan adolatli bo'lishga intilish;

boshqalarni tinglashga, shaxsiy fikr va qarashlardagi farqlarni tan olgan holda o'z nuqtai nazarini aniq bayon etishga da'vat etish;

auditoriyada talabalar ochiq muloqot qila oladigan, o'z fikrini erkin bayon etadigan va aqlan rivojlanadigan xavfsiz muhit yaratishga harakat qilish;

talabalarining baholarini va ularga oid shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlash bilan maxfiylik tamoyiliga rioya qilish orqali talabalarga bo'lgan hurmatini namoyish etish;

o'quv modulining maqsadi va talablarini to'liq bayon etish hamda baholashning aniq mezonlari haqida batafsil ma'lumot berish;

o'z muallifligida o'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma, modul kontentlari va boshqalar)ni tayyorlashda ushbu Kodeks talablariga qat'iy rioya qilish;

muallifligida o'quv-uslubiy ishlarni chop etishni ilmiy unvon olish uchun mezonlarni bajarish vositasi emas, balki talabalarga sifatli bilim berish va ularni zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash sifatida belgilash;

talabalarni baholashda birdek yaxshi natijaga erishish uchun barchaga teng imkoniyat beruvchi xolis usul va vositalardan foydalanish va universitetning boshqa hujjatlarida belgilab berilgan talablarga rioya qilish.

30. Talabalar o'quv jarayonida (oralik va yakuniy) nazorat turlarini topshirishda hamda universitet xodimlari va boshqa talabalar bilan munosabatlarda ushbu Kodeks qoidalariga va universitetning boshqa hujjatlariga rioya qilishlari zarur.

31. O'quv jarayonida (oralik va yakuniy) nazorat turlarini topshirishda topshirilayotgan yozma ishlarning originalligi (o'ziga xosligi) kamida 65% ni tashkil etishi talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning originalligi (o'ziga xosligi) bakalavr darajasi uchun kamida 70% va magistr darajasi uchun dissertatsiya ishining 80% bo'lishi zarur.

Ushbu talablarga rioya qilinmagan ishlar ilmiy rahbar va taqrizchilar tomonidan keyingi bosqichga va himoyaga tavsiya qilinmasligi zarur hamda ushbu ish Akademik halollik va tadqiqot etikasini buzish sifatida baholanishi mumkin.

32. BMI va magistrlik dissertatsiya ishi bo'yicha **ilmiy rahbar** (keyingi o'rinlarda – ilmiy rahbar) ushbu Kodeks qoidalariga rioya qilishi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi zarur.

Ilmiy rahbar yuridik fan va ta'limga daxldor bo'lgan tamoyillardan xabardor bo'lishi va ularga rioya qilishi zarur. Jumladan,

talaba bilan shaxsiy munosabatlarga yo'l qo'ymaslik;

talabaning ishini baholashda o'zining darajasiga muvofiq nisbatda baholash yoki darajasi yuqori bo'lgan topshiriq bermaslik;

o'zi ilmiy rahbar bo'lgan ishlarni o'zlashtirmaslik;

talaba va ilmiy jamoatchilik oldida halol va ochiq bo'lish;

manfaatlar to'qnashuvi sababli ilmiy rahbar bo'lishdan voz kechishi yoki o'zini o'zi rad etishi;

tamagirlik qilmaslik yoki ishni o'zi yozib berishni taklif qilmaslik;

ishni maxsus elektron antiplagiat dasturlaridan o'tkazish;

talabalar bilan har qanday munosabatda shaxsiy halollikni yuqori darajada saqlashi lozim.

33. Xodimlar o'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma, modul kontentlari va boshqalar)ni tayyorlashda va chop etishda ushbu Kodeks qoidalariga rioya qilishi zarur.

Muallif moliyaviy qo'llab-quvvatlashning tadqiqot natijalariga bo'lgan ehtimoliy ta'sirini o'quvchi baholay olishi uchun tayyorlash va chop etishga

berilgan barcha moliyaviy yordamlar, grantlar, ushbu o'quv-uslubiy ishni yaratishga moliyaviy ko'mak bergan jismoniy yoki yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlarni oshkor ko'rsatishi zarur.

O'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma, modul kontentlari va boshqalar)ning originalligi (o'ziga xosligi) kamida 75% ni tashkil etishi talab etiladi.

34. O'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma, modul kontentlari va boshqalar)ni tayyorlash va chop etishda ushbu Kodeksda belgilangan talablarga qat'iy rioya qilish zarur.

35. BMI va magistrlik dissertatsiyasi ishi va o'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma va boshqalar)ga **taqrizchi** sifatida belgilangan shaxs quyidagi etika qoidalariga rioya qilishi zarur:

ishni maxsus elektron antiplagiat dasturlaridan o'tkazish;

o'zi taqrizchi bo'lgan ishlarni o'zlashtirmaslik;

taqriz berilayotgan ishga nisbatan mas'uliyatli, halol va ochiq bo'lish;

ishga shaxsiy adovatdan xoli tarzda bosiq va professional baho berish;

o'z bahosini batafsil izohlashi, muallif uchun manfaatli bo'lgan konstruktiv tanqid va tavsiyalarni batafsil asoslab berish;

umumiy va tushunarsiz, ishning mazmuniga ta'sir ko'rsatmaydigan kamchiliklar, texnik sabablarni asos sifatida ko'rsatib ishni tavsiya qilmaslik;

o'z gipotezasi yoki ilmiy natijalariga to'g'ri kelish-kelmasligidan qat'i nazar tadqiqot ishiga xolis baho berish;

taqrizda ko'rsatilgan ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik, chalkashlikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan asoslarni ko'rsatmaslik;

taqrizni belgilangan muddatda taqdim etish, kechikish ehtimoli bo'lgan taqdirda bu haqida tegishli mas'ulni xabardor qilish;

axloqqa zid, shubhali, noprofessional har qanday element bo'yicha Akademik kengashga xabar berish.

36. Akademik kengashning qarori bilan BMI, magistrlik dissertatsiya ishi va o'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma va boshqalar)ga taqrizchi anonim tarzda belgilanishi mumkin.

VI. Ilmiy-tadqiqot ishlarida akademik halollik va tadqiqot etikasi

37. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda Kodeksning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

mualliflikni to'g'ri belgilash (bunda mualliflik huquqi tamoyillariga rioya qilgan holda, ma'lum ilmiy ishlarga ijodiy hissa qo'shgan ilmiy faoliyat

subyektlari muallif sifatida e'tirof etiladi. Ya'ni tadqiqotga faqat hissa qo'shgan shaxslargina tadqiqot ishlarining hammualliflari sifatida ko'rsatilishi kerak. Hammualliflar orasida tadqiqotda qatnashmagan shaxslarni ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi);

plagiatga yo'l qo'yilmaslik, havolalarni to'g'ri va to'liq taqdim etish;

muhofazalangan ijodiy faoliyat natijalarini o'zlashtirishga yo'l qo'yilmaslik;

ilmiy yangilikka e'tibor qaratish;

ilmiy polemika (munozara)dagi to'g'rilik, taqrizchi, tadqiqotchi va muhokamada ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni haqorat qilish yoki kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

tajribalar o'tkazishda, ilmiy nazariyalarni shakllantirishda ilmiy vijdonlilik;

shaxsiy kasbiy javobgarlikni anglash;

tamagirlik va pul evaziga ilmiy ishlarni yozib bermaslik;

salbiy oqibatlar uchun axloqiy javobgarlikni anglash.

38. Quyidagilar ilmiy tadqiqotda odob-axloq qoidalari (etika)ning buzilishi hisoblanadi:

plagiat, soxtalashtirish yoki qalbaki ma'lumotlar yaratish;

mualliflikni yoki ilmiy ishlarga hissa qo'shganlikni tan olmaslik;

mualliflik huquqi obyektlari yoki maxfiy (konfidensial) qo'lyozmalardagi ma'lumotlar yoxud shaxsiy suhbatlardan tegishli ruxsatsiz foydalanish;

arxiv hujjatlaridan foydalanish qoidalarini buzgan holda arxiv materiallaridan foydalanish;

ataylab yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish yoki vijdonsiz vositachilarga murojaat qilish orqali xalqaro ko'rsatkichlarga ko'ra maqolaning "ilmiy darajasini oshirish";

tadqiqot ishida tahlil qilinmagan hamda empirik (amaliy) jihatdan o'z isbotini topmagan takliflarni ishning xulosa qismida bayon qilish;

mazkur Kodeksning 4-bobida nazarda tutilgan tadqiqot etikasini buzish shakllari;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, Universitet Ustavi, o'rnatilgan ichki tartib-qoidalarga va jamoa shartnomalariga rioya qilmaslik;

ilmiy tadqiqotlar doirasidagi boshqa turdagi xatti-harakat ham Tadqiqot etikasi kengashi tomonidan axloq qoidalarining buzilishi deb tan olinishi mumkin.

39. Tadqiqot ishlarining originalligi (o'ziga xosligi) (ilmiy maqolalar, monografiyalar, PhD va DSc dissertatsiyalari) kamida 85%ni tashkil qilishi

hamda iqtiboslarning umumiy hajmidan o'zining ishlariga bo'lgan iqtiboslari 15% dan ko'p bo'lmasligi kerak. Har qanday dissertatsiya muallifning undan oldingi ishi, ya'ni BMI yoki dissertatsiyasini takrorlamasligi lozim, bunda muallifning oldingi ilmiy ishiga iqtibosi 15% dan ko'p bo'lmasligi talab qilinadi.

Kafedralar tomonidan BMI va magistrlik ishlari hamda PhD va DSc dissertatsiyalari dastlabki muhokamalarida maxsus elektron antiplagiat dasturlari orqali tekshirishdan o'tkazilishi shart.

Akademik halollik va tadqiqot etikasi talablariga rioya qilinmagan ishlar keyingi bosqichga tavsiya qilinmasligi zarur.

Ushbu talabga rioya qilmagan va mazkur Kodeks talablariga mos kelmaydigan ishlarni keyingi bosqichga tavsiya qilganlik uchun kafedra mudiri, ilmiy rahbar, taqrizchilar hamda Ilmiy seminar raisining javobgarligi Tadqiqot etikasi kengashi majlislarida ko'rib chiqiladi.

40. Izlanuvchi (muallif)ning tadqiqot etikasi bo'yicha majburiyatlari ushbu Kodeksning 13-bandida ko'rsatilgan bo'lib, izlanuvchi ushbu majburiyatlarni va ushbu Kodeks talablarini bajarishi shart.

Shu bilan birga, muallifning tadqiqot faoliyatidagi axloqiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

muallif (yoki mualliflar jamoasi) ilmiy tadqiqotlar natijalarining yangiligi va ishonchligi uchun birlamchi javobgar hisoblanadi;

muallif(lar) maqolada tavsiflangan tadqiqotning originalligini kafolatlashi zarur. Boshqa mualliflarning ishi yoki so'zlari ishlatilsa, manbaga havolalar yoki iqtiboslar ko'rsatilishi shart. Juda ham ko'p iqtiboslar keltirish tadqiqot etikasiga zid hisoblanadi, har qanday shakldagi plagiatga esa mutlaqo yo'l qo'yilmaydi;

muallif(lar) ommaviy e'lon qilish uchun mo'ljallanmagan ma'lumotlardan foydalanishdan ehtiyot bo'lishi kerak;

muallif(lar) boshqa ishlardagi iqtiboslar va havolalarni to'g'ri va aniq shakllantirishi lozim. Barcha holatlarda asl manbaga havola ko'rsatilishi kerak;

muallif(lar) ilmiy izlanish natijalarining haqqoniyligiga javob beradi. Oldindan xato qilingan yoki qalbakilashtirilgan fikrlar berish nojoizdir. Chop etilgan materiallarning muallif(lar)i keltirilgan faktlar, iqtiboslar, statistik va boshqa ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgardir;

muallif(lar) taqrizchining savollariga professional va tezkor javob berishi, zarur tushuntirishlar va qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi kerak;

muallif(lar) tadqiqotni moliyalashtirishning barcha manbalarini, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita moliyaviy yordam, asbob-uskunalar

yoki materiallar bilan ta'minlash va boshqa turdagi moliyaviy yordam manbalarini ko'rsatishi kerak;

muallif(lar) boshqa nashrga taqdim etilgan va ko'rib chiqilayotgan qo'lyozmani taqdim etmasligi kerak;

muallif(lar) tadqiqotni ko'rib chiqish bosqichida yoki nashr etilgandan keyin jiddiy xatolar yoki noaniqliklarni aniqlagan taqdirda, imkon qadar tezroq tahririyatni va ilmiy jamoatchilikni xabardor qilishlari kerak;

muallif(lar) uchinchi tomon tadqiqotlarini tanqid qilish yoki sharhlashda axloqiy me'yorlarga rioya qilishlari kerak;

muallif(lar) o'z qo'lyozmalarining natijalari yoki talqiniga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday muhim manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilishlari kerak.

41. Taqdim etilgan ishning konsepsiyasi, loyihasi, bajarilishi yoki interpretatsiyasiga munosib hissa qo'shgan shaxslar maqola mualliflari soniga kiradi.

Mualliflik darajasi, obro'si yoki ta'siri tufayli, shuningdek, shaxsiy munosabatlari yoki to'lov evaziga ayrim shaxslar mualliflar ro'yxatiga kiritilishi taqiqlanadi, bunday hollarida mualliflik mustasno etiladi. Agar davom etayotgan tadqiqotning muayyan bosqichlarida ishtirok etgan boshqa shaxslar bo'lsa, ular maqola matnida qayd etilishi mumkin.

Muallif barcha hammualliflar tomonidan maqolaning yakuniy shakli o'qib chiqilishi va ma'qullanishini hamda uni nashr etishga rozi bo'lishlarini ta'minlashi kerak.

42. **Ilmiy rahbar (maslahatchi)** etib tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etgan, tadqiqot mavzusi bo'yicha malakali mutaxassis sifatida tanilgan hamda izlanuvchiga ilmiy va o'quv-metodik yordam ko'rsatish maqsadida ushbu sohada ilmiy rahbarlik qilish huquqiga ega bo'lgan shaxs tayinlanishi zarur.

Ilmiy rahbar akademik savodxonlik va halollik namunasi bo'lishi kerak. Ilmiy rahbar tanqid, maslahat va takliflarga ochiq bo'lishi kerak. Ilmiy rahbar o'zi rahbarlik qilayotgan tadqiqotchining taqrizchisi bo'la olmaydi.

Ilmiy rahbar (maslahatchi) faoliyatidagi axloqiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

tadqiqotchining mavzuni ko'rib chiqishga tayyorgarlik darajasini belgilash, mavzu tanlashda tadqiqotchini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish;

konsultatsiyalar o'tkazish va tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ustida ishlashning butun jarayonini to'liq tushuntirishga erishish;

ish rejasini tuzishda yordam berish, shu jumladan, ish uchun vazifalar va maqsadlarni belgilash;

individual rejaning aniq bajarilishini nazorat qilish, jumladan, maqsadlarni amalga oshirish muddatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

tadqiqotchi bilan ishlashda shaxsiy munosabatlar asosida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;

tadqiqot ishiga xulosa berishdan avval ishni maxsus elektron antiplagiat dasturlaridan o'tkazib, mazkur Kodeks talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

hammualliflik – har bir hammuallifning ishga qo'shgan hissasi nashr mazmuni uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish uchun yetarli bo'lishi kerak. Ilmiy rahbar ta'lim oluvchi (talaba, tadqiqotchi)ning intellektual mulki hisoblangan ilmiy ishiga umuman hissa qo'shmagan holda hammuallif bo'lishni talab qilishga haqli emas;

tayyor ilmiy ishlar materiallarini turli shakllardagi mukofot olish evaziga yoki shaxsiy manfaatdorlik maqsadida mukofot (haq) olmasdan tarqatish, uchinchi shaxslarga taqdim qilish taqiqlanadi;

ta'lim oluvchi (talaba, tadqiqotchi)ga nisbatan xolislik – rahbarning fikr-mulohazalari va tavsiyalari ishning ilmiy saviyasini oshirishga qaratilgan obyektiv va asosli bo'lishi kerak;

rahbar tomonidan o'z ehtiyojlari uchun maqolalardan/tugallangan ishdan nusxalar olish yoki foydalanish taqiqlanadi;

himoyadan o'tkazishning barcha bosqichlarida taqrizchi (opponent)lar yoki boshqa shaxslarga ilmiy rahbarligidagi tadqiqotchining ishiga ijobiy baho berish yoki yoqlab ovoz berishni iltimos qilish yoxud muhokama ishtirokchilariga avvaldan tadqiqotchiga ma'lum bo'lgan savollarni berishni iltimos qilishi taqiqlanadi;

himoya jarayonining barcha bosqichlarida taqrizchilar, opponentlar, yetakchi tashkilotni belgilash jarayonida ilmiy kengashga ta'sir ko'rsatish va iltimoslar qilish taqiqlanadi.

43. Ilmiy rahbar xulosasi ilmiy rahbar tomonidan shaxsan yozilishi va imzolanishi kerak. Ilmiy rahbar xulosasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

dissertatsiya mavzusining dolzarbligi;

ishda bayon etilgan ilmiy qoidalar, xulosalar va tavsiyalarning ilmiy yangiligi, asosiligi va ishonchliligi;

olingan natijalarning amaliy ahamiyati, amaliyotga ta'siri;

natijalarning fan uchun ahamiyati;

dissertatsiya tadqiqoti natijalari ekspertizadan o'tkaziladigan jurnallarda nashr etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

ishning rasmiylashtirish talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosa.

44. Ilmiy tadqiqot doirasida nashr etilgan barcha maqolalar va materiallar quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilgan majburiy ekspertizadan o'tkaziladi: ochiq, anonim yoki ikki tomonlama anonim sharhlash.

45. **Taqrizchi (rasmiy opponent)** faoliyatida tadqiqot etikasi qoidalari: tadqiqot ishiga taqriz berishdan avval ishni maxsus elektron antiplagiat dasturlaridan o'tkazib, mazkur Kodeks talablariga rioya qilinishini ta'minlashi zarur;

mualliflik huquqi materiallarini ilmiy ekspertizadan o'tkazishda xolislik, xususan, ishni maxfiy (konfidensial) hujjat sifatida ko'rib chiqish, bunda tanishib chiqish yoki muhokama qilish uchun ishni vakolati bo'lmagan uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi;

taqriz berish jarayonida olingan ma'lumotlar yoki g'oyalarning maxfiyligini saqlash, ulardan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanishga yo'l qo'ymaslik, qo'lyozma va sharhlarning hech qanday tafsilotlarini oshkor qilmaslik;

baholanayotgan ishning boshqa har qanday ilmiy ish bilan ahamiyatli yoki qisman o'xshashligiga, shuningdek ushbu yoki boshqa mualliflarning ilgari nashr etilgan ishlarida qayd etilgan ma'lumotlar, xulosalar yoki dalillarga havolalar yo'qligi faktlariga e'tibor qaratish;

Ilmiy kengash kotibi yoki boshqa vakolatli shaxslardan tashqari hech kim bilan taqriz uchun taqdim etilgan ishni muhokama qilmaslik va taqdim etilgan materiallarni tarqatmaslik;

taqrizchining fikr-mulohazalari va takliflari ishning ilmiy va uslubiy darajasini oshirishga qaratilgan, xolis va asosli bo'lishi lozim;

taqrizda ko'rsatilgan ma'lumotlarni soxtalashtirmaslik, chalkashlikka sabab bo'lishi mumkin bo'lgan asoslarni ko'rsatmasligi zarur;

ko'rib chiqish jarayonida olingan materiallar va g'oyalardan o'z nomidan yoki har qanday shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanmaslik;

taqrizni belgilangan muddatda taqdim etishi, kechikish ehtimoli bo'lgan taqdirda bu haqida tegishli mas'ulni xabardor qilishi shart;

o'z shaxsiy ehtiyojlari uchun ishdan nusxalar olish taqiqlanadi;

ilmiy ish nashr etilishidan oldin uning mazmuniga oid materiallardan o'z manfaatlarini uchun foydalanish taqiqlanadi;

taqrizchi mavzu yoki boshqa belgilar bo'yicha ko'rib chiqilayotgan ilmiy ish yoki uning bir qismining muallifi bo'lishi mumkinligini taxmin qilsa, ilmiy

seminar, kengash yoki tahririyatning ruxsati bilan muallif bilan bevosita bog'lanishi mumkin;

ishni o'rganish jarayonida tadqiqot etikasi buzilishi bo'yicha barcha holatlar, shuningdek shubhali, noprofessional har qanday element bo'yicha Tadqiqot etikasi kengashiga xabar berishga majbur.

Taqdim etilgan ilmiy ishni baholash uchun o'zini yetarli darajada malakaga ega emas, deb hisoblagan yoki xolis bo'la olmaydigan taqrizchi, shuningdek manfaatlar to'qnashuvi yuz bergan taqdirda, bu haqda uni ushbu ishni ko'rib chiqish jarayonidan chetlashtirish iltimosi bilan xabar berishi shart.

46. Opponent taqrizni boshqa shaxslarning yordamisiz shaxsan yozishi kerak. Ilmiy taqriz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

ilmiy ish mavzusi va muallifi to'g'risida (taqrizchi oshkor qilinmagan taqdirda o'zi haqida) aniq va qisqa ma'lumot berish;

tanlangan mavzuning dolzarbligiga baho berish;

dissertatsiyada keltirilgan ilmiy tafsilotga qisqacha baho berish;

tadqiqotning asosiy natijalari, xulosa hamda amaliy va nazariy tavsiyalar qay darajada asoslanganligi va yangiligini baholash;

tadqiqotning asosiy natijalarining amaliy hayotga real ta'sirini baholash;

dissertatsiyaning unga qo'yilgan talablarga muvofiqligini aniqlash;

umumiy xulosalarni ishonchli dalillar va tegishli havolalar bilan tasdiqlash, tanqidiy fikrlarni aniq bayon etish;

tadqiqotning ijobiy va salbiy tomonlarini aniq va qisqa tavsiflash;

kamsituvchi shaxsiy mulohazalar yoki asossiz ayblovlardan saqlanish;

ilmiy ishni nashrga, keyingi bosqichga yoki ommaviy himoyaga tavsiya qilish haqida xulosa berish.

Ilmiy taqriz hajmi odatda 4000 belgidan oshmasligi tavsiya etiladi.

47. O'z faoliyatida **muharrir** mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlarni nashr etish uchun javobgardir, bu esa tadqiqot etikasining quyidagi asosiy qoidalariga rioya qilish zarurligini taqozo etadi:

mualliflarning irqi, jinsi, diniy e'tiqodi, kelib chiqishi, fuqaroligi, ijtimoiy mavqeyi yoki siyosiy imtiyozlaridan qat'i nazar, qo'lyozmalarining intellektual mazmunini baholashi kerak;

nashr qilish to'g'risida qaror qabul qilishda ma'lumotlarning ishonchliligini va ko'rib chiqilayotgan ishning ilmiy ahamiyatini hisobga olishi lozim;

muharrir unga taqdim etilgan qo'lyozmalarda mavjud nashr etilmagan ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanilmasligini yoki muallifning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berilmasligini ta'minlashi kerak.

Tahrirlash jarayonida olingan va olinishi mumkin bo'lgan foyda bilan bog'liq ma'lumotlar yoki g'oyalar maxfiy saqlanishi va shaxsiy manfaatlar uchun ishlatilmasligi kerak;

ma'lumotni plagiat deb hisoblash uchun yetarli asoslar mavjud bo'lsa, uni nashr etishga ruxsat bermasligi kerak;

nashriyot bilan birgalikda ko'rib chiqilgan qo'lyozmalar yoki nashr etilgan materiallar yuzasidan javobsiz da'volarni qoldirmasligi, ziddiyatli vaziyat aniqlansa, buzilgan huquqlarni tiklash uchun barcha zarur choralarni ko'rishi kerak;

agar tahririyatning barcha talablariga javob beradigan nashrga tayyor boshqa mualliflarning asarlari mavjud bo'lsa, muharrir nashriyot bilan birgalikda bir muallifning asarlarini bir ilmiy jurnalning ketma-ket ikki yoki undan ortiq sonida nashr etishga ruxsat bermasligi kerak;

to'rt nafardan ortiq muallif ishtirokidagi maqolalarni chop etishga ruxsat bermaslik tavsiya qilinadi.

48. Nashriyot o'z faoliyatida mualliflik huquqiga oid asarlarni nashr etish uchun javobgardir, bu esa quyidagi asosiy tamoyillar va tartiblarga rioya qilishni talab qiladi:

muharrirlar, tahrir hay'ati (tahririyat hay'ati), taqrizchilar, mualliflar tomonidan tadqiqot etikasi qoidalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

nashrlar mualliflaridan olingan har qanday ma'lumotlarning ular e'lon qilinmaguncha maxfiyligini ta'minlash;

intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilish;

zaruratga ko'ra tuzatishlar, tushuntirishlar, raddiyalar va uzrlarni e'lon qilish;

tadqiqot etikasiga zid va sifatsiz maqolalar va boshqa ilmiy ishlarni nashr qilishni rad qilish;

ilmiy nashrning o'z vaqtida chop etilishini ta'minlash.

49. Tadqiqot etikasi qoidalarini buzish holatlarining oldini olish uchun ilmiy tadqiqot yoki uning natijalarini aniqlash jarayonida ishtirok etayotgan barcha tomonlar manfaatlar to'qnashuvi holatini istisno qilish kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi muallif, taqrizchi yoki universitet harakatlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan moliyaviy, ilmiy yoki shaxsiy munosabatlar bo'lganda yuzaga kelishi mumkin. Bunda ikki tomonlama "kelishuv"lar, "raqobatdosh manfaatlar" kabi turli subyektiv munosabatlarga chek qo'yilishi kerak.

VII. Huquqiy tadqiqot turlari

50. Tavsiflovchi (**Descriptive**) tadqiqot amalda mavjud bo'lgan real vaziyatni tasvirlaydi. U faqat o'rganilayotgan hodisa yoki holatni va uning xususiyatlarini tavsiflab beradi. Ushbu tadqiqot turi faqatgina nima sodir bo'lganligi yoki nima sodir bo'layotgani haqida faktik xabar beradi. Shuning uchun tadqiqotchi huquqiy hodisa yoki vaziyatning sabablariga to'xtalmaydi.

51. Tadqiqotchi ushbu turdagi tadqiqot davomida huquqiy munosabatlar, hodisalar hamda vaziyatlarning sabablarini izlamaydi. Shu sababli ham *"nega"*, *"nima maqsadda"*, *"nima sababdan"* kabi savollarni tadqiqotida ishlatmaydi. Masalan, ma'lum hududdagi jinoyatchilik tendensiyasini o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi ushbu mintaqada demografik so'rov o'tkazadi, aholi ma'lumotlarini to'playdi va keyin ushbu demografik segment bo'yicha tavsifiy tadqiqot olib boradi. Tadqiqot natijasini esa tanlangan hududdagi jinoyatchilik tendensiyasi haqidagi real faktlar tashkil etadi. Ushbu jinoyatchilikning sabab hamda oqibatlari haqidagi ma'lumotlarni esa qamrab olmaydi.

Tavsiflovchi tadqiqotda keng tarqalgan usullar barcha turdagi so'rov usullari, shu jumladan, qiyosiy va korelyatsion usullar hamda har xil faktlarni aniqlash uchun mo'ljallangan so'rovnomalaridir.

52. Analitik (**Analytical**) tadqiqotda tadqiqotchi o'zining mavjud faktlari yoki ma'lumotlaridan foydalanadi va materialga tanqidiy baho berish uchun ularni tahlil qiladi. Bu tadqiqotning o'ziga xos turi bo'lib, u tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va olib borilayotgan tadqiqotga nisbatan faktlar va ma'lumotlarni baholashni o'z ichiga oladi.

53. Ushbu tadqiqotning maqsadi o'rganilayotgan mavzuga doir muhim ma'lumotlarni topish hisoblanadi. Analitik tadqiqotlar natijasida tadqiqotchi mavjud materialga yangi g'oyalar qo'shish uchun muhim tafsilotlarni aniqlaydi. Masalan, 2010-2020-yillar oralig'ida Buxoro viloyatida jinoyatchilik darajasining o'zgarishini o'rganish tavsiflovchi tadqiqotning namunasi hisoblansa, jinoyat darajasining vaqt o'tishi bilan nima uchun va qanday ko'tarilganini tushuntirish analitik tadqiqotning o'rganish obyektidir.

54. Amaliy (**Applied**) tadqiqot bevosita muammoga yechim topishga qaratilgan bo'ladi. Bu yerda tadqiqotchi o'z tadqiqotini amaliy kontekstda ko'radi. Ushbu tadqiqot huquqning ma'lum bir sohasi bo'yicha to'liq tadqiqot o'tkazishni, so'ngra amalda qo'llanilgan barcha texnik huquqiy qoidalar va tamoyillar to'g'risida ma'lumotlarni to'plashni qamrab oladi.

55. Amaliy tadqiqotning asosiy maqsadi har qanday dolzarb amaliy muammoning yechimini topishdan iborat bo'lsa, fundamental tadqiqotning

maqsadi esa hodisa haqida qo'shimcha ma'lumot topish va shu orqali mavjud ilmiy bilimlar to'plamini kengaytirishdir.

56. Fundamental **(Fundamental)** tadqiqotlarda tadqiqotchi asosan umumlashtirish va nazariyani shakllantirish bilan shug'ullanadi. Tadqiqotchi faqat o'z so'rovi bo'yicha qo'shimcha bilim olish uchun tadqiqot olib boradi. Fundamental tadqiqotda natijaning amaliy samaradorligi muhim emas. Shu orqali ushbu tadqiqot turi amaliy tadqiqotdan farqlanadi.

57. Ushbu turdagi tadqiqot metodologiyasining maqsadi tadqiqotning muayyan sohasi haqida tushunchani kengaytirishdir.

Misol uchun, tadqiqotchilar savodsizlik ishsizlikka olib kelishi bo'yicha asosiy tadqiqotlar o'tkazishi mumkin. Ushbu nazariy tadqiqotlar natijalari ishsizlikning muayyan muammolarini hal qilishga qaratilgan keyin amaliy tadqiqotlarga olib kelishi mumkin.

58. Miqdor ko'rsatkichli **(Quantitative)** tadqiqot miqdorni o'lchashga asoslanadi. Bu miqdor bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan hodisaga nisbatan qo'llaniladi. Hodisaning miqdoriy xususiyatlarini va ularning o'zaro bog'liqligini tizimli ilmiy tekshirish tadqiqotchidan talab etiladi. Izlanuvchi so'rovnomalar, kuzatuvlar va boshqa usullardan foydalanib to'plangan ma'lumotlarni raqamli ko'rinishga keltiradi. Masalan, fuqarolik ishlari bo'yicha o'rta bo'g'in sudlarida ishlarni ko'rib chiqish muddatini va ish qo'zg'atilgan paytdan boshlab sud qarori qabul qilingunga qadar qancha vaqt ketishini tadqiq qilish uchun o'tkazilgan so'rovni olish mumkin.

59. Miqdor ko'rsatkichli tadqiqotning maqsadi o'rganilayotgan mavzuga doir matematik modellar, statistikalar, nazariyalar va gipotezalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishdir. Raqamli shaklga keltirilgan ma'lumotlarni diqqat bilan o'rganish natijasida kelajakni bashorat qilish va muammoga yechim izlash uchun o'zgartirishlar kiritish mumkin.

60. Sifat ko'rsatkichli **(Qualitative)** huquqiy tadqiqot – bu huquq tadqiqotchisining nazorat ostidagi kuzatishlarini tahlil qilishga asoslangan tadqiqotning subyektiv shakli hisoblanadi. Ushbu tadqiqot turida ma'lumotlar subyektlarning nisbatan kichik guruhidan olinadi va statistik usullar bilan tahlil qilinmaydi. Odatda, tushuntirish berish, hikoya qilib berish orqali to'plangan ma'lumotlar sifat ko'rsatkichli tadqiqotda yig'iladi.

61. Sifat ko'rsatkichli tadqiqot subyektlar bilan muntazam ravishda munosabatga kirishish va ularni kuzatish orqali mavzuni o'rganish usuli sifatida qabul qilinishi mumkin. Sifatli tadqiqotda ma'lumotlarni to'plash uchun ishlatiladigan turli usullar asosli nazariya amaliyoti, narratologiya, hikoya va etnografiyalardir.

62. Doktrinal (**conceptual, doctrinal**) tadqiqot abstrakt g'oyalar yoki nazariyalarga asoslangan tadqiqot turi bo'lib, unda tadqiqotchi yangi konsepsiyalarni ishlab chiqadi yoki mavjudlarini qayta amalga kiritadi. Ushbu tadqiqot turi amaliy tajribalar o'tkazishni talab qilmaydi va mavjud g'oyalardan foydalanib ilmiy tadqiqot olib borishni taqozo qiladi.

63. Empirik (**empirical, non-doctrinal**) tadqiqot esa tajribaga hamda kuzatuvlarga asoslanib, nazariyalar yoki amaliyotda hali natijasi ko'rilmagan konsepsiyalarga asoslanmaydi. Bu ma'lumotlarga asoslangan tadqiqot bo'lib, kuzatish yoki tajriba orqali tasdiqlanishi mumkin bo'lgan xulosalar chiqaradi. Shuning uchun u eksperimental tadqiqot sifatida ham tanilgan. Empirik tadqiqotlarda faktlar birinchi manbadan olinishi kerak. Bunday tadqiqotda tadqiqotchi, birinchi navbatda, o'zini ishlaydigan gipoteza bilan ta'minlashi yoki mumkin bo'lgan natijalarni taxmin qilishi kerak. Keyin u o'z gipotezasini isbotlash yoki rad etish uchun yetarli faktlarni (ya'ni ma'lumotlarni) olishga harakat qiladi.

VIII. Ilmiy-tadqiqot ishi turlari

64. **Ilmiy maqola** – muayyan huquq tarmog'i (sohasi) bo'yicha mantiqiy izchillikda tayyorlangan, ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag'ishlangan, unda huquqiy muammolar atroficha tahlil qilinib, ilmiy-nazariy hamda amaliy yechim (xulosa)lar keltiriladigan ilmiy tadqiqot ishi. Tadqiqot materiallarini va ularning tahlilini maqola shaklida ilmiy jurnallarda chop etish izlanuvchilarning ilmiy tajribasini va erishgan natijalarini keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazadi.

Maqola namunasi:

<http://jurisprudence.tsul.uz/2022/08/05/xususiy-bandlik-agentliklari-mehnat-migratsiyasiga-qanday-tasir-korsatadi-doktrinal-qarashlar-va-xalqaro-amaliyot/>

65. **Ilmiy tezis** – bu muayyan huquq tarmog'i (sohasi) bo'yicha ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag'ishlangan hamda unda ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar ilgari surilgan, tadqiqot natijasi qisqa va lo'nda shaklda ifodalanadigan ilmiy-tadqiqot ishi. Ilmiy tezis ilmiy tadqiqot natijasi sifatida ilmiy tadbirlar (konferensiya, davra suhbat) o'tkazilishidan oldin yoki tadbirlar yakuni bo'yicha e'lon qilinadigan nashrlarda (konferensiya to'plami, davra suhbat to'plami) chop etiladi.

Tezis namunasi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6615448>

66. **Monografiya** – qoida tariqasida, bir muallif (tadqiqotchi) tomonidan yoziladigan muayyan muammo yoki mavzuni to'liq va batafsil tadqiq etishga bag'ishlangan (fundamental tadqiqot natijasi bo'lgan) ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr. Monografiyani chop etishdan maqsad amalga oshirilgan ilmiy

va amaliy ishlarning natijalarini umumlashtirish hisoblanadi. Monografiya muayyan huquq sohasidagi dolzarb mavzuni chuqur tadqiq etishga qaratiladi, unda tanlangan mavzu yuzasidan tegishli adabiyotlar keng tahlil etiladi va umumlashtiriladi, fanni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi g'oyalar va gipotezalar ilgari suriladi. Doktorlik dissertatsiyalari doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning muayyan qismi monografiya ko'rinishida ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi mumkin.

Monografiya namunasi ilova qilinmoqda.

67. Risola (broshyura) – huquq sohasining institutlari (kichik tarmoqlari)dagi dolzarb ahamiyatga molik masalalarining asosiy jihatlarini tahlil etiladigan, asosiy tushunchalar bayon etiladigan hamda mavzuga oid muammolar yuzasidan umumiy yechimlar keltiriladigan yoki jamiyatdagi mavjud muammolar yechimlarini ommaga tushunarli tilda ifodalash maqsadida yaratiladigan tadqiqot ishi.

Qoida tariqasida, risola 3-4 bosma taboqdan ko'p bo'lmagan, yumshoq muqovaga ega bo'lgan shaklda chop etiladi.

68. Dissertatsiya – bilimlarning tegishli tarmog'ida muhim ahamiyatga ega masalaning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalaning yechimiga qaratilgan, ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan, tugallangan shakldagi ilmiy ish. Shuningdek, dissertatsiyada muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi keltirilgan yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo'nalishini rivojlantirish uchun yirik yutuq sifatida baholanadigan yangi nazariy qoidalar kompleksi ishlab chiqilgan bo'lishi yoki joriy etilishi fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy soha yoki iqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadigan nazariy-metodologik va uslubiy asoslar, ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (takomillashtirilgan) bo'lishi mumkin.

Dissertatsiya namunasi ilova qilinmoqda.

Ilmiy ishga taqriz namunasi ilova qilinmoqda.

69. Policy brief (Huquqiy siyosat ma'lumotnomasi) – qoida tariqasida, muayyan davlat yoki huquqiy tizimda mavjud muammoning dolzarbligi, holati va uni hal qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy ta'sir choralari va qonunchilikni qisqacha yoritib beruvchi tadqiqot ishi. Mazkur tadqiqot muayyan guruh yoki hamjamiyatga huquqiy siyosatda qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asoslantirilgan ma'lumot bayon etiladi. Qoida tariqasida, huquqiy siyosat ma'lumotnomasi 1-2 bosma taboqdan ko'p bo'lmagan hajmda chop etiladi.

Huquqiy siyosat ma'lumotnomasini yozish uchun yo'riqnoma:
<https://www.fao.org/3/i2195e/i2195e03.pdf>

Namuna: [https://www.idlo.int/sites/default/files/pdfs/publications/idlo-rule of law and covid19-policy brief-final.pdf](https://www.idlo.int/sites/default/files/pdfs/publications/idlo-rule%20of%20law%20and%20covid19-policy%20brief-final.pdf)

70. Policy paper (Huquqiy siyosat tahlili) – qoida tariqasida, muayyan davlat yoki huquqiy tizimda mavjud muammoning dolzarbligi, holati va uni hal qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy ta'sir choralari va qonunchilikni muayyan tadqiqot metodologiyalari asosida tahlil qiladi hamda o'z ichiga huquqiy siyosat mazmuni, yechimlar va dalillar tahlili, eng yaxshi amaliyot va ishlar tahlili (case study), huquqiy siyosat bo'yicha tegishli choralar va tavsiyalarni qamrab oladi.

Mazkur tadqiqot ishida muayyan guruh yoki hamjamiyatga huquqiy siyosatda qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asoslantirilgan tahlil bayon etiladi. Qoida tariqasida, huquqiy siyosat tahlili 5-8 bosma taboqdan ko'p bo'lmagan hajmda chop etiladi.

Huquqiy siyosat tahlilini yozish uchun yo'riqnoma: <https://www-cdn.law.stanford.edu/wp-content/uploads/2015/04/White-Papers-Guidelines.pdf>

Namuna: <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/NR/rdonlyres/772C95C9-F54D-4321-BF09-73422BB23528/143640/ICCOTPInterestsOfJustice.pdf>

IX. Huquqiy tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi

71. Huquqiy tadqiqot asosan yozma shaklda ifoda etiladi. Ilmiy ishlarga qo'yiladigan talablardan biri uning tarkibiy tuzilishini to'g'ri anglash va shu tarkibga amal qilgan holda yozma ifoda etishdir.

Huquqiy tadqiqot tuzilishiga ko'ra 3 qismga bo'linadi. Bular **kirish**, **asosiy qism** va **xulosa** qismlaridir. Quyida ularning har biri ko'rib chiqiladi.

72. Kirish qismi. Ilmiy ish muvaffaqiyat qozonishi uchun tushunish oson bo'lgan va uni o'qigan kishini o'ziga jalb qiluvchi kirish qismi bo'lishi juda muhimdir. Kirish qismi quyidagi uchta funksiyani bajaradi:

o'quvchini ilmiy ishni o'qishga yanada chorlaydi;

ilmiy ishning asosiy mazmun-mohiyatini qisqacha qilib o'quvchiga yetkazadi. Bunda ilmiy ishning kirish qismidan boshqa qismini o'qimaydigan insonda ham ilmiy ish haqida taassurot hosil bo'ladi;

o'quvchiga ilmiy ishning butun mazmunini tushunish uchun muhim ma'lumotni taqdim etadi.

Yuqoridagi funksiyalarni amalga oshirish uchun kirish qismida quyidagi to'rtta talab mavjud bo'lishi lozim:

muammoni aniq ko'rsatish. Kirish qismi uni o'qiyotgan shaxsni o'ziga torta olishi kerak. O'ziga tortishning eng yaxshi usuli bu yechilishi lozim bo'lgan va o'quvchini qiziqtiradigan muammoni ko'rsatishdir. "Bu noqonuniy" kabi masalani oddiygina ko'rsatishning o'zi yetarli emas. Qonunda muammo bo'lsa, unda qanday kamchiliklar mavjudligi haqida aniq misollar keltirish lozim.

muammo borasidagi muallif o'z fikrini qisqa va aniq ko'rsatishi. Ushbu fikr aniq, yangi va manfaatli bo'lishi kerak. "Qisqa va aniq"lik muhimdir. Kirish qismi qisqa, oddiy va aniq bo'lishi lozim. O'quvchini ishni o'qishni yanada davom ettirishga undash bilan birga o'z oddiyligi bilan uning xotirasida ham qolishi lozim. Ishning muhim qismlari mazmunini uning faqat kirish qismini o'qigan insonga yetkazib bera olish lozim.

muammo doirasi ko'rsatish. Ilmiy ish uni o'qiydigan insonning barcha savollariga javob bera olishi lozim. Muammoning chegarasini ko'rsatish uning doirasi qay darajada ekanligini ham ko'rsatadi. Bu yozuvchi uchun uning doirasidan chiqib ketishning oldini oladi. Kirish qismi ana shu muammoning doirasini ko'rsatish qismidir. Buni esdan chiqarmaslik kerak.

Kirish qismining boshidagi bir necha gap o'quvchini sizning ilmiy ishingizni o'qish yoki o'qimasligini belgilab beradi. Ilmiy ishda har doim foydalaniladigan va hammaga ma'lum bo'lgan gaplarni yozmaslik kerak. Kirish qismining boshida aniq qilib o'z ilmiy nuqtai-nazaringizni o'quvchiga yetkazing.

Kirish qismi ishning 10-15% tashkil etishi lozim.

73. Asosiy qism ishning eng muhim qismlaridan biri. Bu tadqiqot ishining keng qamrovli qismi bo'lgani uchun uni bo'limlarga bo'lish kerak. Ishni uni o'quvchiga tushunarli yetkaza olish uchun har bir bo'lim sarlavha va undan ko'zlangan maqsad bilan boshlanishi kerak. Paragraflar o'quvchiga g'oyalar oqimini osongina kuzatib borishi uchun fikrlarni tartibga solishga yordam beradi. Har bir paragraf uning mohiyatini bildiruvchi qisqa jumladan boshlanishi kerak.

Ushbu qisqa jumlani mazkur sohadan xabardor bo'lmagan inson ham o'qiyotganda ilmiy ishning mohiyatini tushunadigan bo'lsa, ilmiy ish muvaffaqiyatli bajarilgan hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir xatboshida muhokama qilingan asosiy fikrlar keltirilib, yakuniy jumla bilan to'ldirilishi kerak. Maqolaning asosiy bo'limlari mazmuni muallifning kirish qismida ko'targan savollariga javob berishi kerak.

Asosiy qism hajmi ishning 70-80% ni tashkil etishi kerak.

74. Xulosa qismi ilmiy ishda ko'rsatilgan munozaraning qiymatini uni o'qiydigan insonlarga sezdira olish qismidir. Muallif o'z ilmiy ishida muammo

borasida yetkazmoqchi bo'lgan fikrini qisqa qilib ushbu qismda ko'rsata olishi kerak. Biroq asosiy qismdan yoki kirishdan ko'chirilgan iboralardan xulosani shakllantirmaslik kerak. Asosiy qismda tushuntirilgan dalillar bilan mantiqiy muvofiqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xulosa qismida yangi dalillar keltirilishi mumkin emas.

Xulosa qismi ishning 10-15% tashkil etishi lozim.

X. Huquqiy tadqiqotlar mazmuniga qo'yilgan talablar

75. Huquqiy tadqiqotning barcha turlari, shu jumladan, ilmiy maqola, monografiya, dissertatsiya va boshqa ilmiy ishlar mazmuni quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Birinchi talab – huquqiy tadqiqotda mavzuning nazariy-doktrinal asosi ko'rsatilishi va tahlil qilinishi kerak, ya'ni tadqiq qilinayotgan huquq normasi zahirida yotgan huquq prinsipi, nazariya va doktrinalar tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitida amalda to'g'ri qo'llanilishi holatiga baho berilishi lozim.

*Masalan, er-xotinning o'zaro meros olish huquqi mavzusida davlatlar qonunchiligi ikki muhim ilmiy-doktrinadan biriga tayanadi: "Forced share" (Qat'iy belgilangan ulush) va "Elective share" (Tanlov asosidagi ulush). Qat'iy belgilangan ulush (Forced share) doktrinasi – Islom huquqining *Faroiz ilmi* (faroiz – farz, ya'ni "o'lchab berish" so'zining ko'pligi) asosida VII asrda shakllana boshlanib, er-xotinning merosini aniq ulushlarda belgilagan. Unga muqobil ravishda, Tanlov asosidagi ulush (Elective share) doktrinasi – Anglo-sakson (Common law) huquqiy tizimida XVIII asrda bevaning meros huquqlari himoya qilish (*Common law protection the surviving spouse*) maqsadida vujudga kelgan. Tanlov asosidagi ulush (Elective share) konsepsiyasi ikki nazariya orqali amalga oshiriladi: Ehtiyoj nazariyasi (Need theory) va Oilaviy sheriklik nazariyasi (Marital partnership theory). *Need theory* (Ehtiyoj nazariyasi)ga ko'ra er yoki xotin minimal ehtiyojiga yarasha meros olishga haqli bo'lib, bu orqali er yoki xotin oilaviy (birgalikdagi) mulkdagi o'z ulushini nazorat qila oladi. Mazkur nazariya asosida Oilani ta'minlab turish to'g'risida model qonuni (*Model Act on Family maintenance system*) ishlab chiqilib, ushbu model qonun asosida *Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Kanada* davlatlari qonunchiligining er-xotin merosiga oid huquq normalari shakllangan. *Marital partnership theory* (Oilaviy sheriklik nazariyasi)da oila iqtisodiy sheriklik sifatida qaralib, er-xotin nikohdan olingan iqtisodiy foydani teng ulushlarda taqsimlashini nazarda tutgan. Mazkur nazariya asosida *Illinois Proposal (Uniform Probate Code)* – Yagona meros kodeksiga Illinoys takliflari orqali AQSH*

qonunchiligida merosda yangi shartnomaviy konstruksiyalarga oid normalar kiritilgan. AQSH qonunchiligidagi ushbu normalar keyinchalik *G'arbiy Yevropa davlatlari* qonunchiligiga (meros shartnomasi, er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasi institutlari sifatida) kiritilgan. Boshqa ayrim davlatlarda esa yuqoridagi nazariyalarning "*kombinatsiyalashgan shakli*" amal qiladi.

Ikkinchi talab – tadqiqot ishida huquqiy tartibga solish modellari tahlil qilinib, tadqiqot mavzusi bo'yicha dunyoning "ilmiy xaritasi"da O'zbekistonning o'rnini ko'rsatilishi lozim. Ya'ni tadqiq qilinayotgan huquqiy muammo qaysi davlatlarda o'zining samarali yechimini topgan, mazkur huquqiy masalani tartibga solishda qaysi davlatlarning huquqiy yondashuvi model sifatida tan olingan, ushbu modellar asosida dunyoning qaysi davlatlari o'z qonunchiligini shakllantirgan, O'zbekiston aynan qaysi model asosida ushbu masalani tartibga solmoqda va original huquqiy yondashuv mazmun-mohiyati qonunchilikda to'g'ri aks etganmi, buning oqibatida amaliyotda qanday muammolar kelib chiqmoqda, degan savollarga O'zbekistondagi holatni yoritishdan oldin muallif javob berishi kerak. Agar O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy holat huquqiy modellardan hech qaysini qo'llashni taqozo qilmasa (bu holat juda kam uchraydi), dunyodagi huquqiy modellarni qisqacha tahlil qilgan holda, ularining to'g'ri kelmasligi holatini asoslantirish kerak bo'ladi. Ana shundagina, xorijiy olimlar va umuman o'quvchilar qo'lida *ilmiy ishning qisqacha yo'l-xaritasi ("road-map")* paydo bo'ladi.

Masalan, yuqorida misol sifatida keltirilgan er-xotinning o'zaro meros olish huquqi masalasida tadqiqotchi quyidagi savollarga aniq javob berishi kerak: Bu borada dunyoda 2 ta yirik doktrina (Qat'iy belgilangan ulush va Tanlov asosidagi ulush) bo'lsa, O'zbekiston qonunchiligi qaysi biri asosida qurilgan? Ya'ni O'zbekiston qonunchiligidagi er-xotinning meros olish huquqiga oid normalar aynan qaysi normalar (nazariyalar) ta'sirida shakllangan: Islom huquqining Faroiz normalari ta'siridami? Yoki tanlov asosidagi ulush konsepsiyasi ta'siridami? Yoxud bular ikkalasining aralashmasi ta'siridami? O'z navbatida, tadqiqotchi nazarda tutgan MDH model fuqarolik kodeksi (Модельный Гражданский кодекс СНГ)ning meros huquqi normalari aynan qaysi nazariya asosida shakllantirilgan?

Uchinchi talab – huquqiy tadqiqot qiyosiy tahlilga asoslangan bo'lishi ustuvor ahamiyatga ega. Bunda tanlangan mavzuni qiyosiy jihatdan tahlil qilish, ya'ni AQSH, YEI, MDH va Markaziy Osiyo davlatlarining qonunchiligi va tajribasi taqqoslash uchun tanlanishi mumkin. Tadqiqotchi taqqoslash uchun davlatni tanlashda, avvalambor, o'sha davlatning rasmiy tilini tadqiqot olib borish darajasida bilishi lozim, shuningdek, tanlanayotgan davlatning huquqiy

yoki iqtisodiy institutlari O'zbekistondagi institutlarga nisbatan yaqin bo'lishi kerak. Masalan, raqobat huquqi sohasida mavzu qiyosiy tadqiq etilayotganda O'zbekistonning bozori xususiyatlariga yaqin davlat bozori tanlanishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi asosiy talabalardan tashqari, **huquqiy tadqiqot mazmunan quyidagilarni o'z ichiga olishi tavsiya etiladi:**

yangi huquqiy konsepsiya va nazariyalarni taklif etish (huquqning konseptual asosi);

qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etishda sabab-natija aloqadorligini o'rganish, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillarni tahlil etish (huquqning ijtimoiy auditi);

qonunchilik hujjatlarining moslashuvchanligi, barqarorligi va mantiqiy izchilligini aniqlash, shuningdek ularning jamiyatga ta'sirini tahlil etish, baholash va prognoz qilish (huquq ta'sirini baholash);

turli yondashuvlar orqali qonunchilik hujjatlarini baholash, qonunchilik yutuqlarini va kamchiliklarini, undagi huquqiy bo'shliqlarni o'rganish hamda takomillashtirish, shuningdek tahliliy, tarixiy va qiyosiy-huquqiy tadqiqot natijalariga asosan qonunchilikni isloh qilish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni asoslab berish (huquqiy islohot).

76. Huquqiy tadqiqotning barcha turlari, shu jumladan, ilmiy maqola, monografiya, dissertatsiya ishlari kafedra va ilmiy seminarlarda muhokama qilinganida, ularga taqriz berilganida hamda himoyaning keyingi bosqichi yoki nashrga tavsiya qilinganida mazkur Kodeksida ko'rsatilgan talablariga javob berishi va aynan ilmiy ishning mazmuniga qo'yilgan talablar bo'yicha baholanishi lozim.

77. Ilmiy maqola mazmuniga qo'yilgan talablar:

Ilmiy maqola muayyan huquq tarmog'i (sohasi) bo'yicha ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag'ishlanadi va unda huquqiy muammolar atroflicha qiyosiy tahlil qilinib, ilmiy-nazariy hamda amaliy yechim (xulosa)lar keltiriladi.

Maqolada muallifning ilmiy qarashlari aks ettirilishi kerak. Plagiatga yo'l qo'yilmasligi, havolalar to'g'ri va to'liq taqdim etilishi lozim.

78. Maqolaning quyidagi tuzilma (struktura)ga rioya qilgan holda tayyorlash tavsiya qilinadi:

qisqacha kirish – maqola mavzusiga oid fanning taraqqiyoti darajasi va tanlangan muammoning dolzarbligi aks ettiriladi;

qo'yilgan maqsad va uni asoslash – maqoladan ko'zlangan maqsad yoritilgani holda tanlangan muammoning fandagi shu muammolar ichidan

xususiyligi yoki alohidaligi ajratib ko'rsatiladi hamda tadqiqot savollari keltiriladi;

ilmiy muammoning tavsifi va yechimi – mavzuga oid adabiyotlardan hamda tadqiqot jarayonida to'plangan ilmiy va amaliy materiallar har tomonlama tahlil va tavsif qilinadi, shuningdek, tayyorlangan axborot matni ko'rgazmali (illyustratsion) material bilan mustahkamlanishi mumkin. Ilmiy maqolada huquqiy muammoga oid xorijiy davlatlar tajribasi, modellar tahlil etilishi va qaysi model mazkur muammoni hal etishga yordam berishi keltirilishi lozim;

yakuniy qism – har taraflama asoslantirilgan va isbotlangan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa va takliflardan iborat bo'ladi.

Maqolalarda keltirilgan fikr-mulohaza va ma'lumotlar uchun muallif javobgardir.

Maqola namunasi:

<http://jurisprudence.tsul.uz/2022/08/05/xususiy-bandlik-agentliklari-mehnat-migratsiyasiga-qanday-tasir-korsatadi-doktrinal-qarashlar-va-xalqaro-amaliyot/>

79. Ilmiy tezis mazmuniga qo'yilgan talablar:

Ilmiy tezis muayyan huquq tarmog'i (sohasi) bo'yicha ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag'ishlanadi va unda ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar ilgari suriladi. Ilmiy tezisda muayyan huquqiy, ilmiy-nazariy va amaliy muammoga taklif etilayotgan yechim bo'lsa-da, uning mazmuni va nazariy-amaliy ahamiyati isbotlanishi talab qilinmaydi.

Ilmiy tezis amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot (ilmiy maqola, dissertatsiya va boshqalar)ning asosiy natijalarini qisqa va lo'nda oshkor qilish maqsadida tayyorlanadi.

Tezisda muallifning ilmiy qarashlari aks ettirilishi kerak. Plagiatga yo'l qo'yilmasligi, havolalarni to'g'ri va to'liq taqdim etish lozim.

80. Tezisning quyidagi tuzilmaga rioya qilingan holda tayyorlanishi tavsiya qilinadi:

qisqacha kirish – tezis mavzusiga oid tanlangan muammoning dolzarbligi aks ettiriladi;

qo'yilgan maqsad va uni asoslash – tezisdan ko'zlangan maqsad yoritilgani holda tanlangan masalaning fandagi shu muammolar ichidan xususiyligi yoki alohidaligi ajratib ko'rsatiladi;

xulosa qismi– tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tadqiqot xulosalari beriladi.

Tezisdan keltirilgan fikr-mulohaza va ma'lumotlar uchun muallif javobgardir.

Tezis namunasi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6615448>

81. Ilmiy ish (dissertatsiya) mazmuniga qo'yilgan talablar:

Dissertatsiya bilimlarning tegishli tarmog'ida muhim ahamiyatga ega masalaning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalaning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan tugallangan shakldagi ilmiy ish hisoblanadi. Shuningdek, unda muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi keltirilgan, yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo'nalishini rivojlantirish uchun yirik yutuq sifatida baholanadigan yangi nazariy qoidalar kompleksi ishlab chiqilgan bo'lishi, yoki joriy etilishi fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy soha yoki iqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadigan nazariy-metodologik va uslubiy asoslar, ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (takomillashtirilgan) bo'lishi mumkin.

Dissertatsiya fan va texnikaning muayyan sohasidagi katta ilmiy nazariy muammoni hal qilishi, fan va amaliyotning rivojiga hissa qo'shadigan muayyan huquq tarmog'i (sohasi)da huquqiy muammolarini ilmiy-nazariy va amaliy yechimlariga bag'ishlangan bo'lishi, ilmiy jihatdan yangi, original, dolzarb va konseptual masalaga bag'ishlangan bo'lishi lozim.

82. Dissertatsiyaning kirish qismida quyidagilar yoritib berilishi kerak:

- dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati;
- tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi;
- dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi (faqat fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi uchun);
- muammoning o'rganilganlik darajasi;
- dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi;
- tadqiqotning maqsadi;
- tadqiqotning vazifalari;
- tadqiqotning obyekti;
- tadqiqotning predmeti;
- tadqiqotning usullari;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning amaliy natijalari;
- tadqiqot natijalarining ishonchliligi;
- tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati;

- tadqiqot natijalarining joriy qilinishi;
- tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi;
- tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi;
- dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

83. Dissertatsiyaning asosiy matni uch qismdan iborat bo'ladi: tahliliy, nazariy va amaliy va ular ikkitadan to'rttagacha bobda jam qilinadi.

Tahliliy qismda dissertatsiya mavzusiga oid manbalar va ilmiy ishlar tanqidiy tahlil qilinadi va yetarlicha ishlab chiqilmagan masalalar qatori aniqlanadi, tadqiqot usullari va ularning vazifalarni hal qilishda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Tahliliy qism muayyan masala bo'yicha keyingi tadqiqotlar zarurligi to'g'risidagi xulosalar bilan yakunlanadi.

Nazariy qismda tadqiqotchi o'z ishlanmalarining tavsifini, ularni amalga oshirish usullarini taqdim yetadi.

Amaliy qismda tadqiqotchi ishlanmalariga muvofiq amalga oshirilgan hisob-kitoblar, tajribalar va tahlillar natijalari beriladi.

Dissertatsiya namunasi ilova qilinmoqda.

Taqriz namunasi ilova qilinmoqda.

84. **Monografiya** mazmuniga qo'yilgan talablar:

Monografiyada tadqiq etilayotgan ilmiy muammoni o'rganishning dolzarbligi, mavjud holati, mavzuga oid adabiyotlarning qisqacha tahlili, asosiy ilmiy tushunchalar va terminlarning mazmuni kabi masalalar o'z ifodasini topadi. Ushbu holat o'quvchida monografiya bilan tanishishi uchun mo'ljal olishi imkonini beradi.

Monografiyaning asosiy qismida mavzu mohiyati mantiqiy izchillikda, to'liq va muayyan dalillar asosida bayon etiladi. Monografiyada tadqiq etilayotgan ilmiy muammoni hal etish uchun bevosita ahamiyatga ega bo'lmagan barcha materiallar monografiyaning oxirida ilova shaklida berilishi mumkin.

Monografiyaning xulosa qismida tadqiq etilgan muammoning mantiqiy yakuni bayon etiladi, unda mazkur ishdagi muallifning umumlashtiruvchi yakuniy baholari ifodalanadi. Shuningdek, olingan natijalar, ilgari surilayotgan ilmiy xulosalar, amaliy takliflar, ilmiy izlanishlarni davom ettirish bo'yicha keyingi vazifalar ham ko'rsatib o'tiladi.

Monografiya namunasi ilova qilinmoqda.

85. **Huquqiy siyosat ma'lumotnomasi** mazmuniga qo'yilgan talablar:

Policy brief (Huquqiy siyosat ma'lumotnomasi)da tadqiq etilayotgan muammoning dolzarbligi, mavjud holati va uni hal qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy ta'sir choralari va qonunchilik qisqacha yoritib beriladi

va muayyan guruh yoki hamjamiyatga qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asoslantirilgan ma'lumot bayon etiladi.

Huquqiy siyosat ma'lumotnomasi quyidagi qismlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq:

mavzu;

kirish;

asosiy qism (muammo, tahlil, yondashuvlar va yechimlar);

xulosa;

tavsiyalar;

manbalar.

Huquqiy siyosat ma'lumotnomasini yozish uchun yo'riqnoma:
<https://www.fao.org/3/i2195e/i2195e03.pdf>

Namuna: [https://www.idlo.int/sites/default/files/pdfs/publications/idlo-rule of law and covid19-policy brief-final.pdf](https://www.idlo.int/sites/default/files/pdfs/publications/idlo-rule%20of%20law%20and%20covid19-policy%20brief-final.pdf)

86. Huquqiy siyosat tahlili mazmuniga qo'yilgan talablar:

Policy paper (Huquqiy siyosat tahlili)da tadqiq etilayotgan muammo aniqlanadi, uning dolzarbligi belgilanadi, mavjud holati va uni hal qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan huquqiy ta'sir choralari va qonunchilik tahlil etiladi. Tahlil PEST (political, economic, social, and technological) va SWOT (Strengths/Weaknesses/Opportunities/Threats) usullarda olib borilishi mumkin.

Huquqiy siyosat tahlili muayyan guruh yoki hamjamiyatga qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asoslantirilgan bo'lishi va quyidagilarni qamrab olishi kerak:

dastlabki xulosalar;

kirish va muammolar;

metodologiya;

adabiyotlar tahlili;

huquqiy siyosat mazmuni;

yechimlar va dalillar tahlili;

eng yaxshi amaliyot va ishlar tahlili (case study);

huquqiy siyosat bo'yicha choralar va tavsiyalar;

amalga oshirish va keyingi bosqichlar;

xulosalar;

ilova.

Huquqiy siyosat tahlilini yozish uchun yo'riqnoma: <https://www-cdn.law.stanford.edu/wp-content/uploads/2015/04/White-Papers-Guidelines.pdf>

Namuna: <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/NR/rdonlyres/772C95C9-F54D-4321-BF09-73422BB23528/143640/ICCOTPInterestsOfJustice.pdf>

XI. Tadqiqot metodologiyasi va huquqiy tadqiqot modellari

87. Tadqiqotchi tomonidan tadqiqot olib borishda qo'llaniladigan barcha usullar va vositalar "tadqiqot metodlari" deb yuritiladi. Ular tadqiqotchi tomonidan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda foydalaniladigan usullar, (shu jumladan, texnik) vositalar bo'lib, ma'lumotlar va ma'lum bo'lmagan faktlar (xulosalar) o'rtasidagi munosabatni o'rnatish va baholash jarayonida ishlatiladi. Tadqiqot metodlari yordamida tadqiqot xulosalari, bu orqali esa tadqiqot natijalariga erishiladi.

88. Ma'lumotlar (dalillar)ni to'plash va ularni qayta ishlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan usul va vositalar yig'indisi "tadqiqot metodologiyasi" hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tadqiqot metodologiyasi tadqiqot "yo'li" bo'lib, uning yordamida tadqiqot muammosi tizimli ravishda hal qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi tadqiqot o'tkazish usullarini o'z ichiga olibgina qolmay, ularni qo'llash qoidalarini ham o'rgatadi. Tadqiqot metodologiyasi tadqiqot usuliga qaraganda keng tushuncha bo'lib, u yordamida tadqiqot nima uchun olib borilganligi, tadqiqot muammosi qanday aniqlanganligi, gipoteza (haqiqat yoki haqiqat emasligini isbotlash uchun taklif qilingan g'oya) qanday yo'l bilan va nima uchun belgilanganligi, shuningdek, nima uchun tadqiqotchi o'zining ilmiy izlanishida ma'lum bir usul yoki texnik vositadan foydalangan yoki foydalanmaganligini yoritib berishi kerak bo'ladi. Bu, o'z navbatida, tadqiqot natijalari nafaqat tadqiqotchining o'zi, balki boshqalar tomonidan ham baholashga imkon yaratadi.

89. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi afzalliklarga ega:

tadqiqotchida o'z tadqiqot muammosini ilmiy jihatdan shakllantirish qobiliyatini shakllantiradi;

tadqiqot muammosini tubdan anglash va uning yechimini izlashda xolis bo'lishga o'rgatadi;

tadqiqotchiga o'z tadqiqotini samarali va yaxshiroq bajarishga ko'mak beradi;

tadqiqotning har bir bosqichida oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi;

tegishli tadqiqot metodlarini tanlash hamda ulardan oqilona va samarali foydalanish imkonini yaratadi;

tadqiqotchi ma'lumotlarni oqilona, xolislik va ishonch bilan tahlil qilish, shuningdek, ularni sharhlash kabi o'z qobiliyatlarini takomillashtiradi;

tadqiqot natijalarini xolisona baholash va tadqiqot natijalaridan ishonchli tarzda foydalanishga sharoit yaratadi;

yangi bilimlarni o'zlashtirishning qulay yo'lini topishga xizmat qiladi.

90. Tadqiqotchi asosiy mavzu va tadqiqot maqsadlariga qarab tadqiqot modellariga murojaat qiladi. Ushbu tadqiqot modellari asosida boshqa ilmiy ishlardan farq qiladigan tadqiqot olib borish imkoni bo'ladi. Quyida huquqiy tadqiqot modellari (Models of legal research) alohida tavsiflanadi.

91. **Tavsiflovchi (Evolutive)** tadqiqot deganda tadqiqotchi yuridik fakt, qoida, konsepsiya, institut yoki huquqiy tizimning o'zi qanday qilib bugungi kunga kelib qolganligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot modeli tushuniladi. U yuridik faktning kelib chiqishi va rivojlanishini kuzatishga harakat qiladi. Bunday huquqiy tadqiqotni hatto ma'lum bir qonunning rivojlanishini kuzatish uchun ham olib borish mumkin, masalan, mamlakat konstitutsiyaviy huquqining rivojlanishi.

92. Huquqiy tadqiqotning **baholash (evaluative)** modelida mantiqiylikni tushuntirishga qaratilgan huquqiy tushunchalar, elementlar, faktlar va manfaatlar, hodisalar individual va uyg'un ravishda baholanadi. Mazkur modelda qonunda qo'llaniladigan atamalar, tushunchalarni aniqlash va belgilash uchun ularning huquqiy tizimdan tashqaridagi tushunchalar, elementlar, faktlar va manfaatlar bilan munosabatlarini ochishga harakat qilinadi. Bunday tadqiqot qonun nima ekanligini tushuntirish uchun huquqning tabiati, ko'lami va manbasini aniqlash, shuningdek, qonunda qo'llaniladigan bir nechta tushunchalarni ta'riflashda qo'llaniladi.

93. **Aniqlovchi (Identificatory)** tadqiqotlar muayyan qonun yoki yuridik faktdan manfaatdor taraflarni aniqlash, ushbu qonun yoki yuridik faktning qonunchilikdagi maqsadi yoki obyektini aniqlash va tushuntirishga yordam beradi. Ya'ni mazkur tadqiqot modeli qonunchilik tartib soluvchi sohadagi "benefitsiar" (manfaat olishni ko'zlovchi shaxs)larga yordam berish uchun qonunchilik bazasi va unda qo'llaniladigan strategiyani aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur benefitsiarlar haqiqatdan ham manfaat ko'rishi yoki ko'rmasligini aniqlashga yordam beradi. Boshqacha aytganda, aniqlovchi huquqiy tadqiqot qonunning yoki so'rov ostidagi yuridik faktning foydaliligini baholashga xizmat qiladi. Masalan, huquqiy tadqiqotning bunday modelidan oiladagi zo'ravonlik, bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki zararli turmush tarzi bilan bog'liq huquq normalarini o'rganishda samarali foydalanish mumkin.

94. **Huquq ta'sirni o'rganish (impact studies)** modeli amaldagi yoki yangi ishlab chiqilgan qonun, huquqiy norma, qoida yoki institutning samaradorligi yoki haqiqiy natijasini baholashga qaratilgan bo'ladi. Bunda tadqiqotchi ko'rib chiqilayotgan moddiy huquq normasining mazmuniga emas, balki uning jamiyatga yakuniy ta'siriga yoki uning qonunchilik maqsadi va

amaldagi holatiga e'tibor beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi qonun yoki huquqiy institutlar faoliyatining muayyan bir vaqt va joyda jamiyat yoki shaxs hayotiga ta'siri o'rganish va tushunish hisoblanadi. Ya'ni bunday tadqiqotlar amaldagi qonun (yoki huquqiy institut) hamda uning ta'siridagi shaxslarning xatti-harakati va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Bu model orqali muayyan yuridik faktning ma'lum bir ijtimoiy muhitda qanday ishlashini qayd etish va tushuntirish ilmiy jihatdan ko'rsatib beriladi.

95. Tadqiqotchi, odatda, qonunchilik loyihasi yoki taklif qilingan huquqiy choralar ta'sirini taxmin qilish va ta'kidlashni istaganida, huquqiy tadqiqotlarning **rejalash (projective)** modelidan foydalanadi. Bunday huquqiy tadqiqot asosan taklif qilingan chorani rad etish yoki qabul qilish nuqtayi nazaridan ehtimoliy javobni kutish uchun mo'ljallangan. Uning maqsadi taklif qilingan qonun yoki qonuniy choralarni qo'llab-quvvatlaydigan va unga qarshi bo'lgan tomonlarni aniqlash va tomonlarning befarqligi yoki munosabat bildirishi uchun hal qiluvchi o'zgarish va vaziyatlarni ko'rsatib berishdan iborat.

96. **Bashoratli (predictive)** huquqiy tadqiqotlar tadqiqotchi taklif qilingan qonun yoki qonuniy choradan noto'g'ri foydalanishni taxmin qilish, salbiy oqibatlarni ochib berishda qo'llaniladi. Bunday huquqiy tadqiqot yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni imkon qadar kamaytirish, yumshatish, kutilmagan oqibatlarning oldini olishga qaratiladi.

97. **Jamlovchi (collative)** huquqiy tadqiqot modeli ma'lum bir mavzu bo'yicha qonunlar, huquq normalari, sud qarorlari, amaliyot umumlashmalari yoki izohli bibliografiyani tayyorlashda qo'llaniladi. Bunda tadqiqotchi barcha tegishli materiallarni ma'lum bir mavzu bo'yicha xulosasi bilan yoki xulosasiz to'playdi va ularni mantiqiy ravishda tartibga solib chiqadi.

98. **Tarixiy (historical)** huquqiy tadqiqotlarda tadqiqotchi yuridik faktning tarixiy o'tmishi, kelib chiqishi va xronologik rivojlanishi bo'yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshiradi. Bunda muayyan yuridik faktning tarixini kuzatish uning atributlari uchun ham ahamiyatga ega, ayniqsa, qonunlarning qabul qilinishida ularning stenogrammasini o'rganish tadqiqotchiga qonunning qabul qilinishi sabab va zaruriyatlarini aniqlab, tushunib olish uchun muhim hisoblanadi.

99. **Qiyosiy-huquqiy (comparative)** tadqiqotlar modeli huquqiy muammolarga yaqinlashish usuli sifatida turli mamlakatlar qonunchiligini tizimli tartibda o'rganish va umumlashtirishga qaratilgan bo'lib, xorijiy davlatlar tomonidan qabul qilingan normalarning o'xshashligi va farqli jihatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi.

100. Ilmiy izlanishlar natijasida qonunchilikka takliflar ishlab chiqish maqsadida o'tkaziladigan tadqiqotni **huquqiy siyosatni belgilovchi (policy based)** tadqiqot sifatida ko'rish mumkin. Bunda bir necha normalardan biri tadqiqotchi tomonidan tanlanadi va ushbu tanlov asoslab beriladi.

101. **Huquqiy sharhlashga asoslangan (legal interpretation based)** tadqiqotda amaliyotdagi muammolarning huquqiy yechimini topish tegishli huquq normalarni to'g'ri sharhlash orqali amalga oshiriladi. Mazkur tadqiqot modeli sud amaliyoti tahlili asosida olib boriladigan ilmiy ishlarda ko'proq qo'llaniladi.

XII. Huquqiy tadqiqotning zamonaviy yo'nalishlar

102. **Monodissiplinar huquqiy tadqiqot (Mono-disciplinary legal research).** Tadqiqot aynan huquq fani doirasida amalga oshirilganida bunday tadqiqot monodissiplinar huquqiy tadqiqot hisoblanadi. Bunda tadqiqot predmeti boshqa fanlar doirasiga o'tmaydi, aynan huquq faniga oid konsepsiyalar, doktrinalar, qoidalar doirasida amalga oshiriladi. Boshqa fanlarga oid muhim ma'lumotlardan foydalanigan taqdirda ham, ularni alohida tadqiq qilmaydi.

Doktrinal (fundamental) huquqiy tadqiqotlar, odatda, aynan bir huquq fani doirasida bo'ladi, amaliy tadqiqotlar esa boshqa fanlarga oid tadqiqotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu tadqiqotga misol tariqasida malakatimizda amalga oshirilgan aksariyat huquqiy, ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin.

103. **Transdissiplinar (Trans-disciplinary legal research) va interdissiplinar huquqiy tadqiqot (Inter-disciplinary legal research).** Tadqiqot predmeti boshqa fanlarga oid tadqiqotlarni ham qamrab olgan taqdirda bu transdissiplinar tadqiqot hisoblanadi. Bunda tadqiqot predmeti huquqdan boshqa fanlar (sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik va boshqalar) doirasida ham tadqiq qilinadi. Masalan, korporativ boshqaruvga oid masalalar huquq va iqtisodiyot fanlari doirasida ularning ilmiy metodlari bilan tadqiq etilishi va har ikki fan uchun foydali natijalarga olib kelishi mumkin.

Transdissiplinar huquqiy tadqiqotlar kvazidissiplinar, multidissiplinar va interdissiplinar kabi turlarga bo'linadi (quasi-disciplinary, multi-disciplinary, or inter-disciplinary in nature).

Bir predmetni bir necha fan sohasi, shu jumladan, huquq fani doirasida bir necha tadqiqotchi tomonidan tadqiq etilishi interdissiplinar (fanlararo) tadqiqotni tashkil etadi. Bunda huquqshunos tadqiqotchi tadqiqotning huquqiy

qismini, boshqa fan mutaxassisi tegishli fanga oid qismini amalga oshiradi. Mazkur tadqiqot maqsadlari, izchilligi va yaxlitligi bilan bir tadqiqot predmetiga ega bo'lishi hamda ayni vaqtda tadqiqot predmetining turli jihatlari boshqa fan doirasida tadqiq etilishi mumkin. Masalan, korporativ boshqaruvga oid tadqiqotning huquqiy qismini huquqshunos olim, iqtisodiy tomonini esa iqtisodchi olim tomonidan yagona maqsadda tadqiq qilish ushbu tadqiqot turiga misol bo'la oladi.

Ushbu turdagi huquqiy tadqiqotlarga misollar:

Ebers, M., & Navas, S. (Eds.). (2020). Algorithms and Law. Cambridge: Cambridge University Press. doi: 10.1017/9781108347846. Ushbu tadqiqotda robotlar, algoritmlar, sun'iy intellekt va avtonom qurilmalar va huquqning o'zaro aloqasi, avtonom qurilmalarda avtomatik qaror qabul qilish hamda uning huquqiy oqibatlari texnologik fanlar va huquq nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan.

Klaus, M., Avishalom T. (2021) Economic Analysis of Law in European Legal Scholarship. Springer. <https://www.springer.com/series/11927>. Bunda huquqning iqtisodiy tahlili huquqiy hamda iqtisodiy nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Antonio D'Aloia, Maria Chiara Errigo. (2020). Neuroscience and Law. Complicated Crossings and New Perspectives. Springer Nature Switzerland AG. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-030-38840-9>. Neyrologiya va uning inson xulq-atvoridagi ahamiyati hamda uning huquqiy jihatlari qamrab oluvchi ushbu tadqiqot har ikki fan bo'yicha chuqur va uyg'un tadqiqot namunasi bo'la oladi.

XIII. Huquqiy tadqiqotlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari

104. ***Tadqiqot mavzusini tanlash va shakllantirish.*** Tadqiqot mavzusi tadqiqotchi qiziqish bildirayotgan huquqiy muammo va masaladan kelib chiqib tanlanadi. Amaliyot bilan shug'ullangan yoki shug'ullanayotgan izlanuvchilarga o'z sohasi bilan bevosita bog'liq mavzuni tanlash tavsiya etiladi. Bunda izlanuvchi tanlanayotgan tadqiqot mavzusi bo'yicha o'z ilmiy rahbari, shu soha bo'yicha ixtisoslashgan olimlar va amaliyotchi mutaxassislar oldida taqdimot qilgan holda mavzusini aniqlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot mavzusini shakllantirish jarayonida tadqiqotchini qiziqtirayotgan soha doirasida qanday huquqiy muammolar mavjudligi, tadqiqot chegarasi va tadqiqot maqsadini aniqlashtirish muhim hisoblanadi.

Masalan, tadqiqotchi tadbirkorlar tomonidan bozorda narxlarni sun'iy tarzda oshirilishi masalasiga qiziqmoqda. Qiziqish sohasi aniq, lekin tadqiqot mavzusini shakllantirish uchun oldin ushbu soha doirasidagi huquqiy muammolarni aniqlashtirish kerak.

105. *Tadqiqot muammosini shakllantirish.*

Tadqiqot muammosi – bu tadqiqotda hal etilishi maqsad qilingan ma'lum bir masala, muammo, ziddiyat yoki ilmdagi bo'shliq. Tadqiqotchi uchun eng murakkab masala bu tadqiqot muammosini aniqlashtirish hisoblanadi. Tadqiqot muammosi sifatida amaldagi islohotlarga hissa qo'shishni maqsad qilgan amaliy muammolarni yoki doktrinal bilimlarni kengaytirishga qaratilgan nazariy muammolarni tanlash mumkin. Ba'zi tadqiqotlar ham nazariy, ham amaliy muammolarni qamrab olishi mumkin, lekin, odatda, tadqiqot muammosi sifatida ikkalasidan bittasini tanlanishi kerak bo'ladi.

Tadqiqot mavzusi qancha qiziqarli bo'lmasin, bu ilmiy tadqiqotlar uchun yetarlicha asos hisoblanmaydi. Tadqiqot muammosi aniq shakllantirilmasa, tadqiqotchi sayoz va mavhum ilmiy ishga qo'l urishi mumkin. Tadqiqot muammosini to'g'ri va asosli shakllantira olish butun tadqiqotning sifatiga va dolzarbligiga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchini qiziqtirayotgan soha doirasidagi huquqiy muammolarni aniqlash uchun shu soha olimlari, mutaxassislari, amaliyotchilari bilan suhbatlashish, fikr almashish tavsiya etiladi. Shuningdek, sohaga doir adabiyotlarni o'rganish orqali ham tadqiqot muammosiga aniqlik kiritish va to'g'ri shakllantirish mumkin. Tadqiqot muammosini shakllantirishda mavzu bo'yicha to'liq o'rganilmagan jihatlariga, ilmiy muhokama yoki bahslarga e'tibor qaratish lozim.

Masalan, yuqoridagi misolda bozorda narxlarni sun'iy tarzda oshirilishi bo'yicha keltirilgan masala yuzasidan tadqiqotchi soha mutaxassislari bilan suhbatlashib, quyidagi muammoni aniqlashi va shakllantirishi mumkin. *Tadqiqot muammosi: raqobat qonunchiligida narxlarning sun'iy oshirilishi taqiqlangan bo'lsa-da, amalda tadbirkorlar tomonidan narxlarning sun'iy oshirilishiga qarshi kurash samarasiz bo'lib qolmoqda.*

Tadqiqotning huquqiy muammolari shakllantirilganidan keyin tadqiqotchi ilmiy ishida qaysi savollarga javob bermoqchi ekanligini aniqlashtirishi lozim.

106. *Tadqiqot savollarini shakllantirish.*

Tadqiqot savollari – bu tadqiqotchi ilmiy ishida javob berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ilmiy savollar hisoblanadi. Tadqiqot savollari bitta asosiy va undan kelib chiqadigan bir nechta kichik savollardan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan, yuqoridagi misol bo'yicha davom ettirilsa, tadqiqot savollari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

a) Narxlarning sun'iy oshirilishini tartibga soluvchi raqobat qonunchiligi normalari amaliyotda samarasiz qo'llanilishining asosiy sabablari nima?

b) Raqobat qonunchiligidagi narxlarning sun'iy oshirilishni aniqlash va isbotlash bo'yicha kartel kelishuvlariga oid normalar qay darajada ilg'or xorijiy tajriba va so'nggi tadqiqotlarga asoslangan?

v) Narxlarni sun'iy oshirish bo'yicha kelishuvlarni fosh etish mexanizmini takomillashtirish uchun qonunchilikka qanday o'zgartirishlar kiritish kerak?

Tadqiqot savollari shakllantirilgandan keyin tadqiqot maqsadi va unga erishish uchun tadqiqotchi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni aniqlashtirish kerak.

107. *Tadqiqot maqsadini shakllantirish.*

Tadqiqot maqsadi sifatida ilmiy ishdan kutilayotgan asosiy natija bayon etiladi. Tadqiqot maqsadi qisqa bir gap yoki bir abzas orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, tadqiqot maqsadiga erishish usuli sifatida tadqiqot vazifalari ham aniq belgilanishi lozim. Tadqiqot vazifalari tadqiqot maqsadini bir necha qismlarga ajratib, har bir qismini alohida batafsil aniqlashtiradi.

Masalan, tadqiqot maqsadi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: "Tadbirkorlar tomonidan narx bo'yicha kartel kelishuvlariga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish uchun qonunchilikka amaliy takliflarni ishlab chiqish".

Shundan kelib chiqib, tadqiqot vazifasi sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

O'zbekiston Respublikasi raqobat qonunchiligini tahlil qilish;

kartel kelishuvlariga qarshi institutsional tizim holatini o'rganish va baholash;

kartel kelishuvlariga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilish;

O'zbekistonda kartel kelishuvlarining fosh etilish darajasi pastligining sabablarini aniqlash.

Shu bilan birga, dissertatsiyaning hajmi cheklanganligi va tadqiqot qamrovi kengayib ketmasligi uchun tadqiqotning chegarasini aniq belgilash lozim.

108. *Tadqiqot chegarasini aniqlash.*

Tadqiqot chegarasi ilmiy ishni o'rganish doirasini anglatadi. Bunda tadqiqotchi tadqiqot nimani qamrab olishini va nimaga e'tibor qaratishini aniqlashtirishi kerak. Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, ya'ni ma'lumot

yig'ishdan oldin tadqiqot chegarasini aniqlashtirish tavsiya etiladi. Tadqiqot chegarasini to'g'ri belgilash orqali o'rganilishi kerak bo'lgan tadqiqot doirasini to'g'ri belgilash va natijada tadqiqot ishini tegishli vaqt oralig'ida samarali amalga oshirishga erishiladi.

Shuningdek, tadqiqot chegarasini aniq belgilash orqali tadqiqotchi nima sababdan ayrim ma'lumotlardan foydalanib, boshqalarini esa ilmiy ishida ko'rib chiqmaganligi sabablariga aniqlik kiritadi. Tadqiqot chegarasi aniq belgilanmasa, ilmiy ishning yakuniy nuqtasini aniqlash qiyin bo'ladi, chunki o'rganish mumkin bo'lgan mavzularda cheklovlar belgilanmaganligi sababli tadqiqot qamrovi kengayib boraveradi.

Masalan, tadqiqot chegarasini quyidagicha belgilash mumkin: O'zbekiston Respublikasi tovar bozorlarida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida narx bo'yicha kartel kelishuvlarini tartibga soluvchi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek, yuridik fandagi konsepsiyalar, doktrinalar, yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iborat. Bu yerda:

geografik chegara – O'zbekiston Respublikasi;

bozor turi bo'yicha chegara – tovar bozorlari (ya'ni moliyaviy bozorlar kirmaydi);

kelishuv turi bo'yicha chegara – narx bo'yicha kelishuvlar (ya'ni bozorni bo'lib olish bo'yicha kelishuvlar yoki ishlab chiqarish hajmlarini qisqartirish bo'yicha kelishuvlar tadqiqot doirasiga kirmaydi).

Tadqiqot chegarasi aniqlashtirilgandan keyin endi tadqiqot mavzusini shakllantirish va rasmiylashtirish mumkin. Masalan, tadqiqot mavzusini "O'zbekiston Respublikasida narx bo'yicha kartel kelishuvlarini fosh qilish va isbotlashning huquqiy muammolari" deb ifodalash mumkin.

109. *Tadqiqot muammosiga oid manba (adabiyot)larni ko'rib chiqish (muammoning o'rganilganlik darajasi).*

Tadqiqot muammosiga oid manba (adabiyot)larni ko'rib chiqish – tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish, tegishli nazariyalarni, tadqiqot usullarini va mavjud tadqiqotlardagi kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Manba (adabiyot)larni ko'rib chiqish jarayonida tadqiqotchi faqat manbalarni umumlashtiribgina qolmay, balki tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy holatni tahlil qilishi, baholashi va tanqidiy ko'rib chiqishi lozim.

Tadqiqot muammosiga oid manba (adabiyot)larni ko'rib chiqish tadqiqotchining shu soha va mavzu bo'yicha adabiyotlar majmuasi bilan yetarlicha tanishligini namoyish etadi, muammoning o'rganganlik darajasini ko'rsatadi va ilmiy ishga bo'lgan ishonchlik darajasini oshiradi. Tadqiqotning

bu bosqichida oldin amalga oshirilgan tadqiqotlarning mavzuga tegishli asosiy masalalari umumlashtiriladi, amaldagi tadqiqot bilan bog'liqligi tushuntiriladi, shuningdek, olimlarning qarashlari va yondashuvlari, boshqa tadqiqotlardan o'rganilgan masalalar va tadqiqotdagi yangi g'oyalar aks ettiriladi.

110. *Tadqiqot gipotezasi (takliflari)ni shakllantirish.*

Tadqiqot gipotezasi – bu tadqiqotchining ilmiy ishi bo'yicha hali isbotlanmagan ilmiy farazi, taxminiy xulosasidir. Tadqiqot gipotezasini to'g'ri shakllantirish uchun ilmiy faraz yoki taxminiy xulosa uchta xususiyatga ega bo'lishi kerak: aniqlik, tekshirish imkoniyati mavjudligi va to'g'rilik.

a) *Aniqlik.* Yaxshi tadqiqot gipotezasi orqali tadqiqot muammosi bo'yicha qanday yechim berilayotganligi hamda kutilayotgan natijani aniq va mantiqiy jihatdan bayon etilishiga erishiladi.

b) *Tekshirish imkoniyati mavjudligi.* Tadqiqot gipotezasi ilmiy gipoteza sifatida tan olinishi uchun uni tanqidiy jihatdan ko'rib chiqish va tekshirish (sinovdan o'tkazish) imkoniyati bo'lishi kerak. Agar uni tekshirish imkoniyati mavjud bo'lmasa, bu gipoteza emas.

Buni ushbu gipoteza misolida ko'rib chiqamiz: Narxlarning sun'iy oshirilishiga bozordagi monopolistlar tomonidan birjadagi yashirin o'yinlar sababchi. Bu yerda "yashirin o'yinlar" mavhumroq tushuncha bo'lganligi uchun tekshirish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli buni gipoteza sifatida qabul qilib bo'lmaydi.

v) *To'g'rilik.* Ilmiy gipoteza bo'lishi uchun gipoteza to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirishning aniq usuli bo'lishi kerak. Agar gipotezaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini baholashning hech qanday usuli bo'lmasa, bu ilmiy gipoteza deb hisoblanmaydi.

Buni quyidagi gipoteza misolida ko'rib chiqamiz: Bozordagi narxlarning sun'iy oshirilishiga sabab ushbu huquqbuzarlik uchun belgilangan jarimalar miqdori juda pastligidir. Bu yerda jarimalar miqdorini xorijiy davlatlar tizimi bilan qiyoslash usuli orqali to'g'ri ekanligini aniqlash mumkin.

111. *Ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va sharhlash.*

Ma'lumotlarni yig'ish – bu tadqiqot savoliga javob topish, gipotezani tekshirish va natijalarni baholash uchun barcha tegishli manbalardan ma'lumot to'plash jarayoni hisoblanadi. Ma'lumotlar turli manbalardan to'planishi mumkin. Manbalar birlamchi va ikkilamchi manbalarga bo'linadi.

Birlamchi manbalardan ma'lumotlarni to'plashning bir necha usullari mavjud. Masalan, so'rovlar o'tkazish, intervyular olish, kuzatish, normativ-huquqiy hujjatlarni va sud qarorlarni yig'ish, tahlil qilish va hokazo. Birlamchi

ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, odatda, ikkilamchi ma'lumotlarni o'rganishga qaraganda ko'proq vaqt va kuch talab etadi.

Ikkilamchi manbalarni yig'ish va tahlil qilish esa mavjud bo'lgan ilmiy ishlar natijalarini va akademik adabiyotlarni o'rganish orqali vujudga keladi. Ikkilamchi ma'lumotlar turiga kitob, gazeta, ilmiy jurnallar, yuridik davriy nashrlar, onlayn portallarda nashr etilgan manbalar va shu kabilar kiradi.

Tadqiqot manbalarini o'rganishni ikkilamchi manbalardan boshlash tavsiya etiladi, chunki ikkilamchi manbalarda birlamchi manbalar asosida huquqiy muammolar ma'lum darajada o'rganilgan, tahlil qilingan hamda tegishli xulosalar va tanqidiy yondashuvlar berilgan bo'ladi. Shuningdek, ikkilamchi manbalarga qarab oldingi tadqiqotchilar tomonidan qanday ma'lumotlardan foydalanilganligi va ilmiy usullar qo'llanilganligini, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda qanday qiyinchiliklarga duch kelinganligini bilib olish mumkin.

Ma'lumotlarni tahlil qilish – bu tadqiqotchi tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar bazasidan tadqiqot mavzusiga oid zarur ma'lumotlarni saralab olish, tartibga solish, turkumlash, umumlashtirish va sharhlash uchun ma'lumotlarni tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon ma'lumotlarni talqin qilish yo'lidagi birinchi qadamdir.

Ma'lumotlarni sharhlash — bu ma'lumotlarning muayyan ma'nosini ifodalashga va tegishli xulosaga kelishga yordam beradigan ma'lumotlarni ko'rib chiqish jarayoni hisoblanadi.

112. Tadqiqotni amalga oshirishning yuqorida nazarda tutilgan asosiy bosqichlarini quyidagi sxema orqali misollar bilan ko'rib chiqishimiz mumkin:

I. Qiziqish: Tadbirkorlar tomonidan bozorda narxlarni sun'iy tarzda oshirilishi



II. Tadqiqot muammosi: Raqobat qonunchiligida narxlarning sun'iy oshirilishi ta'qiqlangan bo'lsa-da, amalda tadbirkorlar tomonidan narxlarning sun'iy oshirilishiga qarshi kurashish samarasiz bo'lib qolmoqda.



III. Tadqiqot savollari:

1) Narxlarning sun'iy oshirilishini tartibga soluvchi raqobat qonunchiligi normalari amaliyotda samarasiz qo'llanilishining asosiy sabablari nima?

2) Raqobat qonunchiligidagi narxlarning sun'iy oshirilishi bo'yicha kartel kelishuvlariga oid normalar qay darajada ilg'or xorijiy tajriba va so'ngi tadqiqotlarga asoslangan?

3) Narxlarni sun'iy oshirish mexanizmini takomillashtirish uchun qonunchilikka qanday o'zgartirishlar kiritish kerak?



IV. Tadqiqot maqsadi: Tadbirkorlar tomonidan narx bo'yicha kartel kelishuvlariga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish uchun qonunchilikka amaliy takliflarni ishlab chiqish.



V. Tadqiqot vazifasi:

O'zbekiston Respublikasi raqobat qonunchiligini tahlil qilish;

Kartel kelishuvlariga qarshi institutsional tizim holatini o'rganish va baholash;

Kartel kelishuvlariga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilish;

O'zbekistonda kartel kelishuvlarining fosh etilish darajasi pastligining sabablarini aniqlash.



VI. Tadqiqot chegarasi: Tovar bozorlarida tadbirkorlik subyektlari o'rtasida narx bo'yicha kartel kelishuvlarini tartibga soluvchi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, shuningdek yuridik fandagi konsepsiyalar, doktrinalar, yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.



VII. Tadqiqot mavzusi: O'zbekiston Respublikasida narx bo'yicha kartel kelishuvlarini fosh qilish va isbotlashning huquqiy muammolari

**XIV. Akademik nohalollikni aniqlash
va uni buzganlik uchun javobgarlik**

113. Universitet xodimlari va professor-o'qituvchilari o'quv jarayoni hamda tadqiqot faoliyatida akademik halollikka rioya etilishi uchun javobgardir.

114. Universitetda akademik halollik va tadqiqot etikasiga rioya qilmaslik holatlari quyidagi shakllarda aniqlanishi mumkin:

o'quv-uslubiy ishlar (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanma va boshqalar), BMI, magistrlik dissertatsiyalari hamda tadqiqot ishlari (ilmiy maqolalar, monografiyalar, PhD va DSc dissertatsiyalari)ni maxsus elektron antiplagiat dasturlari vositasida tekshirish asosida;

akademik nohalollik haqida kelib tushgan murojaatlar (elektron, yozma yoki og'zaki) yoki o'tkazilgan so'rovnomalar natijalarini o'rganish asosida;

universitet rahbariyatiga ijtimoiy tarmoqdagi maxsus bot orqali kelib tushgan murojaatlar va ularning tasdiqlanishiga ko'ra;

universitetning akademik halollik va tadqiqot etikasiga rioya qilinishi ustidan nazorat qiluvchi tarkibiy tuzilmalar tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar asosida;

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan kelib tushgan murojaatlar va ularni o'rganish asosida;

jamoatchilik nazorati shaklida talabalar, tadqiqotchilar va boshqa shaxslar tomonidan berilgan ma'lumotlarni o'rganish asosida hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa shaklda.

115. Universitet pedagog xodimlari quyidagi hollarda akademik halollik va tadqiqot etikasini buzganlik uchun intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin:

yashirish – mazkur Kodeks qoidalarini buzilganligi yoki ularga qasddan rioya qilinmaganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni sir saqlash;

yo'l qo'yish – mazkur Kodeksga rioya qilinishi va uni ijrosini ta'minlash majburiyati to'g'ridan-to'g'ri xizmat vazifasi sanalgan shaxs tomonidan ushbu Kodeks qoidalarini buzilishiga yo'l qo'yish yoki uni ijrosini qasddan ta'minlamaslik;

til biriktirish – har qanday baholanadigan ishni ta'lim oluvchi yoki izlanuvchining o'rniga bajarish (muayyan to'lov evaziga yoki bepul bo'lishi ham mumkin);

akademik ma'lumotga noqonuniy ega bo'lish va/yoki uni tarqatish – imtihon materiallarini va/yoki ularga javobni yetkazish, shuningdek ta'lim oluvchilarni (imtihon topshiruvchilarni) beriladigan savollardan xabardor qilish, tayyor ma'ruza, esse, topshiriq va akademik ishlarni sotish va/yoki sotib olishda yordam berish; baholanadigan ishning har qanday javobini duch kelgan usulda o'g'irlash, jumladan, ta'lim oluvchiga taqdim qilish uchun elektron pochta orqali yoki kompyuterdan yuklab olish;

qalbakilashtirish – akademik ishdagi bahoni yoki topshiriqqa javoblarni, ma'lumotlarni, imzoni soxtalashtirish, akademik ishga qasddan zarar yetkazish yoki uni qalbakilashtirish;

vakolatlarni suiiste'mol qilish – turli shakldagi manfaatdorlik (yoki manfaatsiz) holatida ta'lim oluvchilar baholanishiga ta'sir ko'rsatish, lavozim majburiyatlari doirasida vakolatlarni suiiste'mol qilish, ijobiy baholash to'g'risida iltimos qilish, tadqiqot ishlarini muhokamalarida ta'sir ko'rsatish;

o'zgartirish (bahoni ko'tarish) – ta'lim oluvchiga moyillikdan va/yoki ko'rsatgan xizmati uchun haq evaziga bahoni o'zgartirish;

tadqiqot etikasi qoidalariga rioya qilmaslik – tadqiqot faoliyatida barcha darajadagi talabalar, xodimlar, izlanuvchilar va professor-o'qituvchilar tomonidan mazkur Kodeks qoidalarini buzish yoki boshqalar tomonidan buzishga yo'l qo'yishda ifodalangan harakat (harakatsizlik).

XV. Akademik kengash va Tadqiqot etikasi kengashi tomonidan akademik halollik va tadqiqot etikasini buzgan xodim va talabalarning javobgarligini ko'rib chiqish

116. Akademik kengash va Tadqiqot etikasi kengashi tomonidan akademik halollik va tadqiqot etikasi bo'yicha mazkur Kodeks va boshqa hujjatlarda belgilangan qoidalarni buzgan xodim va talabalarning javobgarligi ushbu kengashlarning Nizomlari asosida ko'rib chiqiladi.

117. Akademik kengash o'z vakolatlari doirasida talabaga (bakalavr va magistr) akademik nohalollikka yo'l qo'yganida quyidagi sanksiyalarni qo'llashi mumkin:

nazorat ishi uchun qoniqarsiz baho – "0" (nol) ball qo'yilishi;

mazkur Kodeksda nazarda tutilgan akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va tadqiqot etikasi qoidalarini buzishga yo'l qo'yish – hayfsan berilishi;

mazkur Kodeksning 16-18, 20-bandlarida, shuningdek hayfsan qo'llanilganidan so'ng 19, 21-24, 37-38-bandlarida nazarda tutilgan akademik nohalollik (qoidabuzarlik) va tadqiqot etikasi qoidalarini buzishga qayta yo'l qo'yish – to'g'ridan-to'g'ri kursdan kursga qoldirishga yoki mehnat shartnomasini bekor qilishga asos bo'lishi mumkin.

118. Fakultet dekanatlari mazkur Kodeksning buzilish holatlari haqida ma'lumotni saqlashi va uni O'quv-uslubiy boshqarmaga hamda Akademik kengash yoki Tadqiqot etikasi kengashiga tegishli masalalarni hal qilish uchun taqdim qilishi kerak.

119. Universitet pedagog xodimlari, izlanuvchilari va xodimlariga o'quv jarayonidagi akademik halollik yoki tadqiqot etikasi qoidalarini buzganlik uchun "hayfsan" intizomiy jazosi qo'llaniladi hamda mehnat shartnomasini bekor qilish masalasi, zaruratga ko'ra, Akademik kengash yoki Tadqiqot etikasi kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, Universitet rektoriga tavsiya kiritiladi.

120. Sanksiyani qo'llash bo'yicha qaror ustidan uch ish kunida apellyatsiya berilishi va u bir oy ichida Universitet Kengashi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

XVI. Yakuniy qoida

121. Kodeksga Universitet Kengashining qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Ilmiy maqolaga qo'yilgan talablar:

1. Ilmiy maqola haqiqatda o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijasi bo'lishi kerak.
2. Maqolada so'nggi yillarda chop etilgan eng yangi ma'lumotlar va axborotlardan foydalanilgan bo'lishi kerak.
3. Avval topshirilayotgan maqola hech qayerda chop etilmagan bo'lishi kerak.
4. Maqola bir vaqtning o'zida boshqa jurnalga ham chop etish uchun topshirilmagan bo'lishi kerak.

Sarlavha (Title): Sarlavha ixcham, aniq va jurnalning butun o'quvchilari uchun mazmunli bo'lishi kerak. Odamlar Internetda qidirish paytida uni yanada aniqroq qilishga yordam beradigan asosiy so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Uzun nomlar va nostandart yoki tushunarsiz qisqartmalar yoki belgilarni ishlatishdan saqlaning.

Mualliflar (Authors): Maqolada 1-3 kishidan iborat mualliflar bo'lishi maqsadga muvofiq. Har bir muallifning ism-familiyasi qisqartirilmagan holatda pasport bo'yicha yozilgan bo'lishi kerak. Har bir muallifning ilmiy darajasi, lavozimi, kafedra nomi, tashkilot nomi, elektron pochta, ORCID taqdim etishlari so'raladi.

Masalan,

Shahzod Abdullayev^{1}, Ravshan Amanullayev², Zulfiya Omonova³*

1 PhD, Assistent, Islomshunoslik manbalarini o'rganish kafedrası, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston. Pochta: shahzod.abdullayev@mail.ru ORCID: 0000457896234215

2 DSc, Dotsent, Islomshunoslik manbalarini o'rganish kafedrası, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston. Pochta: amanullaev@mail.ru ORCID: 000072968457695

3 Professor, Kafedra mudiri, Islomshunoslik manbalarini o'rganish kafedrası, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston. Pochta: zulfiya@gmail.com ORCID: 0000729684576911

Qisqacha izoh (Abstract, Annotatsiya): Siz bergan qisqacha izoh o'quvchilarga maqolangizning qisqacha mazmunini berishi kerak. U sizning maqolangizning mazmunini tavsiflashi va asosiy so'zlarni o'z ichiga olishi kerak (ayniqsa, dastlabki ikkita jumla juda muhim). Izoh ma'lumotga ega, tushunarli, maqolaning umumiy maqsadi va hajmini ko'rsatuvchi, foydalanilgan metodologiya, olingan asosiy natijalar va xulosalarni bayon qiluvchi bo'lishi kerak. Unda aniqlanmagan qisqartmalar bo'lmasligi kerak va jadvallar, raqamlar, havolalar yoki tenglamalar berilmasligi kerak. Qisqacha izoh 300 so'zdan oshmasligi kerak. Agar siz 300 so'zdan ortiq bo'lsa, maqola qabul qilinmasligi mumkin va sizdan qayta yozishingizni so'rashimiz mumkin.

Kalit soʻzlar (Key words): Maqolani yuborganingizda, sizning ishingizga tegishli baʼzi kalit soʻzlarni taqdim etishingiz soʻraladi. Agar sizning maqolangiz nashrga qabul qilinsa, biz ushbu kalit soʻzlarni nashr etilgan maqolada koʻrsatib oʻtamiz va ular sizning maqolangizni indekslash uchun foydalaniladi. Kalit soʻzlarni tanlashda, tegishli maqolalarni Internetda qidirishda qanday atamalar ishlatishingizni oʻylab koʻring. Maqola uchun 3-6 ta kalit soʻz boʻlishi talab etiladi.

Kirish (Introduction): Kirish ixcham boʻlishi va tekshirilayotgan muammoning mohiyatini va uning kelib chiqishini tavsiflashi kerak. Shuningdek, u sizning ishingizni tegishli maʼlumotnomalarga asoslanib, avvalgi tadqiqotlar kontekstida belgilashi kerak. Kirish oʻquvchilarga qulay boʻlishi uchun maqolada ishlatiladigan juda ixtisoslashgan atamalar va qisqartmalar boʻyicha kengaytirilishi kerak. Bu qismda sizgacha chop etilgan ilmiy ishlar va ulardagi muammolar haqida yozishingiz kerak.

Material va Metod (Materials and Methods): Ushbu boʻlimda tajriba, simulyatsiya, statistik test yoki natijalarni olish uchun oʻtkazilgan tahlillar haqida batafsil maʼlumot berilishi kerak, bundan maqsad siz qoʻllagan metodni boshqa tadqiqotchi takrorlashi va natijalarni takroran koʻrishi mumkin boʻladi.

Natijalar (Results): Natijalar qismida sizning tadqiqotingizning asosiy natijalari batafsil bayon etilishi kerak. Bu qismda jadvallar, diagrammalar, rasmlar, gistogrammalar boʻlishi maqsadga muvofiq. Jadvallar ketma-ket raqamlangan boʻlishi va matnda raqamlar boʻyicha koʻrsatilishi kerak (1-jadval va b.). Har bir jadvalda imkon qadar ixcham sarlavha boʻlishi kerak.

Munozara (Discussion): Bu qismda natijalarning ahamiyati muhokama qilinishi va tegishli maʼlumotlar yordamida avvalgi ilmiy maqolalar natijalari bilan taqqoslanishi kerak.

Xulosa (Conclusion): Bu qismda ilmiy tadqiqot natijalari asosida olingan yakuniy xulosalar va foydalar yoziladi. Xulosa aniq boʻlishi kerak. 1, 2, 3 va h.k. raqamlanib berilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References): Ushbu boʻlim barcha tegishli ishlarni roʻyxatlash uchun ishlatilishi kerak. Maksimum 15 ta adabiyotlarni keltirish mumkin. Maqola ichida shunga mos 15 xil adabiyotdan foydalanilgan boʻlishi kerak. Barcha adabiyotlar APA stilida berilgan boʻlishi kerak.

Dissertatsiyaga beriladigan taqriz namunasi

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq ixtisosligi bo'yicha yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishiga

TAQRIZ

O'zbekistonda turli huquqiy tizimlar ta'siri ostida shakllangan vorislik huquqi instituti, xususan er-xotinning o'zaro meros olish huquqini amalda real ta'minlash borasida dissertatsiya mavzusi dolzarbhisoblanib, tadqiqotchi er-xotinning meros olish huquqini oila huquqi va vorislik huquqi kesishuvida tadqiq etishga harakat qilgan.

Biroq tadqiqot ishida yutuqlar bilan birga qator kamchiliklar ham mavjud.

I. Ilmiy ishning konseptual masalalari bilan bog'liq kamchiliklar:

1) Mavzuning nazariy-doktrinal asosi ko'rsatilmagan va tahlil qilinmagan. Er-xotinning o'zaro meros olish huquqi masalasida davlatlar qonunchiligi ikki muhim ilmiy-doktrinadan biriga tayanadi: **“Forced share”** (Qat'iy belgilangan ulush) va **“Elective share”** (Tanlov asosidagi ulush). Qat'iy belgilangan ulush (Forced share) doktrinasi – Islom huquqining *Faroiz ilmi* (faroiz – farz, ya'ni “o'lchab berish” so'zining ko'pligi) asosida VII asrda shakllana boshlanib, er-xotinning merosini aniq ulushlarda belgilagan. Unga muqobil ravishda, Tanlov asosidagi ulush (Elective share) doktrinasi – Anglo-sakson (Common law) huquqiy tizimida XVIII asrda bevaning meros huquqlari himoya qilish (*Common law protection the surviving spouse*) maqsadida vujudga kelgan. Tanlov asosidagi ulush (Elective share) konsepsiyasi ikki nazariya orqali amalga oshiriladi: Ehtiyoj nazariyasi (Needtheory) va Oilaviy sheriklik nazariyasi (Marital partnership theory). **Need theory** (Ehtiyoj nazariyasi)ga ko'ra er yoki xotin minimal ehtiyojiga yarasha meros olishga haqli bo'lib, bu orqali er yoki xotin oilaviy (birgalikdagi) mulkdagi o'z ulushini nazorat qila oladi. Mazkur nazariya asosida Oilani ta'minlab turish to'g'risida model qonuni (*Model Act on Family maintenance system*) ishlab chiqilib, ushbu model qonun asosida *Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Kanada* davlatlari qonunchiligining er-xotin merosiga oid huquq normalari shakllangan. **Marital partnership theory** (Oilaviy sheriklik nazariyasi)da oila iqtisodiy sheriklik sifatida qaralib, er-xotin nikohdan olingan iqtisodiy foydani teng ulushlarda taqsimlashini nazarda tutgan. Mazkur nazariya asosida *Illinois Proposal (Uniform Probate Code)* – Yagona meros kodeksiga Illinoys takliflari orqali AQSH qonunchiligida merosda yangi shartnomaviy konstruksiyalarga oid normalar kiritilgan. AQSH qonunchiligidagi ushbu normalar keyinchalik *G'arbiy Yevropa davlatlari* qonunchiligiga (meros shartnomasi, er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasi institutlari sifatida) kiritilgan. Boshqa ayrim davlatlarda esa yuqoridagi nazariyalarning **“kombinatsiyalashgan shakli”** amal

qiladi. Dissertatsiyada Anglo-sakson tizimidan Yevropa davlatlariga kirib kelgan meros shartnomasi, er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasi institutlarini O'zbekiston qonunchiligiga kiritish taklif qilingan bo'lsa-da, uning nazariy-doktrinal asosi o'rganilmagan.

2) Tadqiqot ishida er-xotinning meros olish huquqi instituti bo'yicha dunyoning "ilmiy xaritasi"da O'zbekistonning o'rni ko'rsatilmagan. Bu borada dunyoda 2 ta yirik doktrina (Qat'iy belgilangan ulush va Tanlov asosidagi ulush) bo'lsa, O'zbekiston qonunchiligi qaysi biri asosida qurilgan? Ya'ni O'zbekiston qonunchiligidagi er-xotinning meros olish huquqiga oid normalar aynan qaysi normalar (nazariyalar) ta'sirida shakllangan: Islom huquqining Faroiz normalari ta'siridami? Yoki tanlov asosidagi ulush konsepsiyasi ta'siridami? Yoxud bular ikkalasining aralashmasi ta'siridami? O'z navbatida, tadqiqotchi nazarda tutgan MDH model fuqarolik kodeksi (Модельный Гражданский кодекс СНГ)ning meros huquqi normalari aynan qaysi nazariya asosida shakllantirilgan? Mazkur savollarga javob bermasdan turib tadqiqot predmeti bo'yicha nazariy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq emas.

3) Ilmiy ishda dissertant O'zbekistonda er-xotinning meros olish huquqiga oid normalar konservativ va imperativ xarakterda ekanligini ta'kidlab, ularni ko'proq dispozitiv tusga o'tkazishni, ya'ni vorislikni amalga oshirishda er-xotinga muqobil tanlov huquqlarini berishni taklif qilgan. Bu bilan tadqiqotchi amaldagi qonunchilikka Anglo-sakson huquqiy tizimining (ayrim G'arbiy Yevropa davlatlari qabul qilgan) meros huquqi elementlarini kiritishni nazarda tutgan. Biroq buning huquqiy oqibatlari aniq ko'rsatilmagan, ya'ni Islom huquqining Faroiz normalari ta'sirida bo'lgan O'zbekiston qonunchiligidagi bunday o'zgarishlar aholining hayotiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy ishda aniq ko'rsatib o'tilmagan.

II. Dissertatsiya tuzilishi va mazmuni bo'yicha:

1) Tadqiqot ishi kirish qismida mavzuning dolzarbligini asoslashda O'zbekiston Respublikasi vorislik huquqida er-xotinning mol-mulki rejimini belgilovchi oila qonunchiligida meros munosabatlarini tartibga soluvchi bo'shliq mavjudligi sababli sud amaliyotida ko'plab nizolar kelib chiqayotganligi ko'rsatilgan (5-bet). Biroq dissertatsiyaning asosiy qismida sud amaliyotidan birorta ham misol keltirilmagan yoki sud amaliyoti umumlashmasi tahlil qilinmagan. Qolaversa, bu borada O'zbekistonda aynan qanday amaliy muammolar mavjudligini qisqacha bayon etib, mazkur amaliy muammolar fuqarolik huquqining aynan qanday nazariy qoidalarini o'zgartirish yoki takomillashtirishni talab etishini ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2) Kirish qismida tadqiqot vazifalaridan biri sifatida xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasini tadqiq qilgan holda, telekommunikatsiya sohasini fuqarolik-huquqiy tartibga solish asoslari vao'ziga xos xususiyatlarini ochib berish (8-bet) belgilangan. Biroq dissertatsiya matnida bu borada hech qanday ma'lumot berilmagan;

3) Kirish qismida tadqiqot predmeti sifatida yuridik ilm-fanda mavjud

bo'lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar belgilangan bo'lsa-da (8-bet), dissertatsiyada ushbu masaladagi o'rganishlar asosan rus olimlarini qarashlari bilan cheklanib, ishning konseptual asosijuda zaif va chuqur tahlil qilinmagan;

4) Kirish qismida tadqiqot usullari sifatida aniq sotsiologik (9-bet), tadqiqot natijalarining ishonchliligi huquqshunoslar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomaning anketa, intervyu va ekspert so'roviga asoslanganligi (10-bet) ko'rsatilgan bo'lsa-da, dissertatsiyaning matnida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari, ekspert xulosasi umuman keltirilmagan va ilova qilinmagan;

5) Tadqiqotning 1-bobi 1-paragrafida (8 varaqdan ko'proq hajmi) vorislik huquqining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi umumiy tarzda bayon qilingan bo'lib, bunday umumiy tavsif dissertatsiyaning yakuniy xulosa, taklif va tavsiyalariga deyarli ta'sir qilmagan. Buning o'rniga O'zbekistonda er-xotinning o'zaro meros olish huquqiga doir milliy huquq normalari shakllanishiga islom huquqi, sovet va post-sovet huquqiy tizimlarining aynan qayday ta'sir ko'rsatganligini o'rganish maqsadga muvofiq bo'lardi. Xuddi shunday, tadqiqotning 1-bobi 2-paragrafida ham vorislik huquqining umumiy masalalaridan chekinib, mavzuga oid maxsus masalalarni ko'proq tahlil qilish maqsadga muvofiq.

6) Dissertatsiyaning 2.1 paragrafi "Er-xotin mol-mulkining huquqiy tartibi va uning vorislik huquqiy munosabatlarga ta'siri" deb nomlangan bo'lsa-da, uning 8 varaqdan ko'prog'i (36-44-betlar)da nikohning umumiy masalalariga bayon qilingan. Bu borada ishning 54-betida ko'rsatilganidek, yagona ijtimoiy subyekt sifatida er-xotinning mulkiy rejimi va uning meros masalalariga ta'siri bo'yicha mualliflik pozitsiyasini shakllantirish tavsiya etiladi;

7) Tadqiqot ishining 2.3 paragrafida nikohning faktik tugatilishining er-xotin meros huquqiga ta'siri, shuningdek er-xotinning meros munosabatlarini belgilashda nikoh shartnomasini qo'llash hamda ungamuqobil ravishda er-xotining birgalikdagi vasiyatnomasini joriy etish kabi muhim masalalar yoritilgan bo'lsa-da, muallifning bu boradagi mustaqil pozitsiyasi va xulosasi aniq ko'zga ko'rinmaydi;

8) Dissertatsiyaning 3.1 paragrafida xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida O'zbekistonda er-xotinning o'zaro meros huquqi normalarini fuqarolik huquqining dispozitivlik prinsipi asosida qayta ko'rib chiqish, xususan, meros qoldiruvchining qonunda ko'rsatilgan taxminiy erk-idorasidan ko'ra aniq erk-idorasini namoyon qiluvchi meros shartnomasini qo'llash tadqiqot ishining markaziy g'oyasi sifatida belgilangan. Biroq bu borada meros shartnomasini O'zbekiston sharoitida joriy etishda meros oluvchining turli xavflardan himoyalangan bo'lishi kerakmi yoki yo'qmi, meros shartnomasini bajarilishini ta'minlash kafolati qanday bo'lishi kerak, degan masalalarga muallif o'zining aniq nuqtai nazarini bildirmagan. Shuningdek, er-xotinning birgalikdagi vasiyatnomasi institutini qonunchilikka kiritishda

Rossiya fuqarolik huquqida hech qanday to'siq bo'lmaganligi sababli O'zbekiston qonunchiligiga ham kiritilgan bo'ladi (96-97-betlar), degan muallifning xulosasiga qo'shib bo'lmaydi.

9) Dissertatsiyaning 3.2 paragrafi "O'zbekiston Respublikasida notariat, FHDYO va sud faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari" deb nomlangan bo'lsa-da, unda asosan notariat faoliyatini takomillashtirishga oid huquq normalari tahlil qilingan, tadqiqot predmeti bilan bog'liq FHDYO va sud faoliyati esa o'rganilmagan. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuniga umumiy birgalikdagi mulk ulushiga nisbatan mulk huquqi to'g'risida guvohnoma berishga oid normani Qozog'iston qonunchiligida mavjud bo'lganligi uchungina kiritish taklifi (117-118-betlar) yetarli hisoblanmaydi;

10) Tadqiqot ishining xulosa qismidagi ilmiy-nazariy taklif va xulosalarning ilmiy-konseptual asosi ko'zga ko'rinmaydi hamda nazariy-doktrinal yuki mavjud emas. Ishning xulosa qismidagi amaliy takliflar dissertatsiyaning matnida o'z asosini topmagan. Ishda berilgan amaliy takliflardan ayrimlari amalda qo'llanib kelinmoqda, masalan "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimi amalda FHDYO yagona elektron arxivi bilan integratsiya qilingan (15-taklif). Ayrim amaliy takliflarni esa amalda qo'llash imkoniyati yo'q, masalan o'zgalar yordamisiz harakatlana olmaydigan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun vasiyatnomani yozma shaklini istisno qilgan holda IT texnologiyalarini qo'llashga (16-taklif) amalda notarial harakatlarning shaxsning layoqatini tekshirishi bo'yicha xolisligi yo'l qo'ymaydi.

11) Dissertatsiya asosiy qismining matni (128 bet)ning 33 foizi (39 bet), ya'ni 3/1 qismi umumiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, ularni qisqartirgan holda umumiylikdan xususiylikka o'tish tavsiya etiladi.

12) Shuningdek, dissertatsiyaning rasmiylashtirishda ham (havolalar qo'yilmagan va to'liq ko'rsatilmagan) kamchiliklar mavjud bo'lib, havola qilingan adabiyotlarning aksariyati Rossiya adabiyotlarini tashkil qiladi.

III. Dissertatsiya ishi bo'yicha tavsiyalar:

Ushbu qismda tadqiqot ishining sifati va mazmuni yanada boyitishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar bayon etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishini yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng keyingi bosqichga tavsiya qilish mumkin.

**Taqrizchi ilmiy unvoni va darajasi
(berilgan sanasi)**

F.I.Sh.



UDC: 346.6(045)(575.1)

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIKNI TARTIBGA SOLISHGA DOIR ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Xudaybergenov Behzod Baxtiyorovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-5701-0785

e-mail: xudaybergenovbexzod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada to'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishga doir yondashuvlar o'rganilgan. Xususan, davlat tomonidan qabul qilingan prokreditor va prodebitor rejimlari tahlil qilingan, ularning o'ziga xos xususiyatlari va farqlari bayon qilingan. Shuningdek, O'zbekistonning to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchiligi qaysi rejimga taalluqli bo'lishi, ushbu qonunchilik fuqarolik muomalasining qaysi ishtirokchilari manfaatlariga xizmat qilishi haqida ilmiy xulosalar berilgan. To'lovga qobiliyatsizlik rejimlarini o'rnatishda kredit siyosatining maqsadlariga alohida e'tibor berilgan bo'lib, rejimlar zahirida ikkita maqsad – xatarlarni adolatli taqsimlash va qarzdorning aktivlari qiymatini maksimal darajada oshirish yotishi asoslantirildi. To'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solish modellari Yevropa mamlakatlari va AQSh misolida tahlil qilindi, ularning tajribasi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Ayniqsa, rehabilitatsiya normalarining AQSh qonunchiligida paydo bo'lishi va keyinchalik Yevropa davlatlarida ushbu normalardan namuna sifatida foydalanilganligi, hozirda ko'plab davlatlar qarzdorni rehabilitatsiya qilish maqsadida qonunchiligini takomillashtirayotganligi aniqlandi. Shuningdek, O'zbekistonda to'lovga qobiliyatsizlik huquqi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati va unda aks etishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar haqida tahliliy fikrlar, xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: "cram down" prinsipi, prokreditor, prodebitor, to'lovga qobiliyatsizlik, qarzdor, rehabilitatsiya, bankrot.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РЕГУЛИРОВАНИЯ НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ

Худайбергенов Бехзод Бахтиёрович,

доктор философии по юридическим
наукам (PhD), докторант

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье исследуются подходы к правовому регулированию неплатежеспособности. В частности, анализируются принятые государством прокредиторский и продебиторский режимы, описываются их особенности и отличия. Также приводятся научные выводы о режиме, на который распространяется законодательство Узбекистана о неплатежеспособности, и какое законодательство служит интересам участников гражданского оборота. Особое внимание было уделено целям кредитной политики при установлении режимов неплатежеспособности исходя из двух целей: справедливого распределения рисков и максимизации стоимости активов должника. Проанализированы модели регулирования неплатежеспособности на примере стран Европы и США, их опыт сопоставлен с практикой Узбекистана. В частности, установлено, что реабилитационные нормы появились в законодательстве США и впоследствии использовались в качестве образца в европейских странах, а законодательство многих стран в настоящее время совершенствуется

в направлении реабилитации должника. Также были разработаны аналитические заключения, выводы и рекомендации о необходимости разработки концепции неплатежеспособности в Узбекистане и приоритетах, которые должны быть в ней отражены.

Ключевые слова: принцип “cram down”, прокредитор, продебитор, неплатежеспособность, дебитор, реабилитация, банкрот.

CONTEMPORARY TRENDS IN INSOLVENCY REGULATION

Hudaybergenov Bekhzod Bakhtiyorovich,

Doctoral Student of Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. This article examines approaches to the legal regulation of insolvency. In particular, the procreditor and prodebtor regimes adopted by the state are analyzed, and their features and differences are described. There are scientific conclusions about the regime of insolvency based on the legislation of Uzbekistan, and the type of legislation that serves the interests of participants in civil attitudes. Particular attention has been paid to the objectives of the credit policy when establishing insolvency regimes, based on two goals – fair distribution of risks and maximizing the value of the debtor's assets. The models of insolvency regulation are analyzed from the example of the countries of Europe and the USA, their experience is compared with the practice of Uzbekistan. In particular, it has been established that rehabilitation norms appeared in US legislation and were subsequently used as a model in European countries, and the legislation of many countries is currently improving its legislation on the rehabilitation of the debtor. Analytical conclusions, ideas, and recommendations have also been developed on the need to improve the concept of insolvency in Uzbekistan and the priorities that should be reflected in it.

Keywords: the principle of “cram down”, procreditor, prodebtor, insolvency, debtor, rehabilitation, bankrupt.

Kirish

Erkin iqtisodiy munosabatlar va raqobat muhiti sharoitida tadbirkorlik subyektlari o'z majburiyatlarini odatiy tartibda bajarish qobiliyatini yo'qotishi mumkin. Pul majburiyatlari yoki majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarni to'lash to'xtaganda, qarzdorlar to'lovga qobiliyatsizga aylanganda, ular va kreditorlar tegishli huquqiy munosabatlar ishtirokchilari manfaatlarining oqilona muvozanatini ta'minlashga xizmat qiladigan to'lovga qobiliyatsizlik huquqi doirasiga tushadilar. To'lovga qobiliyatsizlik taomillari ozchilik kreditorlarning ko'pchilik tomonidan bo'ysundirishni o'z ichiga olmasligi, faqat ommaviy-huquqiy xarakterga ega bo'lib qolmasligi lozim. Bunday sharoit yuzaga kelsa, kreditorlar yakdil fikrga kelishi imkonsiz bo'lib qoladi. Bankrotlik to'g'risidagi ishda qatnashuvchi shaxslarning huquqiy holati turlicha bo'lishi, manfaatlar qarama-qar-

shiligi bois qonun chiqaruvchi ishtirokchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari muvozanatini kafolatlashi kerak.

Bankrotlik to'g'risidagi ishda turli nizoli munosabatlar vujudga kelishi mumkin: kreditor – kreditor, ta'minlanmagan kreditorlar – ta'minlangan kreditorlar, kreditorlar – qarzdorning xodimlari, kreditorlar – jamiyat, kreditorlar – qarzdor. To'lovga qobiliyatsizlik huquqining tabiati kreditorlar va qarzdor o'rtasidagi munosabatlar hamda ular o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvida namoyon bo'ladi. Agar kreditorlar va qarzdorning manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash lozim bo'lsa, ushbu zarurat aniq va tushunarli bo'lsa, bu balans nimada yoki qayerda bo'lishi kerakligi haqidagi savol munozarali bo'lib qolmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror ishlashi va rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish yoki qarzdorning manfaatlari-

ni hisobga olishga qaratilgan qanday tartib afzalroq, degan savolga yakuniy javob berilmaganligi mavzuning nihoyatda *dolzarbligini* ko'rsatadi.

Prokreditor va prodebitor tizimlar

Dunyo tajribasida to'lovga qobiliyatsizlik tizimlarini tasniflashda qarzdorni qo'llab-quvvatlovchi (prodebitor), kreditorni qo'llab-quvvatlovchi (prokreditor) yoki neytral *yondashuvlar* mavjud. Mansublik to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi milliy qonunchilik qoidalari yoki uni qo'llash natijalariga qarab belgilanadi. Ayrim ekspertlar prodebitor yoki prokreditor huquqiy tizimlarga mansublikni qarzdorning boshqaruv organlari bankrotlik to'g'risidagi ishda o'z vakolatlari saqlab qolishi yoki qolmasligi, kreditorlar bilan muzokara olib borish imkon mavjudligi yoki mavjud emasligiga qarab belgilaydi. Ba'zilar qarzdorning boshqaruv organlari chetlashtirilishi va qarzdor boshqaruvchilari almashtirilishidan qat'i nazar, qarzdorning biznesi saqlab qolinishi yoki qolinmasligi, ish o'rinlarini saqlashga imkon beradigan mexanizmlarning mavjudligiga qarab baholaydi. Boshqalar esa ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditorlarning manfaatlari muvozanatiga qarab tasniflaydi. Ushbu tizimda ta'minlangan kreditorlar prokreditor rejimining asosiy benefitsiarlari sifatida qaraladi va tugatish taomillari qisqa muddatlarda amalga oshiriladi. O'z navbatida, ta'minlanmagan kreditorlar ham qarzdorning aktivlari, shu jumladan, garov predmeti bo'lmagan aktivlar qiymatini oshirishga imkon beradigan sanatsiya taomilidan ko'proq foyda ko'rishlari mumkin.

Material va metodlar

Tadqiqotning asosiy mazmuni to'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishga doir yondashuvlar, rejimlar va ularning O'zbekiston huquq tizimi uchun maqbulligini aniqlashdan iborat. AQSh qonunchiligi qiyin moliyaviy vaziyatdagi qarzdorning manfaatlarini himoya qilishga ko'proq e'tibor beradi hamda Buyuk Britaniya va aksariyat Yevropa

mamlakatlari qonunchiligi, aksincha, kreditor manfaatlarini ifodalaydi [1, 66-67-b.]. Rossiya va boshqa ittifoqdosh respublikalarning to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchiligi haqida gapirganda, ba'zi ekspertlar "*oltin o'rta*"da deb bilishadi. Chunki taomillardan qaysi biri – sanatsiya yoki tugatishni tanlash qarzdorga nisbatan kuzatuv taomil natijalariga qarab hal qilinadi. Ushbu taomil davomida qarzdorning moliyaviy holati va uning to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyati baholanadi [2, 14-18-b.]. Boshqalar Rossiya qonunchiligini biron-bir toifaga to'liq kiritish mumkin emasligi, aksariyat normalar hali ham tadbirkorlik subyekti faoliyatini tugatish emas, balki uning to'lov qobiliyatini tiklash va saqlab qolishga qaratilganini ta'kidlaydi [3, 4-8-b.].

Mavzuning batafsil mazmunini ochib berishga xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, xorijiy davlatlarda bankrotlik ko'rsatkichlari va milliy sud hujjatlari imkon beradi. Jahon banki tomonidan e'lon qilinadigan "Doing Business-2020" hisobotida "To'lovga qobiliyatsizlikni hal qilish" indikatori bo'yicha O'zbekiston 100-o'rinida qayd etilgan va ushbu indikatorlar ham milliy rejimning prokreditor yoki prodebitorligi mansubligini belgilay olmaydi. Getting the Deal Through nashri tomonidan har yili to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchiligi nisbatan samarali bo'lgan davlatlar, ularda amal qilayotgan qarzdorning bankrotligi va reabilitatsiyasi haqidagi asosiy qoidalar e'lon qilib boriladi. Unda 84 ta davlat qonunchiligi tahlil qilingan bo'lib, O'zbekistonning ko'rsatkichlari kiritilmasdan kelmoqda [4].

Qo'llanilgan metodlar sifatida qiyosiy, induksiya va deduksiya metodlarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, to'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishga doir normativ hujjatlar o'zaro taqqoslanadi, milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi normalari solishtiriladi. Har bir to'lovga qobiliyatsizlik rejimi alohida tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy xulosalar va takliflar to'lovga qobiliyatsizlik sohasida yuridik fan, yuridik ta'lim, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich sifatida statistik ma'lumotlar olindi. Ushbu ma'lumotlar O'zbekistonda qarzdorlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha sezilarli siljishlar bo'lmaganini ko'rsatadi. 2021-yil davomida qo'zg'atilgan jami 9 994 ta ishning 87 tasida ish yuritish tugatilgan. Shulardan 5 ta ishda kelishuv bitimi tuzilgan, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari oxirgi o'n yildan beri yiliga 3 yoki 4 ta ishda qo'llanib kelinmoqda (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan olingan ma'lumot). Aksariyat hollarda boshlangan bankrotlik ishi qarzdorni tugatish bilan yakunlanmoqda. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarning barchasi potensial to'lovga qobiliyatsiz qarzdorlarga qo'llanilgan, deb bo'lmaydi. Bunday taxmin qilingan taqdirda ham, nima uchun barcha uchun foydali bo'lgan reabilitatsiya mexanizmlaridan yetarli darajada qo'llanilmayotganiga hayron bo'lish tabiiy.

AQShda ko'rilgan bankrotlik ishlari bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 2021-yil davomida biznes bilan bog'liq ochilgan ishlar soni 413 616 tani tashkil etsa, biznes bilan bog'liq bo'lmagan 399 269 ta ish qo'zg'atilgan. O'zbekistonda faqat biznes bilan bog'liq bankrotlik ishi ko'riladi. Demak, 413 616 ta ishdan 4 836 tasida AQSh Bankrotlik kodeksining 11-bobi (Title 11), ya'ni reabilitatsiya taomillari joriy qilingan, bu jami ishning taxminan 10 %ni tashkil qilmoqda [5]. Ko'rib turganimizdek, statistik ma'lumotlardagi farqlar sezilarli darajada.

Olib borilgan ilmiy izlanishning *samaradorligi va haqqoniyligi tahlili* amaldagi O'zbekiston Respublikasi "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik huquqi uchun muhim burilish bo'lishiga xizmat qilgan Taraqqiyot Strategiyasiga tayangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

To'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solishga doir islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar bilan chambarchas bog'liq.

Sir emaski, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi O'zbekistonning ko'plab normalari Rossiya qonunchiligi normalari bilan o'xshashdir. Shuning uchun Rossiya olimlarining fikrlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Shunday fikr mavjudki, kreditorlar va qarzdorlar manfaatlarini muvozanatini tartibga solish nuqtai nazaridan Rossiya qonunchiligi va sud amaliyotining rivojlanish tendensiyasini o'rtacha prokreditor yondashuv deb atash mumkin. Ya'ni qarzdorlar o'z majburiyatlarini bajara olmaganda, kreditorlarning manfaatlarini ko'proq darajada himoya qilinadi [6, 168-b.]. Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik huquqining Rossiya tanlovi qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan normalar mavjudligiga qaramay, kreditorlar manfaatlarini maksimal himoya qilinadi [7, 35-36-b.]. Binobarin, bankrotlik ishida kreditorlar o'zlariga tegishli qarzni to'lash muammolarini hal qiladi [8, 48-52-b.].

Agar G'arb ekspertlarining fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, unda Fitchratings (Fitch Ratings) agentligi tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, Rossiyaning to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchiligi yetarlicha kreditorlarni qo'llab-quvvatlovchi deya baholangan [9]. Mavjud huquqiy rejimlarni 4 ta asosiy toifaga (A–D guruhlarini) bo'lish orqali Fitchratings aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan, Rossiyani D toifasiga kiritadi. Shu bilan birga, kreditorlarning talablarini taqdim etishda murakkablik va majburiyatlar bajarilishini ta'minlashda to'siqlar

mavjudligi ham aytiladi. Bu holatlar garov bilan ta'minlangan kreditorlar huquqlari kafoflatlanmaganida, sud ish yurituvini boshlashning kechikishida, sud tomonidan asosli qarorlar qabul qilinmasligi bilan ifodalangan.

Milliy manfaatlar nuqtai nazaridan qaysi biri – prokreditor yoki prodebitor yondashuv samarali ekanligi haqidagi konseptual masala mutaxassislar o'rtasida ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Biroq M.V. Telyukina tomonidan bildirilgan fikr alohida diqqatga sazovor. Ya'ni umumiy iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan rivojlanayotgan mamlakatlarda prokreditor tizimi qarzdorlar manfaatlarini himoya qiladigan tizimga qaraganda ancha samaralidir [10, 348-b.]. Demak, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'lovga qobiliyatsizlik huquqiy tizimlarida kreditorlar manfaatlarini ko'proq himoya qilishi maqsadga muvofiq.

Vaqtinchalik qiyinchiliklarga duchor bo'lgan qarzdorlarni saqlab qolish kerak, albatta. Lekin to'lovni amalga oshira oladigan potensial qarzdorlar mavjud, ular har qanday bosqichda qarzni qoplashi mumkin. Ushbu holat esa to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik yo'nalishi faqat kreditor foydasiga ishlab chiqilgan deyishga to'sqinlik qiladi [11, 56-59-b.].

Boshqa bir fikrga ko'ra, agar yetarli reabilitatsiya va tugatish taomillari qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lsa, milliy huquqiy tizimning prodebitor yoki prokreditor sifatida qabul qilinishi investorlar uchun ahamiyatga ega emas. Muhimi, milliy huquqiy tizimning ishlashini ta'minlaydigan infratuzilmaning samarador bo'lishi. To'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq yuzaga keladigan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinsa, ushbu infratuzilmaning sifatli bo'lishi nafaqat sudyalarning va sud boshqaruvchilarning, kreditorlar va vijdonli qarzdor, balki ularning tijorat va moliyaviy operatsiyalardagi yuqori tayyorgarligiga ham bog'liq.

Prodebitor va prokreditor yondashuvlar raqobatini hisobga olgan holda, shuni ta'kid-

lash kerakki, birinchi yondashuv qarzdorning moliyaviy qiyinchiliklariga aralashmaslik, uning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi, reabilitatsiya choralari qarzdorning boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Prokreditor modelida qarzdorning boshqarish organlari yuridik shaxsni kerakli darajada boshqara olmagan va uning to'lovga qobiliyatsizligini vujudga keltirgan, deb taxmin qilinadi. Natijada kreditorlarning manfaatlarini birinchi o'ringa chiqadi, ular qarzdorning kelajakdagi taqdirini hal qiladi. Kreditorlar, shubhasiz, o'z manfaatlarini yo'lida harakat qiladi, iloji boricha tezroq va to'liq o'z talablarini qondirishga intiladi. Odatda, qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash ehtimoli bor bo'lsa ham, kreditorlar qarzdorning mol-mulkini bevosita sotishni afzal deb bilishadi.

Shunisi aniqki, yuqoridagi yondashuvlarning na birinchisi, na ikkinchisi prezumpsiya bo'la oladi. Bankrotlik to'g'risidagi ishda qo'llaniladigan taomillar davrida kreditorlar va qarzdor manfaatlarini balansini tahlil qilishda bunday stereotiplardan qochish kerak. Qarzdorlarning barchasi ham kreditorlardan ma'lumotlarni yashirmaydi va ularning manfaatlarini buzmaydi va, o'z navbatida, kreditorlar har doim insofsiz bo'lmaydi va imkon qadar o'z talablari qanoatlantirilishidan umidvor bo'ladi. Albatta, qarzdorlar o'zlari-ning boshqaruv organlari tomonidan noto'g'ri qarorlar qabul qilishi sababli kreditorlarning talablarini qondira olmagan bo'lishi mumkin. Aksincha, qarzdorning to'lovga qobiliyatsizligi qarzdor uning boshqaruv organlari nazorati ostida bo'lmaganligi oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin.

Maqsadlarning milliy to'lovga qobiliyatsizlik rejimlariga ta'siri

To'lovga qobiliyatsizlik huquqining rejimlari mamlakatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ammo to'lovga qobiliyatsizlik huquqining ikkita asosiy maqsadi o'zgarmaydi. Bu maqsadlar qoida tariqasida aksariyat huquqiy tizimlarda qo'llaniladi [12].

A.V. Lyubanenکو, A.A. Chukreevlar ham to'lovga qobiliyatsizlik rejimlarini ishlab chiqishda ushbu ikki maqsadga tayanish lozimligini ta'kidlashadi [13, 106-115-b.].

Birinchى maqsad – bozor munosabatlari ishtirokchilari o'rtasida xavflarni oldindan, adolatli va shaffof tarzda taqsimlashdir. Ushbu maqsadga erishishda bozor ishtirokchilarining kredit tizimiga bo'lgan ishonchini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish muhim rol o'ynaydi. Masalan, kreditor-qarzdor munosabatlari nuqtai nazaridan kreditorning qarzdorga nisbatan bankrotlik to'g'risidagi ishni hech qanday cheklovlersiz qo'zg'atishi kreditor talablarini ta'minlash vositasi sifatida kreditlash xavfini kamaytiradi va shu bilan kreditlar maqbulligi oshadi, manfaatdor shaxslar tomonidan umumiy investitsiya qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari ham har xil kreditorlar o'rtasida xavflarni adolatli taqsimlashni nazarda tutishi kerak, bu esa qarz oluvchilarning ayrim toifalari manfaatlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Ta'minlanmagan kreditorlarga qaraganda ta'minlangan kreditorlarning manfaatlari ustun qo'yilishi nafaqat ta'minlangan kreditorlarning o'zlari, balki ma'lum kredit xatarlari tufayli ta'minlanmagan kreditlarga umid bog'lay olmaydigan potensial qarz oluvchilar uchun ham foydalidir. Ta'minlangan kreditlarning manfaatlari yuqori darajada himoya qilinganligi tegishli kreditlarning narxini ham pasaytiradi.

Huquqiy tizimlarda tadbirkorlik faoliyati subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy risklar turlicha taqsimlanishi mumkin. Qanday bo'lsin, tavakkalchilikni taqsimlashning tegishli qoidalarى qonunda aniq belgilangan bo'lishi kerak, davlat barcha bozor ishtirokchilari tomonidan bunday qoidalarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlashi shart. Keyin manfaatlar muvozanatini tartibga solishning qonunchilik modeli va uning bankrotlik to'g'risidagi ish ishtirokchilarining ma'lum bir toifasi foydasiga siljishi-

dan qat'i nazar, agar qoidalar barqaror va ularni qo'llash natijalari yetarlicha bashorat qilinadigan bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlar, shu jumladan, narx siyosati ham boshqarilishi lozim. Bunday barqarorlik va bashorat qilishning yetishmasligi bozor ishtirokchilarining kredit va investitsiya qarorlarini qabul qilishga to'sqinlik qiladi.

To'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga adolatli munosabatda bo'lish haqida gapirganda, o'ziga xos xususiyat sifatida ularning jamoaviy tabiati ekanligini hisobga olish kerak. Balki, adolatli munosabatda bo'lish ishtirokchilarning tengligini anglatmaydi. Ammo shunisi aniqki, bankrotlik to'g'risidagi ish ishtirokchilarining turli xil iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda, qonun ularning har biriga tabaqalashtirilgan yondashuvni nazarda tutishi mumkin. To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlari firibgarlik muammosini samarali hal qilishi va shaxslarga qonunda nazarda tutilmagan imtiyozlarni taqdim etishi kerak. Bundan tashqari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, kreditlash va investitsiya masalalarida qonun to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq munosabatlarning xorijiy ishtirokchilariga nisbatan kamsitilmasligini kafolatlashi kerak. Bankrotlik to'g'risidagi ish bo'yicha jamoaviy ish yuritish mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi belgilangan tartibda va adolatli hal qilinishiga ishonch hosil qilish maqsadga muvofiq.

To'lovga qobiliyatsizlik munosabatlarini tartibga solish jarayonlarini bashorat qilish va uning adolatligi bunday jarayonlarning shaffofligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Manfaatdor shaxslar o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun yetarli axborotga ega bo'lishlari zarur. Kreditorlar qarzdorning moliyaviy ahvoli, uning qarorlari va bankrotlik to'g'risidagi ish paytida qabul qilingan harakatlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lib borishi lozim.

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikning *ikkinchi maqsadi* – qarz-dorning aktivlari qiymatini barcha manfaat-dor tomonlar va umuman iqtisodiy manfaatlar uchun himoya qilish hamda uning himoyasini maksimal darajada oshirishni ta'minlashdir. Ushbu maqsadga nafaqat qo'llaniladigan reabilitatsiya taomillari, balki tugatish taomili ham taalluqlidir. Qarzdorning aktivlari qiymatini maksimal darajada oshirishga qaratilgan vositalar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilishidan oldin tuzilgan qarzdorning ayrim shartnomalarini haqiqiy emas deb topish qarzdorning aktivlari qiymatini oshirishga imkon beradi va kreditorlarining talablarini yanada to'liq va adolatli qondirish uchun sharoit yaratadi. Shu bilan birga, agar bunday himoya keragidan ortiq bo'lsa, masalan, qarzdorning bitimlarini haqiqiy emas deb topish boshqa tadbirkorlik subyektlari faoliyatini jiddiy yomonlashtirsa. Shunga o'xshash misol sud boshqaruvchilari faoliyatida ham bo'lishi mumkin: bir tomondan, uning vakolatlari kengligi, masalan, qarzdorning qarzdor shartnomalari bo'yicha nizolashish qarzdorning aktivlari qiymatini maksimalashtirishning muhim vositasi hisoblanadi, boshqa tomondan sud boshqaruvchisining vakolatlardan to'g'ri foydalanmasligi shartnoma munosabatlariga putur yetkazadi. Umuman olganda, ishtirokchilar vakolatida balansni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarzdorga qo'llaniladigan reabilitatsiya taomillari uni himoya qilishni ta'minlash va qarzdor aktivlari qiymatini oshirishning asosiy vositasi sifatida qayd etilishi kerak. Ushbu taomillarni tartibga solish to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq bo'lgan asosiy manfaatlar to'qnashuvi – kreditorlar va qarzdorning manfaatlari to'qnashuvini hal qilish uchun juda muhimdir.

Ikkita maqsadga erishishda – xatarlarni adolatli taqsimlash va qarzdorning aktivlari qiymatini maksimal darajada oshirishda aniq

chegarani belgilab bo'lmaydi. Shuningdek, to'lovga qobiliyatsizlik huquqi arxitekturasini shakllantirishda qonun chiqaruvchining ma'lum bir tartibga solish maqsadining ustuvorligi va bankrotlik ishi ishtirokchilari manfaatlarining oqilona muvozanati to'g'risidagi qarorlari turli xil bo'ladi, ba'zan qarama-qarshi motivlar bilan ham belgilanishi mumkin.

Xatarlarni taqsimlash va bankrotlik to'g'risidagi ishdagi turli ishtirokchilarning manfaatlarini muvozanatlashning ma'lum mexanizmini tanlash to'g'risida qaror qabul qilishda stereotiplardan qochish kerak, chunki barcha qarzdorlar insofsiz yoki malakasiz bo'lmaydi, barcha kreditorlar ham vijdotsiz emas va ularning hammasi biznesni tortib olish yoki qarzdorni tugatishga harakat qilmaydi.

Bankrotlik to'g'risidagi ishda qo'llaniladigan reabilitatsiya yo'nalishini kuchaytirish va taomillar paytida qarzdorning aktivlari qiymatini maksimal darajada oshirish nafaqat qarzdor mulkdori, balki kreditorlarning ham manfaatlarini himoya qilish deb hisoblanishi mumkin, buning oqibatida katta hajmdagi talablar qondirilishi mumkin.

Shunday qilib, ba'zi huquqiy tizimlarda kreditorlarning talablari "baho"sini oshirish uchun reabilitatsiya taomillaridan foydalaniladi, deb ko'rsatilsa, boshqa huquqiy tizimlarda qarzdor va uning mulkdorlariga ikkinchi imkoniyat berish reabilitatsiya sifatida e'tirof etiladi. Boshqalarida esa reabilitatsiya mexanizmlaridan foydalanishning asosiy maqsadi qarzdor xodimlarining huquqlarini hisobga olish va ularning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdir. Ba'zi hollarda davlat o'z maqsadlariga erishish uchun to'lovga qobiliyatsizlik huquqi vositalari bilan cheklanmasligi, bankrotlik ishining borishiga alohida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Strategik nuqtai nazardan, davlat iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashda mahsulotlarni uzluksiz ishlab chiqarish talab etiladi. Muayyan tashkilot xodimlarining manfaatlari yoki milliy manfaatlarni himoya qilish uchun davlat bozor munosabatlariga qo'shilishi va (yoki)

qarzdorni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Mol-mulki davlatga tegishli bo'lgan tashkilotlarga to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini qo'llash bozorda bunday tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat natijalari uchun cheklangan javobgarlik to'g'risidagi qoidalarni kiritishga turtki bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik davlat korxonalarining moliyaviy muammolarini bozor tamoyillari asosida hal qilishni rag'batlantiradi va shu bilan bunday tashkilotlar bankrotligining oldini olish uchun mumkin bo'lgan xarajatlarni kamaytiradi.

Umuman olganda, milliy iqtisodiyotning samarali ishlashini ta'minlash maqsadida to'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishni faqat prokreditor yoki prodebitorlikdan kelib chiqib baholashni oqlab bo'lmaydi hamda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilikning rivojlantirish tarixi va istiqbollari borasidagi xorijiy olimlarning tadqiqotlari qiziqish uyg'otadi va ular masalaning mohiyatini anglashga yordam beradi.

Yevropa va AQShda yo'nalish nuqtalari

F. Vud fikriga ko'ra, to'lovga qobiliyatsizlik huquqining rivojlanish tarixi "qarzdorni qatag'on qilishdan – qarzdorni himoya qilishgacha" bo'lgan harakat sifatida ta'riflanadi [14, 1064-b.]. B. Mann to'lovga qobiliyatsizlik huquqi rivojlangani sari "jinoyatdan tavakkalchilikka, ma'naviy tazyiqdan iqtisodiy mag'lubiyat"ga qarab qayta ko'rilishi va qayta ishlanib borilishi kerak deb hisoblaydi [15, 358-b.].

P.D. Martino tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, XIX-XX asrlardagi iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy yutuqlar va umumiy institutsional o'zgarishlar to'lovga qobiliyatsizlik huquqiy tizimlarining tuzilishi va ishlash mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. G'arb mamlakatlarida sanoatlashtirish, kompaniyalarga egalik qilish va nazorat qilishning rivojlanishi qarzgga nisbatan shakllangan munosabatning o'zga-

rishiga sabab bo'ldi. Sanoat rivojigacha bo'lgan iqtisodiyot va nisbatan rivojlanmagan kredit bozorlari bilan shug'ullanishga odatlangan oldingi to'lovga qobiliyatsizlik huquqi bunday tez o'zgaruvchan muhitda samarali bo'lmay qoldi. Shunga bog'liq ravishda, XIX asrning o'rtalaridan boshlab (biroz oldinroq – Buyuk Britaniyada) to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi qayta ko'rib chiqildi va o'zgartirildi. G'arbning turli mamlakatlarida to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligini o'zgartirishga olib kelgan sabablarning o'xshashligiga qaramay, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va AQShda turli xil to'lovga qobiliyatsizlik rejimlari ishlab chiqildi. Qarzdor va kreditorlarning manfaatlari muvozanatini tartibga solish hamda ushbu rejimlarda qarzdorning tugatilishi yoki sanatsiya qilinishini ta'minlash tendensiyasi turlicha bo'ldi [16, 23-43-b.].

Yevropa huquqi instituti tomonidan o'tkazilgan konferensiyada (2014-yil sentabr, Xorvatiya, Zagreb [17]) to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik bilan biznesni qutqarish masalalari muhokama qilindi, o'tgan asrning so'nggi ikki o'n yilligigacha ko'plab Yevropa davlatlarida moliyaviy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan kompaniyalar biznesini tugatish muammoni hal qilishning yagona yo'li ekanligi ta'kidlandi. Bankrotlik to'g'risidagi ishda qo'llaniladigan tugatishga doir ish yuritish taomili davrida ham biznesni qutqarish mumkin bo'lsa-da, ushbu taomilda tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati, asosan, tugatiladi va aktivlar qismlarga bo'lib sotiladi. Olingan daromad kreditorlar o'rtasida belgilangan tartibda taqsimlanadi. Konferensiyada yana shu narsaga urg'u berildiki, korxonalarining to'lovga qobiliyatsizligi masalalarini hal qilishda bunday bir tomonlama yondashuv Yevropa Ittifoqidagi to'lovga qobiliyatsizlik masalalarini tartibga solishga doir hujjatlarda hanuzgacha mavjud. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda (uning tarkibidagi davlatlarda) ikkita bankrotlik ishini ochish mumkinligi nazarda tutil-

gan va ochilgan ikkita ishda ham tugatish taomillari qo'llanilaveradi.

2005-yilda ilmiy hamjamiyat vakillari, xususan, N. Martinning yozishicha, AQShda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonunchilik bilan taqqoslaganda, ko'plab Yevropa mamlakatlari qonunchiligi qarzdorlarni reabilitatsiya qilishdan ko'ra ko'proq "jazolash"ga qaratilgan [18, 3-77-b.].

XXI asrning boshiga kelib, ko'plab Yevropa mamlakatlari uchun mavjud bo'lgan to'lovga qobiliyatsizlikning huquqiy asoslari yangi chaqiriqlarga javob bermasligi aniq bo'ldi: tugatish natijasida ta'minlanadigan natijalardan kompaniya biznesini qayta tashkil qilish orqali erishiladigan yutuqlar samarali va foydali ekanligi aniq bo'ldi [19, 4-8-b.].

Yevropaning turli yurisdiksiyalari to'lovga qobiliyatsizlik masalalarini tartibga solishda hali ham turli xil yondashuvlarga ega bo'lishiga qaramay, qarzdorlarga nisbatan reabilitatsiya taomillariga tugatishning muqobil usuli sifatida qarash tendensiyasi mavjud. Ko'p hollarda davlatlar qonunchiligidagi o'zgarishlarning modeli sifatida AQSh Bankrotlik kodeksining 11-bobi (Title 11) olinadi [20, 38-b.].

K. Brijning ta'kidlashicha, to'lovga qobiliyatsizlik huquqini rivojlantirishning dastlabki bosqichlariga qarzdorlarni "davolash" xos bo'lmagan va taomillar faqat kreditor manfaatlari uchun amalga oshirilgan. Qarzdor tomonidan boshlanadigan ixtiyoriy bankrotlik ishi konsepsiyasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. To'lovga qobiliyatsizlikni tartibga solishga doir yondashuvlarning o'zgarishi AQShda boshlandi va u yerda qarzdorlarni qutqarishning yangi "biznes madaniyati" shakllandi. Ba'zan ushbu madaniyat ildizlarini AQShning dastlabki tarixiy ildizlari, ayniqsa, ushbu mamlakatga hayotini yangidan boshlash uchun, kelajakka ishonch bilan va mamlakat iqtisodiyotining kelajagiga optimistik nuqtai nazar bilan kelgan muhojirlarga bog'lashadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida tijorat tash-

kilotlarining bankrotligiga munosabat keskin o'zgardi. Keyin ko'plab Amerika temir yo'l kompaniyalari bankrotlikka yuz tutayotgan edi. AQSh iqtisodiyotini rivojlantirishda temir yo'l sanoatining strategik ahamiyatini hisobga olib, sanoatdagi bunday vaziyatning salbiy ta'sirini yumshatish yo'llarini izlashga to'g'ri keldi. Tegishli qarorlar dastlab sud hokimiyati tomonidan shakllantirilib, unda kompaniyani qayta tashkil etish, uning aktivlarini himoya qilish va kreditorlar bilan kelishuvga erishish imkoniyatiga qaratilgan umumiy vositalar ishlab chiqildi. Davlat tadbirkorlik xatarlarining ta'sirini hisobga olgan holda, iqtisodiy rivojlanishning zarur elementi sifatida yangi to'lovga qobiliyatsizlik huquqini ishlab chiqdi va bu moliyaviy muvaffaqiyatsizliklar masalalarini hal qilishda liberal yondashuv to'g'ri deya baholandi [21, 30-41-b.].

Hozirgi vaqtda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi AQSh qonunchiligi qarzdorning himoyasini ta'minlash bo'yicha yetakchi huquqiy tizimlardan biri hisoblanadi. Qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlarini saqlashni ta'minlaydigan moliyaviy tiklanishni tartibga solishning qonunchilik modeli qarzdorning o'z ishlarini mustaqil ravishda boshqarishni davom ettirish va to'lov qobiliyati tiklanishiga ishonishni nazarda tutadigan yangi doktrina sifatida dunyo yuzini ko'rdi. Ushbu doktrina keyinchalik Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va bu yerda iqtisodiy jarayonlarni mustahkamlash hamda faollashtirishga xizmat qildi.

Reabilitatsiya – rivojlanish vektori

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi O'zbekiston qonunchiligini ishlab chiqish o'z traektoriyasiga ega bo'lgan. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida korxonalarning to'lovga qobiliyatsizligini bartaraf etish choralari shaxsiy (personal) bankrotlik tizimi, ya'ni jismoniy shaxslarga qo'llanilgan metodlar va normalarga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Sinovdan o'tgan taomillar, ularning asosiy chora-tadbirlari asta-sekinlik bilan korxonalarga singdirilgan. Shubhasiz, bu jara-

yon bir nechta bosqichlarda amalga oshirilgan, ko'p vaqtni talab qilgan. O'zbekiston esa mulkiy munosabatlar cheklangan tuzumdan xalos bo'lgach, boshqa ittifoqdosh respublikalar kabi xorijiy huquqiy tizimlardagi korxonalar to'lovga qobiliyatsizligini hal qilishga doir mexanizmlarni qisqa muddatlarda o'zlashtirishiga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, Rossiya-da qabul qilingan qonunlar O'zbekistonning bankrotlik to'g'risidagi qonunlari ishlab chiqilishida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston qonunchiligida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunida ko'plab o'zgarishlar ro'y bergan bo'lsa-da, ushbu o'zgarishlar qaysidir umumiy g'oyaga bo'ysunadi, qo'shimchalar ma'lum bir vektorni ko'rsatadi, deyish qiyin. Tuzatishlar huquqni muhofaza qilish amaliyotida yuzaga keladigan ayrim muammolarni hal qilish yoki kreditorlarning muayyan guruhlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan edi, xolos. Bankrotlik to'g'risidagi qonunga kiritilgan o'zgartirishlar unga tobora prokreditlik xarakterini berdi.

Reabilitatsiya taomillarining joriy qilinmayotgani va samarali foydalanilmayotganining asosiy sabablari quyidagilar:

- inqirozning dastlabki bosqichlarida muammolarni aniqlash va reabilitatsiya jarayonlarini boshlash uchun qarzdorga turtki beradigan samarali rag'batlantirish mexanizmlari yetarli emas;

- bankrotlik arafasida yoki bankrotlik ishida amalga oshirilgan huquqqa zid harakatlar uchun javobgarlik choralari samara bermayapti, xususan, qarzdorning aktivlari qaytarib bo'lmaydigan qilib begonalashtirilmoqda yoki uchinchi shaxslar orqali o'zlashtirilmoqda. To'lovga qobiliyatsizlik vujudga kelishida va korxona bankrot bo'lishida aybi bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish, bitimlarning haqiqiy emasligi bilan bog'liq normalar huquqqa zid harakatlarning oldini olish va ta'sir chorasini lozim darajada qo'llashga xizmat qilmayapti;

- sud boshqaruvchilarining huquqiy maqomi, ularning himoyasi va imtiyozlari, shuningdek, yo'l qo'yilgan suiiste'molliklari uchun javobgarligi qonun bilan to'liq tartibga solinmaganligi sud boshqaruvchilarining o'z faoliyatini kerakli darajada bajarishga to'sqinlik qilmoqda;

- reabilitatsiya normalarining mazmun-mohiyati, ularning afzalligi, maqbulligi va samaradorligi borasida tushuncha va tasavvurlar to'liq shakllanmaganligi sababli kreditorlarning reabilitatsiya taomillarini qo'llashga bo'lgan salbiy munosabati saqlanib turibdi.

To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarning muayyan prinsipga asoslanmaganligi, ayrim munosabatlarining keragidan ortiq tartibga solinganligi va bu mohiyatdan uzoqlashishga olib kelganligi, normalarning boshqa huquq sohalari normalari bilan nomuvofiqligi, bularning barchasi uzoq vaqtdan beri hal qilinmasdan kelmoqda. Ushbu holatlar to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligidagi parchalangan va nomuvofiq o'zgarishlarga barham berish, puxta o'ylangan konseptual islohotni tayyorlash vaqti kelganini anglatadi.

Bankrotlik to'g'risidagi qonunga ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishiga qaramay, amaliyotda bankrotlik to'g'risidagi ish, qoida tariqasida, kreditor tomonidan barcha qarzlarni undirish choralari qolmagandan so'ng boshlanmoqda. Qarzdorning mol-mulki ijro jarayonida sotib bo'lingan, bankrotlik ishi doirasida uning to'lov qobiliyatini tiklash, reabilitatsiya taomillarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar yetishmay qolyapti. Ijro ishini yuritishda bir kreditorning (da'vogarning) talablari qanoatlantiriladi, oqibatda mol-mulk boshqa kreditorlarga yetarli bo'lmaydi.

O'zbekistonda qarzdorlar bankrotlik to'g'risidagi ishlarni boshlashdan manfaatdor emaslar, ular soliq organlari va sud ijrochilari tomonidan qarzlarni undirish choralari amal-

ga oshirilganiga qaramay, o'z biznes faoliyatini uzoq vaqt davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Qarzdor boshqaruv organlari korxona ustidan nazoratni yo'qotishdan xavfsiraydi va ko'p hollarda kreditorlarning mantiqsiz pozitsiyasini yengib o'tishning samarali mexanizmlari yetishmasligi tufayli moliyaviy reabilitatsiya qilishga qaratilgan qarorlar qabul qilishni istamaydi.

Vaqtinchalik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan qarzdorga reabilitatsiya taomillarini qo'llash imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil, ehtimol, davriy to'lovlarni amalga oshirishdagi kechikishlar, qarzdorning moliyaviy holatidagi o'zgarishlar yoki bankrotlik to'g'risidagi ishda unga qarshi tugatish taomillarini qo'llanilishini ta'kidlash o'rinlidir.

Ko'p hollarda bankrotlik ishi doirasidan tashqarida kreditorlarni birlashtirish va to'plash, muammoni hal qilish va sudgacha sanatsiyani joriy etish orqali qarzdor faoliyatini tiklash imkonsiz, deb taxmin qilinadi. Odatda, kreditorlar soddalashtirilgan modelga muvofiq harakat qiladi va qarzdorga asossiz imtiyozlar berilishi haqidagi shubhalaridan xoli bo'lish uchun bankrotlik to'g'risidagi ishni qo'zg'atishni ma'qul ko'radi va uni joriy etish osonroq.

Yuqoridagi holatlar qarzdorning o'zi bankrotlik ishini qo'zg'atmayotganligi yoki sudgacha qarzdorlikni bartaraf qilishning muqobil yo'llari mavjud emasligi sababli paydo bo'lmoqda. Agar qarzdorning o'zi bankrotlik ishini qo'zg'atishdan manfaatdor bo'lsa, tashabbus ko'rsatganlik uchun unga qonun bilan muayyan imtiyoz taqdim etilgan bo'lsa, barcha kreditorlarning talablarini qanoatlantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kreditorlar uchun bankrotlik ishida qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan reabilitatsiya taomillari – sanatsiya yoki tashqi boshqaruvni joriy etish to'g'risida qaror qabul qilishga to'sqinlik qiladigan normalar mavjud emas, ammo bu juda kamdan-kam hollarda sodir bo'ladi. Buning sabablari turlicha bo'lishi

mumkin, masalan, ko'p hollarda qarzdorlar ma'lum iqtisodiy foyda keltiradigan biznes birligiga ega bo'lmaydi yoki biznes bo'lsa ham, kreditorlar uchun qiziqish uyg'otmaydi. Kreditorlar qarzdorda faqat mol-mulk yig'indisini ko'rishadi, uning hisobidan talablarini iloji boricha tezroq qanoatlantirishga harakat qiladi. Ushbu harakat, birinchi navbatda, bankrotlik ishida majburiy to'lovlarni undirish uchun qatnashadigan organga (soliq organlari) tegishlidir. Chunki qarzdorning asosiy massasi majburiy to'lovlarga to'g'ri keladi va ular, odatda, asosiy kreditor bo'lib qatnashadi. Agar qarzdor ishlab turgan biznesga ega bo'lsa, to'lov qobiliyatini tiklashda soliq organlari tashabbus ko'rsatadigan bo'lsa, shubhasiz, korxona to'lovga qobiliyatsizlik holatidan chiqib ketadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, AQSh, Yevropa va boshqa rivojlangan davlatlar qonunchiligidan farqli o'laroq, O'zbekistonda umumiy tartibda ko'riladigan bankrotlik ishlari kuzatuv taomilidan boshlanadi. Kuzatuv bankrotlik ishida qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan sanatsiya va tugatish taomillarini joriy etishdan oldingi jarayon hisoblanadi, ya'ni yana bir bosqich mavjud. Bir tomondan, kuzatuv faqat bankrotlik ishi-ning borishini kechiktiradi, uning noqulayligini oshiradi. Bunday taomilning mavjudligi aniq foyda keltirmasdan, qarzning ko'payishi va bankrotlik ishida qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Boshqa tomondan, kuzatuvni joriy etishning o'zi qarzdor uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ushbu davrda kreditorning talabiga binoan, qarzdordan mablag'larni undirish bilan bog'liq da'vo ishlarini yuritish yakunlanadi, ijro ishi to'xtatiladi, shu jumladan, qarzdorning mol-mulkiga nisbatan xatlov va ijro ishi paytida undiriladigan qarzdorning mol-mulkiga nisbatan boshqa cheklovlar, ayrim istisnolardan tashqari bekor bo'ladi.

Kuzatuv davomida qarzdorning moliyaviy ahvoli kreditorlarning birinchi yig'ilishiga-cha tahlil qilinadi. Kreditorlar sanatsiya yoki

tugatish tartibini joriy etish to'g'risida qaror qabul qilishlari uchun qarzdorning moliyaviy ahvoli to'g'risida hisobot talab qiladi. Sanatsiya yoki tugatish tartibini joriy etish to'g'risidagi qaror kuzatuv yakunida va qarzdorning moliyaviy holati tahlili natijalariga qarab qabul qilinadi.

Dunyo tendensiyalarini hisobga olgan holda, milliy qonunchilikni takomillashtirish

Qarzdorlar bankrotlik ishini boshlashdan manfaatdor emaslar va qarzdorlar reabilitatsiya taomillariga qarshi bo'lgan kreditorlarning pozitsiyasiga ta'sir qila olmaydi.

Reabilitatsiya taomillari qo'llaniladigan bankrotlik ishlari soni kam, aksariyat hollarda korxona davlat reestrndan chiqib ketadi - bunday vaziyatni normal deb bo'lmaydi. Shu bois qarzdorni reabilitatsiya qilishga doir ilg'or xorijiy huquqiy mexanizmlardan foydalanish va Bankrotlik to'g'risidagi qonunda keltirilgan reabilitatsiya normalarini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda maqbul huquqiy asoslarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Reabilitatsiya normalaridan samarali foydalanishga qaratilgan bunday o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kuzatuv taomilini qonunchilikdan chiqarish yoki oxirgi chora sifatida obyektiv zarurat mavjud bo'lganda qo'llash, kreditorlar yig'ilishida qarorlar qabul qilish tizimlarini takomillashtirish lozim.

Qarzdorlar va kreditorlar nafaqat qarzdorni bankrot deb e'lon qilish to'g'risidagi ariza, balki reabilitatsiya qilish to'g'risidagi arizani ham taqdim etishlari kerak. Uning natijalariga ko'ra, qarzdorga nisbatan kuzatuv taomilini qo'llash yoki qo'llamaslik masalasi hal qilinadi.

Sud sanatsiyasi qo'llanilganda, qarzdor ma'lum vaqt ichida sud sanatsiyasi rejasini taklif qilish bo'yicha ustuvor huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi kerak. Ishda qatnashuvchi kreditorlar yoki vakolatli organlar, sud boshqaruvchi va muassislar belgilangan muddatda sud sanatsiyasi rejasini taklif qilish huquqiga ega bo'lishlari yoki qarzdor tomonidan ilgari surilgan rejani ko'rib, keyin

qaror qabul qilishlari lozim.

Sud sanatsiyasi rejasini kreditorlar talablarini qondirish uchun to'lov qobiliyatini tiklash, ish joylari va qarzdorning biznesini saqlab qolish uchun ishlab chiqiladi. To'lov qobiliyatini tiklash deganda, sanatsiya rejasiga muvofiq qoplanmagan qarzni sanatsiya davrida to'liq to'lab berilishi tushuniladi. Ushbu rejaga muvofiq, kreditorlarning talablari toifalarga bo'linadi. Kreditorlarning talablarini toifalarga bo'lish va har bir toifaga mansub bo'lgan talablarni qanoatlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash - kreditorlarning bitta navbatdagi talablarini mutanosib va teng qondirish prinsipini rad etadi. Talablarni toifalar bo'yicha guruhlash sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash tartibining moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan bo'lib, talablari tegishli toifaga kiritilgan kreditorlarga maqbul sharoitlar taqdim etiladi. Boshqa tomondan, kreditorlarning talablarini toifalarga bo'lish kreditorlarning kooperativligini oshirish, ularning raqobatini ta'minlash va kreditorlarni qarzdor bilan murosaga kelishga undashga qaratilgan. Ushbu yondashuv AQSh Bankrotlik kodeksining qoidalari bilan ta'minlangan bo'lib, bankrotlik ishida qo'llaniladigan reabilitatsiya taomillarini tartibga solish bo'yicha dunyodagi yetakchi amaliyotlardan biri sifatida tan olingan.

Bankrotlik to'g'risidagi qonun bankrotlik to'g'risidagi ishda qarzdor uchun majburiyatlarni qisqa muddatlarda bajarishni talab qiluvchi shartnomalarni chetlab o'tish va uning salbiy oqibatlarini ertaroq hal qilishni ta'minlash, shartnomalar shartlarini bartaraf etishga qaratilgan normalarni o'z ichiga olishi lozim. Ko'pgina hollarda shartnomalarning bunday qoidalari qarzdorga reabilitatsiya taomillarini qo'llashga to'siq bo'ladi. AQSh Bankrotlik kodeksi ushbu muammoni kreditorlarni toifalarga taqsimlash bilan bog'liq qoidalar bilan hal qiladi.

Agar sud sanatsiyasi rejasida kreditorning majburiyatlari bo'yicha kreditorning

huquqlari va majburiyatlari, majburiyatni bajarish muddati sud tomonidan reja tasdiqlangan sanagacha vujudga kelmaganligi ko'rsatilgan bo'lsa, reja kreditorning manfaatlariga ta'sir qilmagan deb hisoblanadi va majburiyat dastlabki shartlarga muvofiq bajariladi.

Ko'rsatilgan toifaga sud sanatsiyasi rejasida sud tomonidan tasdiqlaganidan keyin oz muddatga kechiktirilgan talablar va talabning qolgan qismini tegishli majburiyatning dastlabki shartlariga binoan qaytarishni nazarda tutadigan talablar ham kirishi mumkin.

Kreditorlar tomonidan yakka to'lov shartlari bilan kreditorlar toifalarga bo'linishni nazarda tutadigan sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlash nafaqat har bir toifa ichida bunday rejani ma'qullash (talablar miqdori va kreditorlar soniga muvofiq), balki barcha toifalar tomonidan bir ovozdan qaror qabul qilishni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni kreditorlar talablari toifalarining har biri nafaqat ushbu toifaning talablari qanday qondirilishi to'g'risida, balki boshqa har qanday kreditorlarning talablari qanday qondirilishi to'g'risida ham kelishib olishlari kerak.

Agar reja biron-bir kreditorning manfaatlariga ta'sir etmasa, ularning ovoz berishda ishtirok etishi talab qilinmasa, ular rejani ma'qullagan hisoblanadi.

Agar bir yoki bir nechta talablar toifalari qarzdor tomonidan taklif qilingan yoki tasdiqlangan sud sanatsiyasi rejasini tasdiqlashga qarshi ovoz bersa, reja sud tomonidan kreditorlarning rozilgisiz ma'lum shartlarga rioya qilgan holda tasdiqlanishi mumkin ("cram down" – pastga tushish prinsipi). Bunga faqat rejaga qarshi ovoz bergan kreditorlarning har biri bankrotlik ishida qarzdorning mol-mulkini sotish natijasida olinadiganidan ko'proq narsani olish sharti kiritilishi bilan yo'l qo'yiladi.

"Pastga tushish" prinsipini qo'llash kreditorlarning manfaatlarini buzishga emas, balki ularning iqtisodiy jihatdan asossiz va mantiqsiz pozitsiyasini yengishga qaratilgan bo'lib, rejani tasdiqlash nafaqat qarzdor,

uning xodimlari va jamiyat, balki kreditorning o'zi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rejani tasdiqlashda sud jamiyat manfaatlarini, shu jumladan, ish joylarini saqlab qolish zarurligini hisobga olishi kerak. Qarzdorga nisbatan taomillarni joriy etish shartnoma tuzishda taraflar amal qilayotgan shartlarga sezilarli o'zgartirish qilmasligi va qarzdor kontragentining shartnomani bir tomonlama o'zgartirish yoki bekor qilishga asos bo'lmasligi lozim.

Xulosalar

Sudning roli rahbarlikni amalga oshirish, tomonlarning dalillari va bankrotlik to'g'risidagi ishning holatlarini har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lishi zarur. Bankrotlik to'g'risidagi ishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, sudning iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi dalillarni baholashi hamda o'zining ichki ishonchiga ko'ra qaror qabul qilishi ishning ajralmas qismi hisoblanadi.

To'lovga qobiliyatsizlik huquqining vazifalaridan biri qarzdorning aktivlari hisobidan kreditorlarning talablarini adolatli qondirish uchun eng tezkor va eng samarali raqobatbardosh tartibni o'rnatishdan iborat. Vaqtinchalik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, ammo zarur huquqiy vositalar bilan ta'minlash orqali to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyatiga ega bo'lgan qarzdorning manfaatlarini himoya qilish ham nihoyatda muhimdir. Bu davriy inqiroz jaryonlari va iqtisodiy subyektlarni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning cheklangan resurslari sharoitida ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Moliyaviy inqiroz sharoitida, bozor ishtirokchilarining katta qismi inqiroz omillari bosimi ostida bo'lganda, samarali to'lovga qobiliyatsizlik qonunchiligi xavflarni adolatli taqsimlashga imkon beradigan muhim chora bo'lishi lozim.

Bankrotlik to'g'risidagi qonunga takomillashtirishga doir bunday tuzatishlarning kutilayotgan natijalari bankrotlik ishida qo'llaniladigan taomillarning samaradorligini oshirish va kreditorlarning talablarini qanoatlantirish, vaqtinchalik qiyinchiliklarni

boshdan kechirayotgan qarzдорlarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bozor munosabatlari sharoitida muqarrar ravishda yuzaga keladigan inqiroz hodisalarini doimiy ravishda bartaraf etish orqali iqtisodiy faoliyat barqarorligi va samaradorligini oshiradi.

To'lovga qobiliyatsizlikni huquqiy tartibga solishda butun dunyoda keng qo'llanilayotgan korxonalar reabilitatsiyasini mustahkamlashga doir tendensiya ustuvorligini o'rnatish lozim. Uning tanlanishi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash shakli sifatida e'tirof etilishi bilan ahamiyatlidir.

REFERENCES

1. McCormack G. Corporate Rescue Law – an Anglo-American Perspective. UK, University of Leeds, 2008, pp. 66-67.
2. Vitryanskii V.V. Ya bi vvel let na pyat moratoriy na podgotovku lyubix izmeneniy v zakonodatelstvo o bankrotstve [I would introduce a five-year moratorium on the preparation of any changes to the bankruptcy law]. *Vestnik Arbitrazhnogo suda Moskovskogo okruga – Bulletin of the Arbitration Court of the Moscow District*, 2012, no. 3. pp. 14-18.
3. Sidorova V.N. Osobennosti pravovogo regulirovaniya otnoshenii nesostoyatelnosti (bankrotstva): istoriya i sovremennost [Peculiarities of legal regulation of insolvency (bankruptcy) relations: history and modernity]. *Istoriya gosudarstva i prava – History of State and Law*, 2010, no. 3, pp. 4-8.
4. Restructuring & Insolvency 2022. Available at: <http://www.weerawongcp.com/data/know/126.pdf/>.
5. Dobrachev D.V. Denezhnye obyazatelstva: tendentsii razvitiya doktriny i sudebnoi praktiki [Monetary obligations: trends in the development of doctrine and judicial practice]. Moscow, Infotropik Media Publ., 2015, 168 p.
6. Kondrat E.N. Neeffektivnost zakonov i probely v zakonodatelstve kak ugroza finansovoi bezopasnosti gosudarstva [Inefficiency of laws and gaps in legislation as a threat to the financial security of the state]. *Administrativnoe i munitsipalnoe pravo – Administrative and Municipal Law*, 2015, no. 6, pp. 35-36.
7. Egorov D.V. O nekotorykh voprosakh, svyazannykh s prodazhei predpriyatiya dolzhnika v protsedure bankrotstva [On some issues related to the sale of the debtor's enterprise in bankruptcy proceedings]. *Yurist – Lawyer*, 2007, no. 11, pp. 48-52.
8. Special report. Weak Emerging Market Insolvency Regimes Drive Caution April 2010. FitchRatings. Available at: <https://www.fitchratings.com/>.
9. Telyukina M.V. Problemy sovremennoi tsivilistiki [Problems of modern civil law]. Collection of articles dedicated to the memory of S.M. Korneev. Ed. E.A. Sukhanov, M.V. Telyukina. Moscow, Statut Publ., 2013, 348 p.
10. Sidorova V.N. Nesostoyatelnost (bankrotstvo): nekotorye problemy yuridicheskogo sostava [Insolvency (bankruptcy): some problems of the legal composition]. *Yuridicheskii mir – Legal World*, 2009, no. 5, pp. 56-59.
11. Orderly & Effective Insolvency Procedures Key Issues Legal Department International Monetary Fund. Available at: <http://www.imf.org/external/pubs/ft/orderly/>.
12. Lyubanenko A.V., Chukreevlar A.A. Sovremennye tendentsii razvitiya zakonodatelstva Rossiyskoy Federatsii o nesostoyatelnosti (bankrotstve) [Modern trends in the development of the legislation of the Russian Federation on insolvency (bankruptcy)]. *Vestnik Surgutskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of Surgut State University*, 2021, no. 2 (32), pp. 106-115. DOI: 10.34822/2312-3419-2021-2-106-115/.

13. Wood P. Principles of International Insolvency. 2nd ed. London, Sweet & Maxwell, 2007, 1064 p.
14. Mann B.H. Bankruptcy in the Age of American Independence. Cambridge, MA, Harvard University Press, 2009, 358 p.
15. Martino P.D. Approaching disaster: personal bankruptcy legislation in Italy and England, 1880–1939. *Business History*, 2005, no. 1, pp. 23-43. DOI: 10.1080/0007679042000267451/.
16. European Law Institute Projects Conference. Zagreb, Croatia, 2014, September 25. *Business Rescue in Insolvency Law*, European Law Institute. Available at: https://www.europeanlawinstitute.eu/fileadmin/user_upload/p_eli/Publications/Instrument_INSOLVENCY.pdf/.
17. Nathalie M. The role of history and culture in developing bankruptcy and insolvency systems: The perils of legal transplantation. *Boston College International and Comparative Law Review*, 2005, vol. 28, no. 2, pp. 3-77. Available at: <https://ssrn.com/abstract=1444531/>.
18. Parry R. Introduction. Corporate Rescue. An Overview of recent developments from selected countries in Europe. Eds. B. Gromek, R. Parr. The Hague, London, New York, Kluwer Law International, 2004, pp. 4-8.
19. Warren E. Bankruptcy and Article 9. Statutory Supplement. New York, Wolters Kluwer Law & Business, 2014, p. 38.
20. Bridge C. Insolvency – a second chance? Why modern insolvency laws seek to promote business rescue. *Law in Transition*, 2013, pp. 30-41. Available at: <https://www.ebrd.com/documents/legal-reform/insolvency-a-second-chance.pdf/>.
21. U.S. Bankruptcy Courts – Business and Nonbusiness Cases Commenced, by Chapter of the Bankruptcy Code, During the 12-Month Period Ending December 31, 2021. Available at: https://www.uscourts.gov/sites/default/files/data_tables/bf_f2_1231.2021.pdf/.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Tashkulov Akbar Djurabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: F. Muhammadiyeva, K. Abduvaliyeva,
Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, Sh. Yusupova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 22,66 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 46.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЮРИДИК УНИВЕРСИТЕТИ**

Қўлёзма ҳуқуқида

УДК: 336.74(043.5) (575.1)

НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЪДИЕВИЧ

**ЎЗБЕКИСТОНДА КАПИТАЛ БОЗОРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ
ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ**

12.00.03 – Фуқаролик ҳуқуқи. Тадбиркорлик ҳуқуқи.
Оила ҳуқуқи. Халқаро хусусий ҳуқуқ

**Юридик фанлари доктори (Doctor of Science)
илмий даражасини олиш учун тайёрланган
ДИССЕРТАЦИЯ**

Илмий маслаҳатчи: Гулямов Саид Саидахбарович,
юридик фанлар доктори, профессор

Тошкент – 2022 йил

МУНДАРИЖА

КИРИШ (Фан доктори (DSc) диссертацияси аннотацияси)	5
1.1. § Капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солиш зарурати, умумий тавсифи, вазифалари ва тузилиши.....	20
1.2. § Ўзбекистонда капитал бозори ҳуқуқий асосларининг эволюцияси	29
1.3. § Ўзбекистон ва айрим МДХ мамлакатларида капитал бозорининг ривожланиш даражаси	37
Биринчи боб бўйича хулосалар	48
II БОБ. КАПИТАЛ БОЗОРИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	50
2.1. § Капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солишда назариянинг аҳамияти.....	50
2.2. § Капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солишга оид асосий ёндашувларнинг умумий тавсифи.....	52
2.3. § Капитал бозорини тартибга солишнинг замонавий муаммолари	64
2.4. Давлатнинг иқтисодиётдаги иштирокига оид асосий назариялар ва амалиётлар таҳлили	76
Иккинчи боб бўйича хулосалар.....	108
III БОБ КАПИТАЛ БОЗОРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ.....	112
3.1. Капитал бозорини тартибга солиш бўйича ваколатли органнинг мустақиллиги	112

3.2. Капитал бозоридаги ваколатли органни ташкил этиш бўйича хорижий давлатлар тажрибаси	121
3.3. Капитал бозоридаги ваколатли органни ташкил этиш бўйича Ўзбекистон тажрибаси	137
Учинчи боб бўйича хулосалар	143
IV – БОБ КАПИТАЛ БОЗОРИ ВА БАНК ФАОЛИЯТИНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ	145
4.1. Банк ва капитал бозорини тартибга солишда молиявий структуранинг аҳамияти.....	145
4.2. Қарз ва капитал ҳамда банк ва капитал бозори тушунчаларининг қиёсий-ҳуқуқий таҳлили	149
4.3. Ҳуқуқий тартибга солиш мувозанатга эришиш воситаси сифатида	160
Тўртинчи боб бўйича хулосалар	165
V-БОБ КАПИТАЛ БОЗОРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ	167
5.1. Капитал бозорида сунъий интеллектдан фойдаланиш масалалари	167
5.2. Капитал бозорида робот маслаҳатчилардан фойдаланишнинг ҳуқуқий жиҳатлари.....	173
5.3. Капитал бозорида рақамли мол-мулкдан фойдаланишнинг ҳуқуқий масалалари	177
Бешинчи боб бўйича хулосалар	182
VI БОБ КАПИТАЛ БОЗОРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	183
6.1. МДХ мамлакатларида капитал бозори бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш омиллари.....	183

6.2. Айрим МДХ мамлакатларида капитал бозорининг ҳуқуқий асослари қиёсий таҳлили	186
6.3. Ўзбекистон мисолида капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш масалалари	205
Олтинчи боб бўйича хулосалар	220
ХУЛОСА	222
I. Илмий назарий хулосалар:	222
II. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни янада такомиллаштиришга қаратилган таклиф ва тавсиялар:	227
ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ	232
ИЛОВАЛАР	248
Ўзбекистон Республикасида қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи асосий ҳуқуқий ҳужжатлар	248
Ўзбекистон Республикасининг капитал бозорига оид қонунчилигини такомиллаштириш бўйича таклифлар	259

КИРИШ (Фан доктори (DSc) диссертацияси аннотацияси)

Диссертация мавзусининг долзарблиги ва зарурати. Дунёда пандемия сабабли пасайган иқтисодий фаоллик 2021 йилда тикланиш босқичига ўтиб, иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари сингари капитал бозорларида ҳам сезиларли ўсишни кўрсатди. Жумладан, дунё бўйича глобал қимматли қоғозлар бозори капиталлашуви 105,8 триллион долларни ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 18,2 фоизга ошган. Биргина АҚШда бу кўрсаткич 12,2 триллион долларни ташкил этиб, олдинги йилга нисбатан 48,1 фоиз ўсишни ташкил этган.¹ Гарчи ижобий ўсиш кузатилсада, айрим ривожланаётган давлатларда капитал бозори салоҳиятидан иқтисодиётни ривожлантиришда самарали фойдаланилмаётганлиги, фуқаролик муомаласида уларнинг роли сезилмаётганлиги, рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологияларининг жадал ривожланиш даврида капитал бозорининг аҳамияти ортиб бораётганлиги ушбу мавзунинг долзарблигидан далолат беради.

Жаҳонда капитал бозорининг самарали ҳуқуқий тизимини таъминлаш, рақамли иқтисодиёт шароитида қимматли қоғозларнинг янги инновацион турларини тадқиқ этиш, давлат томонидан банк ва капитал бозорини тартибга солишда адолатлилик ва тенглик тамойилларига амал қилиш, аҳолини инвестициялаш жараёнларига кенгроқ жалб этиш ҳамда инвесторларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш бўйича илмий таҳлиллар ўтказилишига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Жумладан, капитал бозорининг молия тизимидаги аҳамиятини ошириш, ахборот технологияларининг ривожланиши сабабли пайдо бўлаётган янги молиявий воситаларнинг фуқаролик-ҳуқуқий мақомини белгилаш мақсадида норматив-ҳуқуқий базани тизимлаштириш ва такомиллаштириш, миллий қонунчиликни халқаро стандартларга мослаштириш, қонунчилик

¹ The SIFMA Capital Markets Fact Book, 2021. <https://www.sifma.org/resources/research/fact-book/>

ҳужжатлари ва ҳуқуқни қўллаш амалиёти билан боғлиқ муаммоларнинг илмий ечимини топиш долзарблик касб этмоқда.

Республикамизда ишбилармонлик ва бизнес муҳитини янада яхшилаш, капитал бозорининг ҳуқуқий асосларини яратиш, бизнесни молиялаштиришда капитал бозорининг улушини ошириш, аҳолининг бўш маблағларини иқтисодиёт тармоқларига кенг жалб этиш, акциядорларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишга алоҳида аҳамият берилиб, қатор мақсадли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Капитал бозорининг халқаро стандартлари бўйича қараганда Ўзбекистон бугунги кунда капитал бозорининг ривожланганлик даражасини белгиловчи халқаро рейтинглар (MSCI, FTSE Russell, Standard and Poor's) бўйича энг пастки поғонада² (pre-frontier market, frontier market, emerging market, developed market) турибди.³ Соҳа мутахассисларининг фикрича, изчил ва самарали ислохотлар бўлганда дастлабки босқичдан ривожланган босқичгача ўртача 20-25 йил талаб этилади. Бугун Ўзбекистон дунёдаги 26 та энг тез ривожланаётган давлатлардан бири саналади.⁴ Бундай ривожланишда ҳозирча капитал бозорининг улуши унчалик сезилмаяпти. Бугунги кунда Ўзбекистонда капитал бозори капиталлашуви мамлакат ялпи ички маҳсулотининг 6 фоизи атрофида.⁵ Ривожланаётган давлатларда бу кўрсаткич 30-60 фоиз атрофида бўлиб, ривожланган давлатларда 100 фоиз ва ундан ҳам ортиқни ташкил этади. 2023 йил якунига қадар капитал бозорининг капиталлашувини 45 трлн сўмга етказиш⁶ ва 2025 йилга қадар эркин муомаладаги қимматли қоғозлар ҳажмини мамлакат ЯИМга нисбатан

²Капитал бозорининг ривожланганлик даражалари бўйича батафсил маълумот учун қarang: <https://www.nasdaq.com/articles/what-difference-between-developed-emerging-and-frontier-market-2012-05-11>

³ DCM Investor Report, 2022. <https://www.intralinks.com>

⁴ Karen Ward, "The World in 2050," *Quantifying the shift in the global economy*. HSBC (2011): 2–3

⁵ 2021 йил 17 мартда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати томонидан Капитал бозорини ривожлантириш агентлиги билан биргаликда "Барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлашда молия бозорининг роли: ҳуқуқий ва институционал тўсиқлар" мавзусида халқаро конференцияда Сенат раиси Т.Норбоевнинг нутқидан. Манба: https://uza.uz/uz/posts/kapital-bozoridagi-vaziyat-mavzhud-muammolar-valarning-echimi_249659

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Капитал бозорини янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида»ги 2021 йил 13 апрелдаги ПФ-6207 сонли Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/5371091>

10 фоизга етказиш кўзда тутилган.⁷ Республикамизнинг келгуси беш йилдаги дастурий ҳужжати сифатида қабул қилинган **Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси**да иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 млн. АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш мақсади қўйилган.⁸ Мазкур тадқиқот орқали биз мамлакатимизнинг ушбу кўзланган марраларга эришишида, бу борадаги ислохотларни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлашда яқиндан кўмак беришни мақсад қилганмиз. Хусусан, капитал бозоридаги муносабатларни тартибга солишга қаратилган амалдаги ҳуқуқий тизим ўта тарқоқ бўлиб, айрим ҳолларда бир-бирига қарама-қарши бўлган юзга яқин меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлардан таркиб топганлиги, инвесторлар учун қулай бўлган ягона ҳуқуқий манбанинг мавжуд эмаслиги, мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни халқаро норма ва тамойилларга мослаштириш зарурати мазкур ишда кўриб чиқиладиган асосий масалалардан саналади. Соҳадаги ҳуқуқий жиҳатдан тиргакка муҳтож бўлган яна бир энг муҳим масала бу инвесторлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш механизмининг етарли даражада самарали эмаслиги. Инвесторларни ҳимоя қилиш индексининг кучи ўртача 3 та индексни ташкил этади — ошкор қилиш индекси, директорнинг жавобгарлиги индекси ва акциядорлар даъвосининг қулайлиги индекси.⁹ Расмий тан олинган манбалардан тузилган Жаҳон банкининг ривожланиш кўрсаткичлари ҳисоботида кўра, Ўзбекистонда инвесторларни ҳимоя қилиш индексининг мустаҳкамлиги 2016 йилда 5,7% ни ташкил қилди.¹⁰ Бугунги кунда инвесторларнинг, хусусан акциядорлик

⁷ Капитал бозорини ривожлантириш бўйича парламентда ташкил этилган семинар ахбороти. Батафсил қаранг: <https://kun.uz/news/2020/12/25/ozbekistonda-kapital-bozori-kapitallashuvi-yaimning-1-foiziga-teng>

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони // <https://lex.uz/pdfs/5841063>

⁹ Маълумотлар корпоратив адвокатларнинг сўровидан олинган бўлиб, қимматли қоғозлар тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари, компания қонунлари ва суд далиллари қоидаларига асосланади. Манба: Жаҳон банки, Бизнес юритиш лойиҳаси <http://www.doingbusiness.org/ExploreTopics/ProtectingInvestors/>

¹⁰ Индекс 0 дан (инвесторларнинг ҳимояси йўқ) дан 10 гача (инвесторларнинг ҳимояси юқори). Ўзбекистон — Инвесторларни ҳимоя қилиш индексининг мустаҳкамлиги — ҳақиқий рақамлар, тарихий маълумотлар, прогнозлар ва прогнозлар Жаҳон банкidan 2022 йил февралда олинган. Батафсил маълумот учун қаранг: <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/strength-of-investor-protection-index-0-to-10-wb-data.html>

жамиятларидаги миноритар акциядорларнинг ҳуқуқлари қай даражада ҳимояланганлиги, жамият томонидан ахборотни ошкор этиш, дивидендларни ўз вақтида тўлаш каби фундаментал мажбуриятларнинг лозим даражада бажарилишини таъминлаш долзарб масалалардан бўлиб турибди. Масалан, биргина 2020 йилда аниқланган қонун бузилишлари бўйича ваколатли давлат органи томонидан инвесторлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида акциядорлик жамиятларига 201 та кўрсатма берилган, судларга 144 та даъво аризаси киритилган ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга 66 та ҳужжат юборилган. Инвесторлардан келиб тушган мурожаатларни ўрганиш натижаларига кўра, 20.3 млрд. сўм дивиденд кўринишидаги пул маблағлари ундириб берилиши таъминланган.¹¹ Бундан ташқари, ахборот технологиялари тобора ривожланиб бораётган бугунги кунда капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солишнинг рақамлаштирилиши ва ушбу соҳадаги муносабатларнинг ижтимоий тармоқлар ҳамда онлайн платформага ўтаётган турларини¹² илмий-назарий таҳлил қилган ҳолда уларни ҳуқуқий таъминлаш бўйича хулоса тақдим этиш ҳам бугунги кундаги ушбу соҳадаги долзарб масалалардан саналади.

“Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида”ги (2015), “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги (2012), “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги (2014), “Масъулияти чекланган ҳамда қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида”ги (2001) қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 апрелдаги “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6207-сонли Фармони, 2022 йил 17 январдаги “Капитал бозорини қўллаб-қувватлашнинг самарали механизмларини жорий этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-90-сон Қарори, 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «Янги Ўзбекистоннинг

¹¹ Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг 2021 йил 3-февралдаги мажлиси маълумотларидан. Батафсил қаранг: <https://parliament.gov.uz/uz/events/chamber/33535/>

¹² Батафсил қаранг: Samir Das, Digital transformation in Securities and capital markets. <https://www.wipro.com/capital-markets/digital-transformation-in-securities-and-capital-markets/>

2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони ва мавзуга оид бошқа қонунчилик ҳужжатларида белгиланган вазифаларнинг амалга оширилишида ушбу диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қилади.

Тадқиқотнинг республика фан ва технологиялари ривожланишининг асосий устувор йўналишларига боғлиқлиги. Мазкур тадқиқот республика фан ва технологиялар ривожланишининг I. «Ахборотлашган жамият ва демократик давлатни ижтимоий, ҳуқуқий, иқтисодий, маданий, маънавий-маърифий ривожлантиришда инновацион ғоялар тизимини шакллантириш ва уларни амалга ошириш йўллари» устувор йўналиши доирасида амалга оширилган.

Диссертациянинг мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи. Капитал бозорининг назарий-ҳуқуқий таъминланиши муаммолари бўйича илмий тадқиқотлар дунёнинг етакчи илмий марказлари ва университетларида, жумладан, University of Chicago (АҚШ)¹³, Cambridge University (Буюк Британия),¹⁴ Harvard University (АҚШ)¹⁵, Pennsilvaniya University (АҚШ),¹⁶ Nagoya University (Япония), Kobe University (Япония) олиб борилмоқда.

Капитал бозорининг назарий-ҳуқуқий таъминланиши борасидаги хорижий илмий тадқиқотлар натижасида қатор илмий натижаларга эришилган, жумладан: Чикаго университети олимлари тадқиқоти ҳуқуқни иқтисодий таҳлил қилишнинг меъёрий ёндашуви бойлиқни максимал даражада оширишга асосланган ҳуқуқий тизимни шакллантиришнинг самарадорлик мезонини таклиф қилган; Кембридж университети олимлари эса давлатнинг капитал бозорини тартибга солишдаги асосий вазифаси

¹³ Brine, Kevin R., and Mary Poovey. Finance in America: An Unfinished Story. University of Chicago Press, 2017; Posner R A, Economic analysis of law, Boston: Little, Brown, University of Chicago Law School, 1972.

¹⁴ Driesen, David M. The Economic Dynamics of Law. Cambridge University Press, 2012.

¹⁵ Aldo Musacchio and Sergio G. Lazzarini, "Reinventing State Capitalism: Leviathan in Business, Brazil and Beyond", Harvard University Press (2013)

¹⁶ Joseph E. Stiglitz, "The Anatomy of a Murder: Who Killed the American Economy?", in *What Caused the Financial Crisis*, ed. Jeffrey Friedman (Pennsylvania: University of Pennsylvania, 2011), 144.

ижтимоий манфаатни таъминлаш орқали молиявий инқирозларнинг олдини олишга қаратиш, тартибга солишнинг қолган масалаларини эса бозорнинг ўзига қўйиб бериш керак, деган хулосага келишган; мазкур университетнинг бошқа бир гуруҳ олимлари эса бозор иқтисодиётида ўз-ўзини тартибга солиш автоматик бўлади, деган тахминни шубҳа остига қўйган ва давлатнинг иқтисодий жараёнларга аралашуви зарурлигини асослаб берган; Гарвард университети олимлари эса давлат капитализмининг назарий асосларини тадқиқ қилиб, давлатнинг капитал бозорини тартибга солишдаги ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлишини қайд этганлар; Пенсилвания университети олимлари капитал бозорини тартибга солишга қаратилган энг машҳур микро ва макроиқтисодий назарияларнинг кўпчилиги тартибга солувчилар, инвесторлар, банкирлар ва сиёсатчиларга ёрдам бериш ва қўллаб-қувватлаш орқали молиявий инқироз вужудга келишига асос яратганликларини таъкидлаб, бу масалада давлатнинг капитал бозорини тартибга солиш сиёсати қатъий бўлишини асослаб беришган; Нагоя университетида олиб борилган тадқиқотда асосан капитал бозори соҳасидаги ваколатли давлат органининг ҳуқуқий мақоми ва институционал тузилиши бўйича интеграциялашган моделнинг афзаллигини асослашга ҳаракат қилинган; Кобе университети тадқиқотчиси капитал бозорини тартибга солишда молия бозорининг бошқа институтлари билан таққослаган ҳолда таҳлил қилган.

Жаҳонда капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солиш бўйича, хусусан қуйидаги устувор йўналишларида тадқиқотлар олиб борилмоқда: бозорни тартибга солишда давлатнинг роли ва ваколатли органнинг ҳуқуқий мақоми; капитал бозоридаги давлатнинг акциядор ва инвестор сифатидаги иштироки; банкларнинг капитал бозоридаги иштироки; капитал бозорида сунъий интеллектдан фойдаланишнинг ҳуқуқий масалалари; робот-маслаҳатчиларнинг ҳуқуқий мақоми; токен, дастлабки танга таклифларининг (ICO - Initial Coin Offering) молиявий воситалар сифатидаги ҳуқуқий табиати каби масалаларнинг илмий-назарий ва амалий ечимини топиш.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Ўзбекистонда капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш масалалари таҳлили, рақамлаштириш шароитларида капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солиш, шунингдек бу соҳадаги халқаро стандартлар ва хорижий давлатларнинг тажрибалари мамлакатимизда мустақил тадқиқот объекти сифатида ўрганилмаган.

Корпоратив бошқарув ва акциядорлик жамиятлари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш С.Гулямов¹⁷ ва Ж.Юлдашев¹⁸, қимматли қоғозлар муомаласининг ҳуқуқий жиҳатлари Ю.Назаров¹⁹, инвестиция активларини ишончли бошқариш шартномаси Б.Топилдиев, инвестиция фондларининг фуқаролик-ҳуқуқий мақоми А.Жумагулов ва венчур молиялашнинг ҳуқуқий асослари А.Тожибоевлар томонидан махсус тадқиқ этилган. Капитал бозорига оид муносабатларнинг иқтисодий жиҳатлари Ш.Шоҳазамий, И.Бутиков²⁰, З.Ашуров, А.Вахобов,²¹ Р.Каюмов,²² А.Расулов²³ каби иқтисодчи олимлар томонидан ўрганилган.

¹⁷ Гулямов С.С. Правовые основы функционирования рынка ценных бумаг в Республики Узбекистан. Учебное пособие. – Т.: ТГЮИ, 2013. – 256 с.

¹⁸ Юлдашев Ж.И. Акциядорлик жамиятлари – фуқаролик ҳуқуқининг субъекти сифатида. Ю.ф.н. дисс...автореф. – Т.: ТДЮИ, 2008. – 27 с.

¹⁹ Назаров Ю.Б.Правовое регулирование ценных бумаг а Республики Узбекистан: Автореф. канд. юрид. наук. – Т.: ИФП. 1997. -23 с.

²⁰ Бутиков И.Л. Рынок ценных бумаг Узбекистана в условиях современного экономического кризиса. // Ўзбекистон молия бозорини ривожлантиришда инвестиция фондларининг жозибадорлигини ошириш. Республика илмий-амалий конференция илмий мақола ва тезислари тўплами (2020 йил 29 апрель). – Тошкент: ТДИУ, 2020. – С. 628-633; Бутиков И.Л. Проблемы продолжения политики институциональных и структурных реформ по сокращению присутствия государства в экономике: правовая теория и правоприменительная практика. // Правовая политика Республики Узбекистан в условиях демократического обновления страны (концептуальные основы правовой политики). Коллективная монография. / Под ред. д.ю.н., проф. М.Х.Рахманкулова. – Ташкент: Институт мониторинга действующего законодательства при Президенте Республики Узбекистан, 2017.

²¹ Ашуров З.А., Вахобов А. Капитал бозорида ахборотни ошкор қилишнинг аҳамияти. // “Biznes-Эксперт” журнали. – Тошкент, 2021. – №11-12.

²² Каюмов Р.И. О необходимости создания условий для эффективного функционирования фондового рынка Узбекистана. // Управление государственное, муниципальное и корпоративное: теория и лучшие практики. Материалы Шестой Международной научно-практической конференции (12-13 ноября 2021 года). – Ростов н/Д: ФГБОУ ВО РГУПС, 2021. – С. 181-186.

²³ Каюмов Р.И., Расулов А.А. Роль государственных ценных бумаг в экономике страны. // Modern Scientific Challenges and Trends: a collection of scientific works of the International scientific conference. Part 2 (7-9 April, 2021) - Warsaw: Sp. z.o.o. “iScience”, 2021. - С. 89-91.; Каюмов Р.И., Саидов Х.Б. Проблемы использования зарубежных методов определения рыночной стоимости акций в Узбекистане. // Modern Scientific Challenges and Trends: a collection of scientific works of the International scientific conference. Part 2 (7-9 April, 2021) - Warsaw: Sp. z.o.o. “iScience”, 2021. - С. 92-95; Каюмов Р.И., Саидов Х.Б. Информирование участников фондового рынка для определения рыночной стоимости акций. // Инвестиционная привлекательность в обеспечении экономической стабильности стран: глобальные проблемы и пути их решения. Материалы

МДХ давлатларида М.Асеева, О.Глеба, В.Попов, Ю.Цепляева, Ю.Ельцов ва бошқа олимлар бу борада илмий тадқиқотлар олиб борган. Капитал бозорининг ҳуқуқий асосларини ҳам иқтисодий, ҳам ҳуқуқий жиҳатдан тадқиқ этган олимлар орасида капитал бозори ривожланган давлатларнинг муаллифлари етакчи ўрин эгаллайди. Хусусан, A.Douglas, Asli Demircuc-Kunt, Ha-Joon Chang, J. Coffee, S. Deakin, D. Driesen, Joseph E.Stiglitz, R. Pomfret, R. Posner, Muhammad Yunus каби олимларнинг ишлари мазкур тадқиқот иши доирасида ўрганиб чиқилган.²⁴

Диссертация мавзусининг диссертация бажарилган олий таълим муассасасининг илмий-тадқиқот ишлари режалари билан боғлиқлиги.

Тадқиқот иши Тошкент давлат юридик университети илмий-тадқиқот ишлари режасининг «Ривожланган давлатлар қонунчилик амалиёти ва халқаро савдо ҳуқуқи ютуқларини назарий тадқиқ этиш асосида олинган натижаларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш масалалари» мавзусидаги фундаментал лойиҳаси (2017 – 2021 й.й.) доирасида бажарилган.

Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистонда капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш ва уни қўллаш амалиёти самарадорлигини оширишга қаратилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифалари:

капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солишнинг зарурати, умумий тавсифи, вазифалари ва тузилишини тадқиқ этиш;

Ўзбекистонда капитал бозори ҳуқуқий асосларининг эволюцияси ҳамда Ўзбекистон ва айрим МДХ мамлакатларида капитал бозорининг ривожланиш даражаси ва муаммоларини ўрганиш;

капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солишда назариянинг аҳамиятини кўриб чиқиб, бу борадаги асосий ёндашувларни умумий тавсифлаш;

международной научно-практической онлайн конференции (14 мая 2021 года). – Ташкент: Министерство высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан, ТГЭУ, 2021. – С. 317-320.

²⁴ Олимлар ишларининг тўлиқ рўйхати диссертациянинг фойдаланилган адабиётлар рўйхатида кўрсатилган.

капитал бозорини тартибга солишнинг замонавий муаммоларини таҳлил қилиш ва давлатнинг иқтисодиётдаги иштирокига оид асосий назариялар ва амалиётларни ўрганиш;

капитал бозорини тартибга солиш бўйича ваколатли органнинг ҳуқуқий мақомини қиёсий-ҳуқуқий жиҳатдан таҳлил қилиш;

банк ва капитал бозорини тартибга солишда молиявий структуранинг аҳамияти, молия бозорида қарз ва капитал тушунчаларини таҳлил қилиш;

капитал бозорида сунъий интеллектдан фойдаланиш масалаларини, хусусан робот-маслаҳатчилардан фойдаланишнинг ҳуқуқий жиҳатлари ва рақамли мол-мулкдан фойдаланишнинг ҳуқуқий масалаларини таҳлил қилиш;

МДХ мамлакатларида капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш муаммоларини ўрганиш ва Ўзбекистон мисолида капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш, ҳуқуқни қўллаш амалиётини яхшилаш юзасидан тавсиялар беришдан иборат.

Тадқиқотнинг объекти Ўзбекистонда капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатлар тизими ҳисобланади.

Тадқиқотнинг предмети Ўзбекистонда капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштиришга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, ҳуқуқни қўллаш амалиёти, юридик фанда мавжуд бўлган концептуал ёндашувлар, илмий, амалий ва назарий қарашлар ва ҳуқуқий категориялардан иборат.

Тадқиқот усуллари. Тадқиқотни амалга оширишда тарихий ва тизимли усул, анализ ва синтез усули, қиёсий-ҳуқуқий ва таҳлил қилиш усули, норматив-ҳуқуқий ва амалий таҳлил усули, умумлаштириш, мантиқийлик ҳамда маълумотларни тизимли таҳлил қилиш каби усуллар қўлланилган.

Тадқиқотнинг илмий янгилиги қуйидагилардан иборат:

капитал бозоридаги муносабатларда янги субъект ҳисобланган – чет эллик номинал сақловчи ҳамда биржа облигацияларининг эмиссияси,

жойлаштирилиши ва муомаласига оид нормаларнинг киритилиши зарурлиги асослантирилган;

давлат иштирокидаги корхоналарни трансформация қилиш ва давлат улушига эга бўлган корхоналарни маҳаллий фонд биржасида оммавий таклиф орқали хусусийлаштиришни рағбатлантириш лозимлиги асослаб берилган;

қимматли қоғозларнинг «сукук» облигациялари каби янги турларини жорий этиш орқали диверсификация қилиш, ислом молиялаштириш тамойиллари асосида қимматли қоғозлар ва капитал бозорига оид бошқа молия хизматларини татбиқ этиш зарурлиги асослаб берилган;

капитал бозорининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштиришга қаратилган «Ахлоқий кадриятлар танқислиги синдроми» илмий назарияси ишлаб чиқилиб ва уни самарали жорий қилишнинг янги концепцияси асослантирилган;

«Тошкент» Республика фонд биржасининг расмий веб-сайтида инвесторларга капитал бозоридаги мавжуд молиявий воситалар ва уларнинг ҳолати бўйича ягона очик манбани тақдим этадиган электрон маълумотлар платформасининг ҳуқуқий асосларини ишлаб чиқиш зарурлиги асослантирилган;

капитал бозори профессионал иштирокчиларининг ўзини-ўзи бошқарувчи нодавлат бирлашмасини ташкил этиш ва капитал бозори соҳасидаги миллий рейтинг агентликларининг фаолиятини ташкил этишнинг ҳуқуқий асосларини яратиш лозимлиги асослаб берилган.

Тадқиқотнинг амалий натижаси қуйидагилардан иборат:

капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш борасида бозорнинг субъектлари ва объектлари сонини кўпайтириш, шу орқали бозорга киритиладиган инвестицияларнинг ҳажмини орттириш гипотезаси илгари сурилиб, бунинг учун энг аввало бозорга муқобил субъектлар ва молиявий воситалар киритилишининг ҳуқуқий асосларини яратиш лозимлиги асослаб берилди.

қимматли қоғозларни чиқариш ва муомалада бўлишини, инвестицияларни кенг жалб этиш, корпоратив бошқарувни ривожлантириш ва аҳолининг молиявий саводхонлигини ошириш бўйича комплекс чоратadbирларни кўзда тутувчи Ўзбекистонда капитал бозорини ривожлантириш концепциясини ишлаб чиқиш асослаб берилди.

Ўзбекистонда капитал бозорини тартибга солишнинг ҳуқуқий тизими таҳлили доирасида бу борадаги ислохотларнинг дастлабки йўналиши сифатида бугунги кунда тарқоқ бўлган норматив ҳужжатларни халқаро стандартлардан келиб чиққан ҳолда консолидация қилиш орқали инвесторлар учун қулай бўлган ягона ҳуқуқий манбани яратиш лозимлиги асослаб берилди.

Ўзбекистонда капитал бозорини тартибга солишнинг ҳуқуқий тизимини ислох этишнинг иккинчи йўналиши сифатида регуляторнинг ҳуқуқий мақоми, ваколатлари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари ҳамда жавобгарлиги белгиланган алоҳида қонун қабул қилиниши асослаб берилди.

капитал бозори иштирокчиларининг фаолиятини мониторинг қилиш самарадорлигини ошириш, инвестиция хизматлари кўрсатиш сифатини таҳлил қилиш, фойдаланувчиларни масофадан биометрик идентификациялаш (Face-ID) ва таваккалчиликларни баҳолаш (Risk management) учун сунъий интеллект технологияларини қўллашнинг ҳуқуқий асослари яратилиб, амалиёти жорий этилиши соҳанинг ривожига ижобий таъсир кўрсатиши асослаб берилди.

Тадқиқот натижаларининг ишончлилиги. Тадқиқот натижаларининг ишончлилиги ишда қўлланилган усуллар, унинг доирасида фойдаланилган назарий-илмий хулосалар халқаро илмий базалар ҳамда бошқа расмий манбалардан олинган ишончли маълумотлар асосида шакллантирилган. Тадқиқот олиб бориш жараёнида билдирилган айрим таклифлар амалиётга жорий этилган ва бу тегишли ваколатли органлар томонидан тасдиқланган. Тадқиқот натижалари етакчи миллий ва хорижий нашрларда эълон қилинган.

Тадқиқот натижаларининг илмий ва амалий аҳамияти. Тадқиқот натижаларининг илмий аҳамияти шундаки, унда акс этган илмий-назарий ғоялар ва қонунчиликка билдирилган таклифлардан капитал бозори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш соҳасида илмий тадқиқотлар олиб бориш, қонун ҳужжатларининг тегишли нормаларини шарҳлаш, миллий қонунчиликни ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш ҳамда «Қимматли қоғозлар бозори ҳуқуқи», «Инвестиция ҳуқуқи», «Бизнес ҳуқуқи», «Корпоратив ҳуқуқ» «Халқаро хусусий ҳуқуқ» каби фанларни ўқитишда ва методологик ёндашувларни такомиллаштиришда фойдаланилган.

Тадқиқот натижаларининг амалий аҳамияти қонун ижодкорлиги фаолиятида, хусусан норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш, уларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишда, ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштиришда ҳамда юридик олий таълим муассасаларида хусусий ҳуқуқ соҳасидаги фанларни ўқитиш жараёнида фойдаланиши мумкинлиги билан белгиланади.

Тадқиқот натижаларининг жорий қилиниши. Капитал бозорининг ҳуқуқий тизимини такомиллаштириш масалалари бўйича олиб борилган тадқиқот натижаларидан қуйидагиларда фойдаланилган:

капитал бозоридаги муносабатларда янги субъект бўлган – чет эллик номинал сақловчи ҳамда биржа облигацияларининг эмиссияси, жойлаштирилиши ва муомаласига оид нормаларнинг киритилишига оид таклифдан Ўзбекистон Республикасининг «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги Қонунининг (Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 3 июнда қабул қилинган ЎРҚ-387-сонли Қонуни таҳририда) 3-моддасига 2021 йил 27 августда киритилган ўзгартириш ва қўшимчаларда фойдаланилган. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Суд-ҳуқуқ масалалари ва коррупцияга қарши курашиш қўмитасининг 2022 йил 25 мартдаги 28-сонли далолатномаси). Мазкур таклиф капитал бозорининг ривожланиши учун

кўшимча имкониятлар тақдим этади ва инвесторлар учун таклиф этилаётган молиявий воситаларнинг сонини оширишга хизмат қилган;

давлат иштирокидаги корхоналарни трансформация қилиш; давлат улушига эга бўлган корхоналарни маҳаллий фонд биржасида оммавий таклиф орқали хусусийлаштиришни рағбатлантириш таклифи Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 13 апрелдаги ПФ-6207-сон Фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган “2021 — 2023 йилларда капитал бозорини ривожлантириш Дастури”ни ишлаб чиқишда кенг фойдаланилган. (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2022 йил 24 мартдаги 06/04-02-01-32/747-сонли далолатномаси). Мазкур таклиф капитал бозорида рақобат муҳитини яхшилаш билан бир қаторда унинг ҳажмини орттириш ва Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясида белгиланган кўрсаткичларга етказишга хизмат қилган;

қимматли қоғозларнинг «сукук» облигациялари каби янги турларини жорий этиш орқали диверсификация қилиш; ислом молиялаштириш тамойиллари асосида қимматли қоғозлар ва капитал бозорига оид бошқа молия хизматларини татбиқ этишга оид таклифлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 13 апрелдаги ПФ-6207-сон Фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган “2021 — 2023 йилларда капитал бозорини ривожлантириш Дастури”ни ишлаб чиқишда кенг фойдаланилган. (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2022 йил 24 мартдаги 06/04-02-01-32/747-сонли далолатномаси). Мазкур таклиф капитал бозорида рақобат муҳитини яхшилаш билан бир қаторда унинг ҳажмини орттириш ва Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясида белгиланган кўрсаткичларга етказишга хизмат қилган;

капитал бозорининг назарий асосларини такомиллаштиришга қаратилган “Ахлоқий кадриятлар танқислиги синдроми” илмий назарияси

ишлаб чиқилиб ва уни жорий қилишнинг илмий концепцияси Нидерландиянинг Wolters Kluwer нашриёти томонидан нашр этилган “Comparative Law Yearbook of International Business” номли қўлланманинг 2021 йилги 43-сонида чоп этилди. Бундан ташқари ушбу илмий концепциядан Тошкент давлат юридик университетининг бакалаврият таълим йўналишида кадрлар тайёрлашда, хусусан «Қимматли қоғозлар бозори ҳуқуқи» модулини ўқишда фойдаланилмоқда. (Тошкент давлат юридик университетининг 2022 йил 10 мартдаги далолатномаси). Ушбу таклиф жаҳонда капитал бозорини ҳуқуқий тартибга солишда ҳозирги бирёклама ёндашув ўрнига мувозанатлашган назарий асосни тақдим этган;

«Тошкент» Республика фонд биржасининг расмий веб-сайтида барча инвесторлар учун очиқ бўлган маълумотлар базасининг электрон платформаси ҳуқуқий асосларини яратишга оид таклифлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 13 апрелдаги ПФ-6207-сон Фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган “2021 — 2023 йилларда капитал бозорини ривожлантириш Дастури”ни ишлаб чиқишда кенг фойдаланилган. (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2022 йил 24 мартдаги 06/04-02-01-32/747-сон далолатномаси). Мазкур таклиф инвесторларга капитал бозоридаги мавжуд молиявий воситалар ва уларнинг ҳолати бўйича ягона манбани тақдим этади, соҳада ўзини-ўзи бошқариш тизимини такомиллаштиришни назарда тутди ва миллий баҳоловчи субъектлар фаолиятининг ҳуқуқий асосларини таъминлашга хизмат қилган;

капитал бозори профессионал иштирокчиларининг ўзини-ўзи бошқарувчи нодавлат бирлашмасини ташкил этиш ва капитал бозори соҳасидаги миллий рейтинг агентликларининг фаолиятини ташкил этиш учун ҳуқуқий асослар яратишга оид таклифлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 13 апрелдаги ПФ-6207-сон Фармонининг 1-илоvasи билан тасдиқланган “2021 — 2023 йилларда капитал бозорини

ривожлантириш Дастури”ни ишлаб чиқишда кенг фойдаланилган. (Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2022 йил 24 мартдаги 06/04-02-01-32/747-сон далолатномаси). Мазкур таклиф инвесторларга капитал бозоридаги мавжуд молиявий воситалар ва уларнинг ҳолати бўйича ягона манбани тақдим этади, соҳада ўзини-ўзи бошқариш тизимини такомиллаштиришни назарда тутди ва миллий баҳоловчи субъектлар фаолиятининг ҳуқуқий асосларини таъминлашга хизмат қилган.

Тадқиқот натижаларининг апробацияси. Мазкур тадқиқот натижалари 6 та илмий анжуманда, жумладан, 4 та халқаро ва республика миқёсида ўтказилган илмий-амалий конференция, давра суҳбатлари ва семинарларда синовдан ўтган.

Тадқиқот натижаларининг эълон қилинганлиги. Мазкур тадқиқот натижалари бўйича жами 18 та илмий иш, жумладан, 2 та монография, илмий журналлар ва тўпламларда 16 та (шундан 10 таси хорижий нашрларда) илмий мақола ва тезислар чоп этилган.

Диссертациянинг тузилиши ва ҳажми. Диссертация таркиби кириш, олтита боб, хулоса, фойдаланилган адабиётлар рўйхати, иловалардан иборат. Диссертациянинг ҳажми 236 бетни ташкил этган.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЮРИДИК УНИВЕРСИТЕТИ**

ҚОСИМОВ БОТИРЖОН МАЪРУФЖОН ЎҒЛИ

**ЎЗБЕКИСТОН ВА АМЕРИКА ҚЎШМА ШТАТЛАРИДА СУД
ҲОКИМИЯТИ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ:
ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ**

Монография

Тошкент – 2022

УЎК ----
КБК ---
Қ --

Тошкент давлат юридик университети Илмий-услубий кенгашининг
2022 йил ++ июлдаги ++ -сонли мажлис баённомаси қарори билан нашрга
тавсия қилинган.

ISBN: +++++++

Тақризчилар: Б. Наримонов – Тошкент давлат юридик университети
кафедра мудири, ю.ф.ф.д., доц.
Д. Артиков – Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий
кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактабининг
ўқитувчиси, ю.ф.ф.д.

Ўзбекистон ва Америка Қўшма Штатларида суд ҳокимияти
мустақиллигини таъминлаш масалалари: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил. Монография
// Б.М. Қосимов. – Т.: “-----”, 2022. – 144 б.

Ушбу монографиядан кўзланган асосий мақсад Ўзбекистон ва Америка
Қўшма Штатларида суд ҳокимияти муостақиллигини таъминлашнинг
конституциявий-ҳуқуқий асосларини илмий жиҳатдан қиёсий-ҳуқуқий таҳлил
этиш ҳамда бунинг асносида Ўзбекистонда суд ҳокимияти муостақиллигини
таъминлаш билан боғлиқ илмий хулосалар ишлаб чиқишдир.

Монографияда Ўзбекистон ва Америка Қўшма Штатларида суд
ҳокимияти муостақиллигининг назарий асослари, Ўзбекистон ва Америка
Қўшма Штатларида суд ҳокимияти муостақиллигини таъминлашнинг
конституциявий-ҳуқуқий асослари, Ўзбекистонда суд ҳокимияти
муостақиллигини кучайтириш истиқболларига доир масалалар таҳлил этилган.

Монография соҳа мутахассислари, тадқиқотчилар ва кенг китобхонлар
оммаси учун мўлжалланган.

© Б.М. Қосимов, 2022

© +++++

М У Н Д А Р И Ж А

КИРИШ.....	3
-------------------	----------

I БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ВА АМЕРИКА ҚЎШМА ШТАТЛАРИДА СУД ҲОКИМИЯТИ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

1.1. Суд ҳокимияти мустақиллиги тушунчаси ва конституциявий-ҳуқуқий табиати.....	14
1.2. Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлаш тенденциялари.....	28
1.3. Суд ҳокимияти мустақиллигига нисбатан тўсиқлар ва уларнинг келиб чиқиш манбалари.....	48

II БОБ. ЎЗБЕКИСТОН ВА АМЕРИКА ҚЎШМА ШТАТЛАРИДА СУД ҲОКИМИЯТИ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

2.1. Суд ҳокимияти органлари тизимининг конституциявий асослари...	65
2.2. Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашнинг конституциявий асослари.....	79
2.3. Суд ҳокимияти мустақиллиги конституциявий принципини таъминлаш масалалари.....	98

III БОБ. ЎЗБЕКИСТОНДА СУД ҲОКИМИЯТИ МУСТАҚИЛЛИГИНИ КУЧАЙТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

3.1. Суд ҳокимияти мустақиллиги конституциявий принципига риоя этилишини таъминлаш тизimini такомиллаштириш масалалари.....	114
3.2. Суд ҳокимиятининг молиявий мустақиллиги, судьяларнинг моддий ва ижтимоий таъминоти ҳамда дахлсизлигини кучайтириш масалалари.....	130
ХУЛОСА.....	147

КИРИШ

Дунёда демократик кадрят ҳисобланмиш суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш ва кучайтиришга қаратилган турли замонавий тенденцияларни кузатиш мумкин. Бунинг асоси, энг аввало, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларациясининг 10-моддасида мужассам бўлиб, унга кўра ҳар бир инсон тўлиқ тенглик асосида ўзининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари ва жиноий айблов билан боғлиқ бўлган ишининг мустақил суд томонидан кўриб чиқилиши ҳуқуқига эгадир¹. Бу ҳар бир давлат учун суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлаш мажбуриятини юзага келтиради. Бутунжаҳон одил судлов дастури халқаро нотижорат ташкилоти (The World Justice Project – WJP) томонидан 2006 йилдан буён ҳар йили эълон қилинадиган дунё мамлакатларида ҳуқуқ устуворлиги рейтингининг шакллантирилишида тегишли давлатларда суд ҳокимияти мустақиллигининг ҳолати муҳим баҳолаш мезонларидан бири ҳисобланади².

Бутун дунёда суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш масалалари юзасидан қатор илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, суд ҳокимияти мустақиллиги концепцияси ва суд ҳокимияти мустақиллигининг аҳамияти, судьялар мустақиллиги ва жавобгарлигининг ўзаро нисбати, суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашнинг механизмлари суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашнинг қиёсий таҳлили масалаларига муҳим илмий-амалий аҳамият касб этадиган тадқиқот йўналиши сифатида алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мамлакатимизда суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш, суднинг нуфузини ошириш, судьяларга ғайриқонуний тарзда таъсир ўтказишга йўл қўймаслик бўйича таъсирчан чоралар кўриш, суднинг мустақиллиги ва беғаразлиги тамойилларини ҳар томонлама татбиқ этиш масалалари устувор вазифалар этиб белгиланган бўлиб³. 2017-2021 йилларда

¹ https://www.ohchr.org/EN/UDHR/Documents/UDHR_Translations/eng.pdf

² <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/factors/2020/Constraints%20on%20Government%20Powers/>

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида назарда тутилган ушбу вазифаларнинг ижроси давлат дастурлари доирасида назарда тутилган тизимли чоратadbирлар орқали амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Судьяларни танлаш ва лавозимларга тавсия этиш бўйича олий малака комиссияси негизида Судьялар олий кенгаши ташкил қилинди ва унга конституциявий мақом берилди. Судьялар корпусини шакллантириш тизими такомиллаштирилди. Судьялик ваколат муддати судьялик лавозимида бўлишнинг илк маротаба беш йиллик, кейин ўн йиллик муддати ва шундан сўнг муддатсиз даври ўрнатиш йўли билан қайта кўриб чиқилди. Суд раисларининг судьяларга нисбатан интизомий иш қўзғатишга оид ваколоти тугатилди. Ўзбекистон Республикаси Олий судига адлия оранларининг умумий юрисдикция судлари фаолиятини моддий-техника жиҳатидан ва молиявий таъминлаш соҳасидаги вазифа ва ваколатлари ўтказилди.

Ривожланган давлатларда суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлаш масалаларини тадқиқ этиш, бу борада илмий асослантирилган назарий ва амалий таклифлар ишлаб чиқиш Ўзбекистонда суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлашга хизмат қилади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан 2017 йил 22 декабрь куни Олий Мажлисга йўлланган Мурожаатномасида билдирилган таклиф асосида ташкил этилган Олий Мажлис ҳузурида Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашга кўмаклашувчи комиссия зиммасига ривожланган хорижий мамлакатларнинг суд ҳокимияти ва судьялар мустақиллигини таъминлаш борасидаги тажрибасини ўрганиш вазифа сифатида юклатилгани ҳам юқоридаги фикрнинг долзарб эканини кўрсатади¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг “Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги Суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашга кўмаклашувчи комиссияни тузиш тўғрисида”ги Қўшма қарори. Қаранг: <https://lex.uz/docs/4266195>

Мазкур тадқиқот ишининг мавзусидан келиб чиқиб Ўзбекистонда суд ҳокимияти мустақиллигини англо-саксон ҳуқуқ тизимга асосланган Америка Қўшма Штатлари қонунчилиги ва тажрибаси билан қиёсий-ҳуқуқий тадқиқ этиш қай даражада тўғри деган мантиқий савол юзага келиши табиий. Бунда, шуни таъкидлаш жоизки, Америка Қўшма Штатларида англо-саксон ҳуқуқ тизими амал қилса-да, ундаги суд прецедентлари билан ўрнатилган ҳуқуқий нормалар романо-герман ҳуқуқий тизимга асосланган давлатларнинг қонунчилигида акс этиш тенденциясини кузатиш мумкин¹. Глобаллашув шароитида ҳуқуқий тизимлар ўртасида кузатиладиган бундай интеграция турли ҳуқуқий тизимга эга давлатлар учун ижобий тажрибаларни ҳуқуқий мустаҳкамлаш орқали ўзлаштириш имконият яратади. Ушбу ҳолатлар Ўзбекистон ва Америка Қўшма Штатларида суд ҳокимияти мустақиллигини қиёсий-ҳуқуқий таҳлил этишга бирон бир асосли тўсиқ мавжуд эмаслигидан дарак беради.

Ўзбекистонда суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашнинг назарий ва ҳуқуқий асосларини айнан Америка Қўшма Штатлари тажрибаси билан қиёсий-ҳуқуқий тадқиқ этишнинг аҳамиятини икки ҳолат билан изоҳлаш мумкин. Биринчидан, суд ҳокимияти мустақиллиги ғояси Америка Қўшма Штатларида қабул қилинган дунёдаги илк замонавий конституцияда сингдирилган бўлиб, у амалда ҳуқуқий қадриятга айланган. Иккинчидан, Америка Қўшма Штатлари ҳуқуқ устуворлиги индекси бўйича дунёнинг 120 дан ортиқ давлатлари орасида дастлабки йиғматалик таркибига кириб, давлат ҳокимияти ваколатларининг мустақил суд ҳокимияти томонидан чекланганлиги мезони бўйича юқори кўрсаткичга эга бўлиб келмоқда.

Шунга асосан, Ўзбекистонда суд ҳокимиятининг мустақиллигини таъминлаш билан боғлиқ назарий ва ҳуқуқий асосларни Америка Қўшма Штатлари тажрибаси билан қиёсий-ҳуқуқий тадқиқ этиш ва илмий

¹ Изоҳ: 1966 йили АҚШда Миранда Аризонага қарши ишига доир суд прецеденти (қаранг: <https://www.uscourts.gov/educational-resources/educational-activities/facts-and-case-summary-miranda-v-arizona>) билан ўрнатилган Миранда қоидаси Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал кодексининг 224-моддасида акс этган. Унга кўра шахсни ушлаш жараёнида шахсга у берган кўрсатувлардан жиноят ишига доир далиллар сифатида унинг ўзига қарши фойдаланилиши мумкинлигини билдириш талаб этилади.

асослантирилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш мамлакатда суд
хокимияти мустақиллигини янада кучайтиришда долзарб аҳамиятга эга.